



HUSOMUDDIN AXSIKATIY ILMY MEROSINING  
FARG'ONA FIQH MAKTABIDAGI O'RNI

Nishanova Dildora Komiljanovna

# Husomiddin Axsikatiy ilmiy merosining Farg'ona fiqh maktabidagi o'rni





**OLIV TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON XALQARO  
ISLOM SHUNOSLIK  
AKADEMIYASI**

**ORIENTAL UNIVERSITETI**



**NISHANOVA DILDORA KOMILJANOVNA**

**HUSOMUDDIN AXSIKATIY ILMIY  
MEROSINING FARG'ONA FIQH  
MAKTABIDAGI O'RNI**

**Toshkent – 2025**

UDK:52.1.98

KBK:56.1.12

D12

*D.K.Nishanova*

Husomuddin Axsikatiy ilmiy merosining Farg‘ona fiqh maktabidagi o‘rni

D.K.Nishanova – Toshkent: “ZAMON POLIGRAF” nashriyoti, 2025. – 158 b.

**Mas’ul muharrir:**

**A. A. Kariyev**

*Tarix fanlari doktori (DSc)*

**Taqrizchilar:**

**N.A. Muhamedov**

*Tarix fanlari doktori (DSc), professor*

**I.I. Bekmirzayev**

*Tarix fanlari doktori (DSc), professor*

**N.A. Mamataxunov**

*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

**G.M. Alijonova**

*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Monografiyada islom fiqhining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan usul al-fiqh asoslari, uning islom ilmida tutgan o‘rni, Husomuddin Axsikatiy ilmiy merosining ahamiyati, “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining Farg‘ona fiqh maktabiga qo‘shgan hissasi haqida fikr ma‘lumotlar berilgan. Alloma yashagan davrda ijtimoiy-siyosiy va diniy hayot, Husomuddin Axsikatiy ilmiy merosining sharhlari va hozirgi kunda jahon qo‘yozmalar fondlarida saqlanayotgan nusxalari va boshqa bir qancha ma‘lumotlar tadqiq etilgan. Manbashunoslik, islom tarixi hamda islom huquqshunosligiga qiziquvchi tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu monografiya “Oriental universiteti” kengashining 2025yil 28-mayda 7-sonli bayonnomasi hamda O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasining Ilmiy, o‘quv-uslubiy Kengashining 2025-yil 5-noyabrda 3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

*O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining  
12.08.2025-yil sanadagi 02-07/4992-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.*

ISBN: 978-9910-616-57-0

© Nishanova Dildora Komiljanovna, 2025

© O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

© Oriental universiteti, 2025

## SO‘Z BOSHI

Jahon tarixida huquqiy-axloqiy me‘yorlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishda o‘ziga xos mavqeni egallagan islom huquqining muhim tarkibiy qismi hisoblangan «usulu-l-fiqh» (أصول الفقه - islom huquqi asoslari) oyat va hadislardan hukm olish asoslarini o‘z ichiga olishi bilan ajralib turadi. Movarounnahrda etishib chiqqan faqih Husomuddin Axsikatiyning ilmiy merosi islom huquqiga oid qarashlarning ahlu-r-ray (اهل الري) va ahlu-l-hadis (اهل الحديث) uyg‘unligida bayon etib berilgani bilan katta ahamiyatga ega. Islom huquqi asoslari sohasini chuqur o‘rganish, fiqhiy me‘yorlarni to‘g‘ri anglash, fatvo berish jarayonida usulu-l-fiqh manbalarini tushunishda faqihning «Muntaxabu-l-Husomiy (منتخب الحسامي), «Miftahu-l-usul» (مفتاح الأصول), «G‘oyatu-t-tahqiq» (غاية التحقيق) va «Daqiqi-l-usul va-t-tabyin» (دقائق الأصول) asarlarida keltirilgan masalalar muhim o‘rin tutadi.

Dunyodagi islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazlarida usulu-l-fiqh (أصول الفقه) ilmiga doir manbalarni atroflicha o‘rganish va ularning asl mazmunini ochishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Husomuddin Axsikatiyning ilmiy merosi ham izlanishlarga jalb etilgan bo‘lib, ularda manbaning «usulu-l-fiqh» (أصول الفقه), «furu‘u-l-fiqh» (فروع الفقه) sohalari hamda ijtimoiy-huquqiy masalalarga oid ahamiyatini o‘rganishga e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, allomaning usul al-fiqh ilmi rivojiga xizmat qilishi uchun kiritgan uslubiy yangiliklari o‘ziga xos o‘rin tutmoqda. Mazkur manbadagi islom huquqi asoslari mazmunini ochib berish hamda uning fiqhiy qarashlar rivojida tutgan o‘rnini aniqlash ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning ilmiy saviyasini ko‘tarishga xizmat qiladi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda diniy-ma‘rifiy sohalardagi olib borilayotgan islohotlar hanafiy fiqhi ulamolarining usulu-l-fiqh va furu‘u-l-fiqh ilmlariga doir ilmiy meroslarini tadqiq etish va uni keng jamoatchilikka etkazishga imkoniyat yaratdi. Natijada, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi

markazi, Namangandagi «Axsikent-ochiq osmon ostidagi muzeyi» hamda Farg‘ona viloyatida «Islom huquqi maktabi» tashkil etildi va mahalliy ulamolarning «furu‘u-l-fiqh»ga doir: «Hidoya» (الهداية), «usulu-l-fiqh»ga oid «Tahsil usulu-l-fiqh» ((تحصيل أصول الفقه)), «Usulu-sh-Shoshiy» (اصول الشاشي) kabi kitoblari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Farg‘ona fiqh maktabi vaqili Husomuddin Axsikatiyning hayoti, faoliyati, xususan, «Muntaxabu-l-Husomiy» asarini o‘rganish Farg‘ona vodiysida usulu-l-fiqh sohasi rivojining o‘ziga xos jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017-yil 20-iyundagi PQ-3074-son «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi, 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son «Moddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-son «O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida hamda sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Husomuddin Axsikatiy hayoti, faoliyati, ilmiy merosi Sharq va G‘arb sharqshunoslari, islomshunos olimlari tomonidan tadqiq etib kelinmoqda.

Sharq musulmon olimlari Abdulhay Laknaviy, Abu Zahra, Mavlono Toshko‘prizoda, Muhammad Shafiq G‘irbol, Faxriddin Roziy, Shamsiddin Dovudiy, Hoji Xalifa kabi ulamolarning tarix va tabaqotga tegishli asarlarida Husomuddin Axsikatiyning hayoti va

foliyatiga doir ma'lumotlar alohida keltirilgan<sup>1</sup>.

Husomuddin Axsikatiy hayoti va ilmiy merosiga oid ma'lumotlar arab olimlari<sup>2</sup> - Amir Abdulaziz, Ahmad Muhammad Nosir Abbas Avdiy, Muhammad Husayn Zahabiyningtadqiqotlarida aks etgan.

Turk olimlari Abdulkerim O'zaydin, Mehmet Bo'ynukalin, So'nmez Kutlu, O'sman Gazi O'zgudenli o'z tadqiqotlarida Husomiddin Axsikatiy haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi<sup>3</sup>. Mehmet Bo'ynukalin olimning hayoti, ilmiy faoliyati, «Muntaxabul-Husomiy» asari va uning qo'lyozma nusxalari, sharhlari haqida batafsil ma'lumotlarni bayon etgan.

A.Masse, K.Brokkelman, L.Syukiyaynen, M.Adam, R.Sharl, F.Myuller va Yu.Djafich kabi g'arb olimlari Husomuddin Axsikatiyning ilmiy merosi to'g'risida ma'lumotlar bergan<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> عبد الحي اللكناوي. فوايد البهية في الترجمة الحنفية. - بيروت، 1998؛ ابو زهرة . أصول الفقه. - القاهرة: دار الفكر العربي، 1997؛ مولانا توشكوبريزودا. طبقات الفقهاء. المكتبة المركزية 1993؛ محمد شفيق غربال. موسوعة العربية الميسرة. - القاهرة، 1995؛ فخر الدين الرازي. محصول في علم أصول الفقه. - رياض: دور معرفة، 1979؛ شمس الدين داودي. طبقات معلق. - بيروت، 2002؛ الحاج خليفة. اكتشاف. المجلد الثاني. دار العالم للنشر، 1892؛ 1892

<sup>2</sup> محمد حسين الذهبي. الترجمة الفورية والمترجمين الفوريين. 2. - القاهرة، 1995؛ امير عبد العزيز. دراسة في علوم القرآن. - بيروت، 1983؛ أحمد بن محمد ناصر عباس العوضي. تحقيق مع فريق الحسامي. - دار المعرفة، 2004

<sup>3</sup> Qarang: Abdülkerim Özaydın, «Karahanlılar», XXIV, DİA, 2001; Osman Gazi Özgüdenli, «Maveraünnehir», DİA, 2003, XXVIII; Mehmet Boynukalın, Hanefî Usûl Muhtasarlarının Gelişimi: (II) Hüsameddin El-Ahsîketî'nin El-Müntehab'ı ve Hanefî Usûlündeki Yeri // Kocaeli İlahiyat Dergisi c. 1. sy. 2, Aralık 2017; Kutlu, Sönmez. İslâm Mezhepleri Tarihinde Usûl Sorunu // İslâmî İlimlerde Metodoloji: Usûl Mes'alesi 1, 2005.

<sup>4</sup> Brockelmann C. Geschichte der arabischen Literatur. - Supplementband I-III. - Leiden, 1937; Ал-Акаид ан-насафиййа / перс. с араб. и комм. К.Х.Идрисова. - ООО «Садра», 2016; Массэ А. Ислам очерк истории. Перевод с французского Н.Б. Кобриной и Н.С. Луцкой. - Москва: Издательство Восточной литературы, 1963; Сюкияйнен Л. Мусульманское право. Вопросы теории и практики. - Москва: Наука, 1986; Адам М. Мусульманский ренессанс. - Москва: Наука, 1978; Muller F.M. The sacred books of the East. Volume VI. The Qur'an. Translated by Palmer E.H. Motilal Banarsidass; Muller F.M. The sacred books of the East. Volume IX. The Qur'an. Translated by Palmer E.H. Motilal Banarsidass; Sister M., Metaphern und Vergleiche im Koran. Inaugural-Dissertation zur Erlangung der Doktorwurde genehmigt von der Philosophischen Fakultät der Friedrich-Wilhelms-Universität zu Berlin. - Berlin, 1931; Шарль Р. Мусульманское право. Перевод с французского С.И.Волка. - Москва: Иностранная литература, 1959; Jusuf Džafić. Najznačajniji klasični hanefijski učenjaci. <https://www.zeriislam.com/artikulli.php?id=3271> (30 Maj 2018).;

O‘zbekistonda<sup>5</sup> A.Juzjoniy, A.Mo‘minov, B.Muxtarov, D.Maxsudov, D.Raximjonov, I.Bekmirzaev, M.Hasaniy, M.Qosimov, N.Nasrullaev, O.Qoriev, R.Kenjaeva, S.Primov, Sh.Ziyodov, Q.Maxmudov, H.Aminov kabi tadqiqotchilar hanafiy fiqhining Movarounnahr va Markaziy Osiyoda tarqalishi, ayrim faqihlarning hayoti, ilmiy faoliyatini o‘rganganlar. Mazkur ishlar xronologik jihatdan turli davrlarni qamrab olgan bo‘lib, ularda Farg‘ona fiqh maktabi tarixi masalalari nisbatan kam tadqiq etilgan. Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilardan O.Qorievning ishlarini alohida qayd etish mumkin<sup>6</sup>. U Farg‘ona fiqh maktabiga bag‘ishlangan tadqiqotida Husomuddin Axsikatiyning hayoti va ilmiy merosiga to‘xtalib o‘tgan.

Mazkur monografiya islom tarixi va manbashunosligi yo‘nalishida tan olingan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, ilmiy adabiyotlar va davriy nashrlarga asoslanganligi, shuningdek

---

<sup>5</sup> Qarang: Xасаний М. Ал-Марғилонийнинг «Хидоя» асари ва унга ёзилган шарҳлар. – Тошкент:А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000; Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009; Жузжоний А.Ш. Марғиноний ва унинг издошлари. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2000; Муминов А. Ҳанафий уламоларнинг Марказий Мовароуннаҳр шаҳарлари ҳаётида тутган ўрни ва роли (II-VII/VIII-XIII асрлар): тар.фан.докт. дис... автореф. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2003; Махсудов Д. Абул Баракот ан-Насафий ва унинг «Мадорику-т-танзил ва ҳақоику-т-таъвил» асари. Монография. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2014; Рахимжонов Д. Абу Хафс Насафий. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2010; Бекмирзаев И. Мовароуннаҳрда қозилик ҳужжатлари: тарихий илдизлар ва таҳлилий ёндашувлар. Монография. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2014; Оқилов С. Мовароуннаҳрда Мотурудия таълимотининг шаклланиш тарихи. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2012; Зиёдов Ш. Маҳмудов. Қ. Ўрта асрларда яшаган машҳур самарқандлик алломалар. – Тошкент: Фафур Ғулум, 2019; Аминов Х., Примов С. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2017; Насруллаев Н. Лутфуллоҳ Насафийнинг «Фикҳи Кайдоний» асари ва унга ёзилган шарҳ, хошиялар таҳлили. Тар.фан.ном. дис... автореф. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2012; Muxtarov B. Nosiruddin Samarqandiyning «Fiqhu-n-nofe»asari hanafiy fiqhiga oid muhim manba. Tar. fan. bo‘y. fal. dok. (PhD) dis... avtoref. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021; Qosimov M. Shamsu-l-aimma Saraxsiyning «Mabsut» asarida moliyaviy masalalar. Isl. fan. bo‘y. fal. dok. (PhD). dis... avtoref. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021; Kenjaboeva R. X–XIII asrlar Movarounnahr hanafiy manbalarida vaqf masalalari: isl. fan. bo‘y. fal.dok. (PhD). dis... avtoref. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021.

<sup>6</sup> Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 85-86.

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi davlat unitat korxonasi, sohaga oid xorijiy fondlarda saqlanayotgan allomaning asarlariga oid qo‘lyozma manbalarning elektron fotonusxalaridan foydalanilganligi, keltirilgan taklif va tavsiyalar tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanib, amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

## **I BOB. MOVAROUNNAHRDA USULU-L-FIQH ILMI RIVOJLANISHINI O‘RGANISHNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI**

### **“Usulu-l-fiqh” ilmining Movarounnahrga kirib kelishi va rivojlanish bosqichlari**

Usulu-l-fiqh<sup>7</sup> ilmi Xulafoii roshidinlar va ulardan keyingi sahobalar davridagi ijtihod harakati vaqtida yuzaga keldi. Sahobalar bir-birlaridan yangi paydo bo‘lgan masalalar haqida fatvo so‘rardilar. Ulardan mujtahid bo‘lganlari ana shu masalaning shar‘iy hukmini Qur‘oni Karim oyatlaridan va hadisi shariflardan izlashar edi. Keyin ular qiyosga yuzlanishar yoki muvofiq ravishda o‘zlari ra’y bilan ijtihod qilishardi.

Biroq yangi dindagi ko‘rsatmalarning barchasi Muhammad (s.a.v) tomonidan o‘rgatib ketilgan bo‘lsa-da, davrlar o‘tishi bilan islom dini tarqalgan hududlar kengayib, turli urf-odatlariga ega xalqlar ham uni qabul qildilar. Shu bois shar‘iy hukmlarga ehtiyoj sezildi. Sahobalar (r.a) Muhammad (s.a.v) davrlaridan keyin yangi masalalarga duch kelganlarida o‘z shariat matnlari va Muhammad (s.a.v)dan sodir bo‘lgan deb hisoblangan asliga mos keladigan tarixiy voqealar, ularning masalalarga munosabatlaridan kelib chiqib hukm chiqarar edi. Sahobalarning ayrimlari ba’zi masalalarni o‘zi chiqargan far‘iy hukm bilan izohlagan<sup>8</sup>. Bu ish tobeinlar va taba’a tobeinlar vaqtida ham davom etdi. Ularning ba’zilari qiyosni voqelikda bor hukmga taqqoslashsa, o‘xshashi bo‘lmagan hukmlarga kelganda to‘xtab qolishardi. Ba’zilari esa, shariatning maqsadlariga muvofiq manfaatlardan foydalanishardi. Hukmlar, asosan, sahobalarning fikrlaridan kelib chiqib olinar edi. Bu holat Islom jamiyati diniy ilmlarni chuqur egallagan ulamolarni kerakligicha tayyorlashga alohida e’tibor berishi lozimligini

---

<sup>7</sup> “Usulu-l-fiqh” (arab.) “Usul” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi asos va poydevor ma‘nolarida keluvchi “asl” so‘zining ko‘pligi bo‘lib, mazkur so‘zni har bir narsaning asliga nisbatan ishlatiladi. Istilohda esa, dalil va qoida ma‘nosini beradi. Demak, usul fiqh atamasining ma‘nosi, fiqhning dalillari yoki dalillardan uning yordamida fiqhiy qonun-qoidalar chiqarilgan ilm sohasidir.

<sup>8</sup> احمد الحجى الكردي. بحوث في علم أصول الفقه. دار البشائر الاسلامية، 2004. ص-8-8  
15

ko'rsatadi. Shu bilan birga, ulamolarning jamiyatdagi o'rinlari va mas'uliyatlari yuksak ekanini ham ta'kidlaydi.

Shuningdek, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham fiqhni alohida madh qilganlar. Misol uchun, quyidagi hadisni olishimiz mumkin.

عَنْ مُعَاوِيَةَ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: «مَنْ يُرِدِ اللَّهُ بِهِ خَيْرًا يُفَقِّهْهُ فِي الدِّينِ»

Muoviya roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Alloh kimga yaxshilikni istasa, uni dinda faqih qilib qo'yadi", dedilar<sup>9</sup>.

Shariat hukmini aniq joylarigacha tushunish malakasiga ega bo'lgan odamni «faqih» deyiladi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Alloh kimga yaxshilikni iroda istasa, uni dinda faqih qilib qo'yadi», demoqdalar.

Fatvo chiqarish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan ayrim tobeinlar hukm chiqarishda aniq qoidalar, tan olingan manhaj (tushuncha) lar va tushunarli qoidalarga ehtiyoj sezardi. Ba'zilar esa, fiqh ilmida ma'lum bir qoidalarga ega bo'lganlar<sup>10</sup>. Shuningdek, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aholisi musulmon bo'lgan uzoq yurtlarda shariat ahkomlarini o'rgatish, ularning hayotida paydo bo'ladigan masalalarni hal etish uchun o'z vakillarini yubora boshladilar. Quyidagi hadis bunga misol bo'ladi:

عَنْ مُعَاذٍ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ بَعَثَ مُعَاذًا إِلَى الْيَمَنِ، فَقَالَ: «كَيْفَ تَقْضِي؟» فَقَالَ: أَقْضِي بِمَا فِي كِتَابِ اللَّهِ. قَالَ: «فَإِنْ لَمْ يَكُنْ فِي كِتَابِ اللَّهِ؟» قَالَ: فَبِسُنَّةِ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ. قَالَ: «فَإِنْ لَمْ يَكُنْ فِي سُنَّةِ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ؟» قَالَ: أَجْتَهُدُ رَأْيِي. قَالَ: «الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي وَفَّقَ رَسُولَ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ».

Mu'oz roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam meni Yamanga yuborayotib: "(U yerda senga biror masala tug'ilsa) qanday qilib hukm chiqarasan?" dedilar».

"Allohning Kitobi ila hukm chiqaraman", dedim.

"Allohning Kitobida bo'lmasa-chi?" dedilar.

<sup>9</sup> مُحَمَّدٌ ابْنُ إِسْمَاعِيلَ الْجَمِيلِيُّ. جَمِيعُ أَحَادِيثِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ. - بيروت: دار الحديث، 1989. - ب. 71.

<sup>10</sup> Tobe'inlar va taba'a tobe'inlar davridagi mujtahidlarning ko'zga ko'ringan vakillari Said ibn Musayyab, Urva ibn Zubayr, Shurayh Qozi, Ibrohim Naxa'iylar hisoblanadi.

“Allohning Rasuli sunnati ila”, dedim.

“Allohning Rasuli sunnatida ham bo‘lmasa-chi?” dedilar.

“Aqlim bilan ijti hod qilaman, sustkashlik qilmayman”, dedim.

Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ko‘ksimga qo‘llarini qo‘yib: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vaqilini Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni rozi qiladigan narsaga muvaffaq qilgan Allohga hamdu sanolar bo‘lsin”, dedilar<sup>11</sup>.

Usul ilmining alohida fan sifatida ajralib chiqishi II/ VII asrga to‘g‘ri keladi. Imom Muhammad ibn Idris Shofe‘iy (150-204/767-820yil)<sup>12</sup> o‘zining tajribalari asosida usul bo‘yicha “Risola” asarini yaratdi va usul ilmidagi asosiy qoidalarni yangilash hamda qo‘shishda alohida xizmat ko‘rsatdi. Bu asar boshqa mazhab ulamolari tomonidan ham sharhlangan<sup>13</sup>. Shu davrlardan boshlab ulamolar orasida: «qiyos» (“القياس”)<sup>14</sup>, «istihson» (“الاستحسَن”) <sup>15</sup>, «masoli hu-l-mursala» (“المسَلحَة المرسلَة”) <sup>16</sup>, «sahobi yning so‘zi» (“قول الصحابي”), «bizdan oldingilarning shariati» (“شَرع من قبلنا”), «Madina ahlining amali» (“عمل اهل المدينة”) kabi atamalar qo‘llanila boshlandi.

Muarrixlar usulu-l-fiqh ilmining ilk asoschisi xususida o‘zaro ixtilof qilganlar. Ularning ko‘pchiligi Muhammad ibn Idris

---

<sup>11</sup> Аҳмад ибн Ҳанбал. ал-Муснад. – Байрут. Дар ал-кутуб ал-илмия, 1986. Ж. 1. – Б. 249.

<sup>12</sup> <https://www.islom.uz/view/-98>

<sup>13</sup> احمد الحجى الكردي. بحوث في علم أصول الفقه. دار البشائر الاسلامية, 2004. ص-8-15

<sup>14</sup> “Qiyos” lug‘atda “o‘lchamoq, taqqoslamoq”, istilohda esa oyat, hadis va ijmodan dalili bo‘lmagan ishning hukmini ularda dalili bor ishning hukmiga solishtirish, taqqoslashtirishga aytiladi. Qarang: Аминов Х, Примов С. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари.-Тошкент: “Мовароуннаҳр”.2017. - В-95

<sup>15</sup> “Istehson” lug‘atda “bir narsani yaxshi deb hisoblash” bo‘lib, istilohda mujtahidning oiq-ravshan qiyosdan maxfiy qiyosga, kulliy hukmdan juz‘iy hukmga o‘tishligidir. Istehson qiyos uslubi bo‘lib, qiyosni riqojlantirish uchun ishlab chiqilgan. Qarang: Аминов Х, Примов С. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари.-Тошкент: “Мовароуннаҳр”.2017. - В-96

<sup>16</sup> “Masoli h mursala” lug‘atda “bo‘sh qo‘yilgan, erkin manfaatlar” ma‘nosida bo‘lib, biror ishni qilish yoki qilmaslik borasida tayinli dalil bo‘lmagan, lekin shariatning umumiy qonun-qoidalariga zid kelmaydigan, shariat maqsadlariga muvofiq keluvchi umummanfaatga xizmat qiladigan narsadir. Qarang: Аминов Х, Примов С. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари.-Тошкент: “Мовароуннаҳр”.2017. - В-97

Shofe'iy usulu-l-fiqh ilmiga asos solgan shaxs deb hisoblaydilar va "Risola" asarining usulu-l-fiqh ilmidagi dastlabki asar deya e'tirof etadi. Ayrimlari esa, hanafiylar bu ilmning qoidalarini birinchilardan bo'lib o'rnatganlar deb hisoblaydilar. Ismoil ibn Hammod ibn Nu'mon ibn Sobit ibn Marzubon (150-217/767-833)<sup>17</sup> bu ilmga oid "Ra'y" ("الري") nomli asarida usulu-l-fiqhni dalillash qoidalarini kiritgan. Ikki imom Abu Yusuf<sup>18</sup> va Muhammadlar<sup>19</sup> ham ushbu ilm bo'yicha asarlar bitgan. Afsuski bizning davrimizgacha bu asarlarning ma'lum bir qismlari etib kelgan. Shuningdek, imom Molik ham o'zining "Muvatto" ("موطي") kitobida ba'zi qoidalarga ishora qilgan. Mutaxassislar ushbu kitoblarning barchasi Muhammad ibn Idris Shofe'iydan oldin bo'lganligi va aslida esa, usul ilmi fiqhning o'zi paydo bo'lishi bilan bir davrda vujudga kelgan deb hisoblaydilar. Chunki hukmlarni chiqarishda uning asosiga e'tibor beriladi.

"Hanafiylar tomonidan yozilgan deyarli barcha asarlar bizgacha etib kelgan bo'lsa-da, usul ilmiga oid bo'lganlari esa, bizga ma'lum emas,. Shu bois qayd etilgan dalillar asossizdek ko'rinadi",-degan fikrlarni o'rinli deb bo'lmaydi<sup>20</sup>. Muhammad ibn Idris Shofe'iyning "Risola" asari ushbu sohada yangilik bo'lgan deyish mumkin. Undan keyin yashagan ulamolar u Shofe'iy keltirgan ma'lumotlarni to'ldirganlar. Allomaning ulardan tashqari usulu-l-fiqh ilmi uchun tamal toshi bo'lgan "Ilmni yig'uvchi" va "Istehsonning bekor qilinishi" kabi asarlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan<sup>21</sup>.

---

<sup>17</sup> Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 20

<sup>18</sup> Ya'qub ibn Ibrohim ibn Habib Ansoriy (r.a.) kunyasi Abu Yusuf (112/731-188/804). Qarang: Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 20

<sup>19</sup> Muhammad Ibn Hasan ibn Farqad Shayboniy (131/749-189/804)

Qarang: Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 20

<sup>20</sup> -8-ص. احمد الحجى الكردي. بحوث في علم أصول الفقه. دار البشائر الاسلامية, 2004.

<sup>21</sup> -8-ص. احمد الحجى الكردي. بحوث في علم أصول الفقه. دار البشائر الاسلامية, 2004.

Mazhab asoschilari bo'lgan mujtahidlardan keyin ilm maydoniga kirib kelgan ulamolar u yoki bu mazhab doirasida uni rivojlantirish va jamiyat hayotiga tatbiq etishga xizmat qildi. IX asrda Movarounnahrda shakllangan mahalliy fiqh maktabi Samarqand, Buxoro kabi yirik ilm markazlaridan tashqari Kesh, Nasaf, Marg'ilon, O'zgan kabi shaharlardan etishib chiqqan allomalar tomonidan ham rivojlantirildi.

Mazkur fiqh maktablarining vujudga kelishi xro-nologik jihatdan Somoniylar xukmronligi davriga (819-1005) to'g'ri keladi. Ayni shu davrda Balx bilan Movarounnahr o'rtasida mustahkam

1	Birinchi shariat davri	Muhammad (s. a. v.) arab qabilalarini islomga da'vat etgan, islomiy qonunlarni e'lon qilgan va "Xulafoi Roshidin"lar davlatni boshqargan bosqich.
2	Ikkinchi shariat davri	fiqh va kalom ilmiga asos solingan bosqich.
3	Uchinchi shariat davri	fiqh va kalom ilmiga asos solingan bosqich.
4	To'rtinchi shariat	ijtihod davri tugagan va fiqhning

madaniy aloqalar rivojlangan edi. Shu bois mahalliy fiqh maktabi shakllangan dastlabki davrlarda Balx, Bag'dod va boshqa Hanafiy mazhabi markazlarining ta'siri sezilib turdi. Zero, turkistonlik ulamolar Bag'dod va xalifalikning boshqa shaharlarida ta'lim olar, o'rgangan ilmlarini dars berish yoki asarlar yozish orqali keyingi avlodga etkazar edilar<sup>22</sup>.

Shar'iy qonun-qoidalarining nazariy (usulu-l-fiqh) va amaliy (furu'u-l-fiqh) jihatidan shakllanishi hamda taraqqiyot bosqichlari tadqiqotchilar tomonidan davrlarga bo'lib o'rganilgan<sup>23</sup>. Shuningdek, ular shariatning rivojlanish bosqichlarini turli uslublar orqali yoritib berganlar.

Birinchi uslub shariatning vujudga kelishi, islomiy fikrlarning shakllanishi va taraqqiyoti tarixi bilan bog'liq:

<sup>22</sup>Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Монография. Том 1. – Москва: Издательство восточной литературы. 1963.- С.224

<sup>23</sup> ولي الدين محمد الغرغور. المذهب في اصول علي المنتخب. -دمشق- 1999 ص.32

	davri	mavjud mazhablar doirasida rivojlangan davri yoki taqdid bosqichi.
5	Beshinchi shariat davri	fiqhning uygʻonishi va diniy islohotlar bosqichi

Ikkinchi uslub shariatning paydo boʻlishi va taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq. Bu uslubga koʻra, oltita davr koʻrsatilib, har biri alohida nomlanadi:

1	Shariatning vujudga kelishi davri (610-632)	Muhammad (s. a. v.) ning Muhammadlik vaqtlari.
2	Birinchi fiqh davri	“Xulafoi Roshidin”lar davlatni boshqargan muddat (632-661).
3	Ikkinchi fiqh davri	kichik sahobalar va tobeinlar hayot boʻlgan davr (661-750).
4	Uchinchi fiqh davri	hijratning ikkinchi asri birinchi yarmidan toʻrtinchi asri oʻrtasigacha (760-980).
5	Toʻrtinchi fiqh davri	hijratning toʻrtinchi asri ikkinchi yarmidan Abbosiylar sulolasi barham topgunga kadar boʻlgan davr (980-1260).
6	Beshinchi fiqh davri	Abbosiylar xalifaligi tugatilgandan hozirgi kungacha boʻlgan davr (XIII asrdan hozirgacha)

Muhammad (s.a.v)dan keyin yangi ilohiy qonunlar nozil boʻlmagan. Shu bois bu davrni «shariat davri» deb boʻlmaydi. Chunki bu davrda mavjud sharʼiy hukmlarni hayotga tatbiq etish – «fiqh davri» boshlangan. «Shariat davri» va «fiqh davri» mohiyatan bir-biridan farq qiladi. Muhammad (s.a.v) davrlari va «Xulafoi Roshidin»lar davrini alohida ajratish bilan dastlabki davrlarga nisbatangina «ahdu-t-tashriʼ» (“احد التشريع”) atamasini qoʻllash oʻrinlidir<sup>24</sup>.

Shariat ilmining shakllanishida uchinchi bosqich alohida ahamiyatga ega. Bu bosqichda koʻplab sahoba va tobeinlar ishtirok

<sup>24</sup> Oʻsha asar. 30-bet.

etgan<sup>25</sup>. Ularning davrlarida usulu-l-fiqh ilmi rivojlandi va ko‘plab asarlar yaratildi. Shu sababli ulamolar o‘z muallifliklaridagi asarlarini uch qismga ajratib, o‘ziga xos uslubni joriy qildilar. Ushbu uslublar asar yozish va ularni boblarga ajratishda muhim o‘rin tutdi. Quyida mazkur uslublarni ko‘rib chiqish mumkin<sup>26</sup>:

Shofe’iy (yoki Kalomiy)larning uslubi: Bu usulga Muhammad ibn Idris Shofe’iy tomonidan asos solingan. Bunda matn asosiy qoidadan boshlanadi va u qayta ko‘rib chiqib saralanadi. Shundan so‘ng fiqh sohalari kelishuvidan kelib chiqib etarli dalillar bilan xulosa qilinadi. Yuqorida keltirilgan bu qoida keng istifoda qilinsa, fiqhda turli sohalar yuzasidan hukmlarni o‘rnatish mumkin bo‘ladi. Lekin ulamolar furu’u-l-fiqhga<sup>27</sup> muhtoj bo‘lmaganliklari uchun bu usulga unchalik ahamiyat qaratmaganlar.

Hanafiylar uslubi: Hanafiy ulamolari tomonidan ishlab chiqilgan uslublar ancha qulay bo‘lganligi uchun keng tarqalgan. Ular far’iy hukmlarga e’tibor qaratish, o‘xshash, zid va undan o‘xshash hukmlarni o‘rnatadigan usul qoidasiga chiqishni o‘z ichiga oladi. Hanafiy mazhabi imomlarining usulu-l-fiqh sohasida ma’lum bir asarlarga ega bo‘lmaganliklari aqidaviy hukmlarga rioya qilishga, usuliy qoidalar va fiqh me’yorlarini ishlab chiqishga majbur qildi. Faqih ushbu hukmlarni dalillaridan istinbot (الاستنباط) qilayotganida ba’zi me’yor va qoidalarga e’tibor qaratishi kerak. Hanafiylar nazdida istinbot usulu-l-fiqh ilmining mavzui hisoblanadi. Shuning uchun mazhab ulomalarining usul asarlarida furu’u-l-fiqhga oid misollarni ham uchratish mumkin. Agar asosli fiqh sohalari jam bo‘lmasa, qoida o‘rnatilmaydi. “Amr (العمر) [buyruq] vojiblikka dalolat qiladi”, degan qoida hanafiylarda ham, Shofe’iyalarda ham uchraydigan uslubdir. Biroq, ushbu qoidani tushunish ikki mazhab vakillarida turlichadir. Shofe’iyalarga ko‘ra, buyruqda talab bor. Yaratganning talabi esa, majburiyatdir. Bu, aslida, zimmaga ma’lum mas’uliyatni yuklash demakdir. Ular furu’ni chuqur o‘rganish orqali tushunmagunlaricha asoslarni

<sup>25</sup> 26-25MN° 1989N<sub>+C</sub>16 N<sub>H</sub><sup>S</sup><sub>R</sub>≈Q2 4<sub>1</sub>∩C<sup>0</sup><sub>2</sub> N<sub>3</sub><sup>U</sup>∅<sup>HO</sup><sub>2</sub> 3<sub>3</sub><sup>XS</sup>

<sup>26</sup> -8-ص-2004. احمد الحجي الكردي. بحوث في علم أصول الفقه. دار البشائر الاسلامية، 2004.

15

<sup>27</sup> Amaliy hukmlar majmuasi

shunday tartiblaydilar. Baqara surasining 43-oyatidagi [Namozni to'kis ado qiling, zakotni bering]<sup>28</sup> lafzini ham buyruq deb biladilar va uni vojib ekanligiga ijmo qilganlar. Hanafiylarda esa, : “Amr — buyruq bo‘lib, zikr qilgan qismlardan birinchi qismning vajhi(ma‘nosi)dan, ya‘ni xos vajhidan hisoblanadi. Chunki sarf ilmiga ko‘ra, amr xos bir ma‘noga qo‘yilgan lafz bo‘lib, ish harakatni talab qiladi va jumhur ulamolar buyurilgan ishni qilish lozim ekanligini ifodalaydi. Lekin biror dalil tufayli lozimlikni ifodalamasligi ham mumkin”<sup>29</sup>.

Mutaaxxir (متأخر)lar uslubi oldingi ikki uslubning o‘rtasi bo‘lib, ulardan yaxshi tomonlarini olib, ayrimlarini chetlab o‘tadi. Bu yo‘nalish umumiy tamoyil va qoidalarni isbotlash bilan bir qatorda fihiy dalillar asosida yaxlit qoidalarni ishlab chiqadi hamda ushbu qoida ostida tartiblangan furu‘ni ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Shu bois ular boshqalar “tafrii” (تفريع) jarayonida majbur bo‘ladigan istisnolarga ehtiyoj sezmaydilar.

Usul ilmiga oid eng muhim asarlar quyidagilardir<sup>30</sup>:

Shofe‘iylarning mazhabida:

1. Imom Shofe‘iyning “Risola” (“Maktub”) asari. Bu asar mazkur uslubning asosi sanalsa-da, unda bu ilm sohalari va nazariyalari to‘liq yoritilmagan.

2. Asli mu‘taziliy bo‘lgan Abu-l-Husayn Muhammad ibn Ali Basriy(vaf.423/1032)ning “Mu‘tamad” (“ishonch, ishonish”) asari.

3. Imom Imom Juvayniy (vaf.478/1085yil)ning “Burhon” (“Dalil”) asari.

4. Imom G‘azzoliy (vaf.505/111)ning “Mustasfo” (“Saralangan”) asari.

5. Imom Faxriddin Roziy (546/1149-606/1209)ning “Mahsul” (“Mazmun va mohiyat haqidagi kitob”) asari. U “Mu‘tamad” (“Ishonch, ishonish”), “Burhon” (“Dalil”) va “Mustasfo”

---

<sup>28</sup> Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjiması. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – B. 8

<sup>29</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA Shl. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1. – B. 14a.

<sup>30</sup> -8-ص. احمد الحجی الكردي. بحوث في علم أصول الفقه. دار البشائر الاسلامية, 2004.

(“Saralangan”) dagi ma’lumotlar va undagi qo‘shimcha hamda sharhlarni ham o‘z ichiga oladi.

6. Omodiy Shofe’iy (vaf. 631/)ning “Ihkom fiy usuli-l-ahkom” (“Hukmlar asoslaridagi hukmlar”) asari. Bu asarda “Mahsul” (“Mazmun va mohiyat haqidagi kitob”) ni qo‘shimcha sharhlar va izohlari mavjud deb hisoblanadi.

7. Ibni Hojib Molikiy (vaf.646/1248)ning “Muxtasar” (“Qisqartma”) asari.

Hanafiylar uslubiga ko‘ra:

1. Abu Hasan Karxiy (vaf.340/951)ning “Usulu-d-din” (“Dinning asosi”) kitobi.

2. “Jassos” (gipschi) nomi bilan tanilgan Abu Bakr Roziy (305/866-370/925)ning “Usul” (“Asos”) kitobi. U birinchi kitobdan ancha keng va batafsildir.

3. Abu Zayd Abdulloh ibn Umar ibn Iso Qoziy Dabbusiy (978-1039)ning “Ta’sisu-n-nazar fi-l-ixtilafi-l-aimma” (“Imomlarning ixtilofi haqidagi qarashlarini asoslash”) kitobi. U kichik qo‘llanma bo‘lib, unda muallif hanafiy mazhabining boshqa mazhablar bilan muvofiq va farqli qoidalarni ko‘rsatib o‘tgan.

4. Islom faxri Imom Bazdaviy (vaf.443/1051)ning “Usulu-l-Bazdaviy” (“Bazdaviy usuli”) kitobi. U iboralari oson kitob bo‘lib, hanafiy usul ilmida yozilgan kitoblarning eng osonlaridan biridir.

5. Hanafiy fihi bo‘yicha yozilgan “Mabsut” (“Kengaytirilgan”) kitobi sohibi “Imomlar quyoshi” imom Saraxsiy<sup>31</sup> (vaf. 483/1090)ning “Usul” kitobi. U iboralari keng va batafsil kitoblardan hisoblanadi.

6. Imom Nasafiy<sup>32</sup> (vaf.790/1388)ning “Manoru-l-anvor fi usuli-l-fiqh” (“Usulu-l-fiqhda yorug‘lik mayoq”) kitobi.

Mutaaxxirlar uslubiga ko‘ra:

1. Ahmad ibn Ali Soatiy Bag‘dodiy (vaf.694/1071)ning «Badiy’u-n-nizom jomi’ bayna kitobay Bazdaviy va Ihkom”

---

<sup>31</sup> Calder, N. «al-Sarakhsi», Muhammad b. Ahmad b. Abu Sahl Abu Bakr, Shams al-A’imma." Encyclopaedia of Islam, Second Edition. Edited by: P. Bearman; Th. Bianquis; C. E. Bosworth; E. van Donzel; and W. P. Heinrichs. Brill, 2011. Brill Online. Yale University. 8 February 201

<sup>32</sup> Imom Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiy. Qarang: <https://www.bukhari.uz/?p=6819>

(«Bazdaviy va Ihkom kitoblarini jamlovchi ajoyib tartib») asari. Nomidan ko‘rinib turganidek, muallif bu asarda Bazdaviy va Omodiyning “Ihkom” kitoblarini jamlagan.

2. Imom Sadru-sh-Shari’a Abdulloh ibn Mas’ud Buxoriy (vaf.747/)ning “Tanqihu-l-Usul” («Tekshirilgan Usul») kitobi. U Bazdaviyning kitoblari, Roziyning “Mahsul”i va ibn Hojibning “Muxtasar” (“Qisqartma”) kitoblarining xulosasidan iborat. So‘ng uni muallif iboralari chigalligi uchun “Tavzih fiy halli g‘avomizi-t-tanqih” («Tanqihni chigalliklarini echish borasida izoh») degan kitoblarida sharhladi.

3. Sa’duddin Mas’ud ibn Umar ibn Muhammad ibn Abu Bakr ibn Muhammad ibn Abu Sa’id G‘oziy Taftazoniy (722/1322-792/1390) ning “Talvih ila kashfi haqiqi-t-tanqih” (“Qayta ko‘rib chiqish haqiqatlarini kashf etish haqidagi alomatlar”) kitobi. Bu yuqoridagi kitobning muhim sharhlaridan biridir, u “Tavzih” kitobi va uning sharhlari bu fanni o‘rganuvchi o‘qituvchi va talabalarning asosiy qo‘llanmasi hisoblanadi.

4. Ibn Humam nomi ila tanilgan Muhammad ibn Abdulvohid ibn Abdulhamid ibn Kamol Mas’ud ibn Humamu-d-Diyn ibn Hamidu-d-Diyn ibn Sa’du-d-Diyn Sivasiy Qohiriy Hanafiy (790/1388-861/1459) ning “Tahrir” kitobi.

Ma’lumot o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, yuqorida keltirilgan usulu-l-fiqhga oid asarlarning aksariyatida katta hajmli matn va terminlar keltirilgan. Shu bois ularga sharh, hoshiya va qisqartma matnlar yozilgan<sup>33</sup>. Hatto ba’zi so‘zlarning ma’nosi sirli va maxfiylich qolgan. Buning sabablaridan biri usulu-l-fiqhning qiyinligi va mantiq ilmiga tayanganligidir. Shuningdek, asarlarning kotiblar tomonidan qo‘lda ko‘chirilishi va uning kitob xoliga keltirilishi ancha qimmatga tushgan. Ko‘p hollarda yirik asarlar talabalarga oson bo‘lishi uchun sodda tarzda qisqartirib ko‘chirilgan. Keyinchalik bunday asarlar tushunarsiz masalalari, jumboqli matnlari bilan asar mualliflarini talabalar va o‘rganuvchilarga batafsil qayta sharhlashga undadi. Shunday asarlardan biri ayni Sadru-sh-Shari’aning “Tanqih” kitobi bo‘lib, u

---

احمد الحجى الكردي. بحوث في علم أصول الفقه. دار البشائر الاسلامية، 2004. ص-8-33  
15

yuqorida keltirilgan asarlarning qisqartirilgan shakli sifatida hatto talabalarga ma'nolari tushunarsiz bo'lib qolgan edi, muallif asarni "Tavzih"da sharhlashga majbur bo'ldi. Buni shayx Muhammad Xuzariy nomi bilan tanilgan Muhammad ibn Afifiy Bojuriy (1289/1872-1345/1927) o'zining "Usulu-l-fiqh" kitobi shunday izohlaydi: "Barcha masalalarni o'z ichiga olgan bu asarlarga sharh yozishda o'ta qisqa shakldan foydalaniladi. Ayrim o'rinlarda matnlar tushunarsiz, ma'nolari chiqmay qolgan. Shu sabab asar Ibn Humomning "Tahrir" kitobiga kiritilgan. Chunki uni sharhlaridan ajratib o'zingiz muallif maqsadini tushunmoqchi bo'lsangiz xuddi jumboq echishga uringandek bo'lasiz. Ajablanarlisi shundaki, agar Ibni Hojibning sharhlarini o'qishdan oldin sharhni o'qisangiz uni so'zlaridan foydalanib, bir-biriga kiritib yuborganini va shakllarini ham o'zgartirib yuborganini ko'rasiz. Lekin keng qamrovli masalalarni jamlashiga kelsak, u o'quvchiyu tinglovchining zehniga kelmaydigan iboralar bilan turli gaplarni jamlagan. Lekin unda tahqiq qilgan qoidalarga dalil keltirilmagan"<sup>34</sup>.

Iboralar va matnlarning chigalligini asar mualliflarining arab bo'lmaganliklari bilan ham izohlash mumkin. Asli kelib chiqishi arab bo'lgan ulamolar hikmatlari yuqoriligi va ilmlari ko'pligi sabab arab tilining uslubiy qiyinchiliklariga yo'liqmaganlar. Shuning uchun ular tomonidan yozilgan asarlarning iboralari osonligi va hech qanday chigallik hamda jumboq yo'qligi bilan ajralib turadi. Bunga misol sifatida Shotibiyning asarlarini keltirishimiz mumkin.

Hozirda islom dini ta'limotini, xususan, furu'u-l-fiqh va usulu-l-fiqh ilmi tarixini ishonchli manbalar orqali o'rganish zamon talabidir. Hanafiy fiqh ilmi rivojida esa, Movarounnahrning Buxoro, Samarqand, Kesh, Shosh, Marg'ilon, O'zgan, Axsikat, O'sh kabi shaharlarida faoliyat olib borgan ulamolar va ularning nomi bilan ataluvchi fiqh markazlari alohida o'rin tutgan. Ular tomonidan ta'lif etilgan asarlar esa, bugungi kunga qadar o'z qiymatini saqlab kelmoqda.

---

احمد الحجى الكردي. بحوث في علم أصول الفقه. دار البشائر الاسلامية، 2004. ص-8-34

## 1.2. Mintaqada yozilgan “usulu-l-fiqh” ilmiga doir manbalar tarixshunosligi

Mazkur davrda O'rta Osiyoda madaniy hayot yuqorida ko'rsatilgan sabab va omillar ta'sirida nihoyat darajada rivojlangan edi. Bu madaniy rivojlanishda islom ilmlaridan fiqh ilmining xos o'рни va ahamiyati bor. Zero, fiqh - islom xuquqshunosligi musulmonlar turmush tarzining shariat mezonlariga muvofiq kelishini ta'minlovchi soha sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, islomgacha mavjud bo'lgan mahalliy an'analar, urf-odat, ijtimoiy-ahloqiy me'yorlarning islom dini talabiga mos kelish yoki kelmasligining ayni shu fiqhiy mezonlar bilan belgilanishi Movarounnahrda bu ilm sohasining ahamiyatini yuksaltirib yubordi. Bunday tarixiy shart-sharoit, o'z navbatida, Movarounnahrda mahalliy fiqh maktablarining shakllanishiga turtki bo'ldi.

O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish yaxlit islom madaniyati doirasida kechganligi bois, uning omillaridan hisoblangan islom ilmlarining o'рни va ta'siri yuqori bo'lganligini zikr etish joiz.

Islom ilmlarining eng dastlabkisi sifatida tafsir ilmi e'tirof etiladi. Ma'lumki, islom dinining asosiy manbai Qur'oni karim hisoblanadi. De-mak, islom dini doirasida barcha zarur qoidalarni ishlab chiqish uchun Qur'oni karim ko'rsatmalarini bayon etuvchi oyatlar mazmun mohiyatani bilish va tushunish zarur. Bu maqsadga aynan tafsir ilmi yordamida yetish mumkin. Zero, shar'iy xukmlarning o'рни va maqsadini tushunish, buyuruvchi hukmlar va qaytaruvchi hukmlarning tadqiq qilish mana shu tafsir ilmining predmeti hisoblanadi .

Ikkinchisi - kalom ilmi<sup>35</sup>. Bu ilm Allohni, ya'ni yaratganni tanish bobida zaruriy dalillar haqida bilim beruvchi soha bo'lib, islom ilmlari ichida g'oyat murakkab yo'nalishlardan hisoblanadi. Shunga qaramay, bu soha rivoji ham islom tarixida yurtdoshimiz Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy (tax. 256/870-333/945) nomi bilan bevosita bog'liqdir .

---

<sup>35</sup> ولي الدين محمد الغرغور. المذهب في اصول علي المنتخب. -دمشق- 1999 ص.32

Uchinchi - hadis ilmi<sup>36</sup>. Payg‘ambar alayhissalomning aytgan gaplari va qilgan ishlaridan xabar beruvchi sohadir. U islom dini talablarini hayotga tatbiq etishdagi muhim manbalardan biridir.

Islom ilmlaridan navbatdagisi - ilm al-mantiq<sup>37</sup> shar'iy masalalarning mantiqiy mazmuni va izchilligini ochib berish uchun zarur ilm sohasi hisoblanadi.

Ilm al-lug‘a al-arabiyya - arab tili sohasi ham islom ilmlari sirasiga kiritilgan, zero, shariatning asosiy manbalari bo‘lmish Qur‘oni karim va Payg‘ambar sunnatlari hamda ularning dalillari arab tilida ekanligi ushbu tilni yaxshi o‘rganish ehtiyojini to‘g‘diradi. Binobarin, islom dinining boshqa mamlakatlarga tarqalishi va o‘zga millatlar tomonidan arab tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan zarurat uning grammatikasini mukammalroq ishlab chiqishga turtki bo‘ldi. Qur‘on oyatlaridagi tushunilishi qiyin, murakkab so‘z va iboralarning mazmunini ochib berishga bo‘lgan urinishlar esa islomgacha mavjud bo‘lgan she‘riyatni o‘zlashtirish va fan sifatida o‘rganishga yo‘l ochdi<sup>38</sup>.

Yuqorida zikr etilgan ilmlarning barchasi islom ilmlari sifatida X asr o‘rtalariga kelib batamom shakllanib ulgurdi va hozirgacha dunyo madaniyatida o‘z nufuzini saqlab kelmoqda.

Ma‘lumki, hanafiy mazhabi doirasida juda ko‘p asarlar yozilgan va ular ulamolar tomonidan nisbiy ikkiga: “e‘tiborli” (“ya‘ni mo‘tabar”) va “e‘tiborsiz” (“ya‘ni g‘ayri mo‘tabar”) asarlarga ajratib o‘rganiladi. Bunga XII asrgacha yozilgan Abu Hanifa va uning shogirdlari tomonidan yozilgan asarlarning barchaga ma‘lumligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Biroq XII-XIX asrlarda ham hanafiy mazhabi fiqhiga oid ko‘plab asarlar yozilgan. Ularni “e‘tiborli” va “e‘tiborsiz” qismlarga ajratib o‘rganish o‘ta nisbiy bo‘lib, ko‘plab bahslarga sabab bo‘lgan<sup>39</sup>. Hanafiy yo‘nalishida bitilgan asarlarga bunday baho berishda quyidagilar sabab qilib ko‘rsatiladi:

№	Sababi	Izohi	Mualliflar va asarlar
---	--------	-------	-----------------------

<sup>36</sup> Ўша асар. 33-бет.

<sup>37</sup> Ўша асар. 36-бет.

<sup>38</sup> Уотт М. Влияние ислама на средневековую Европу. М.: Наука, 1976. С. 31.

<sup>39</sup> Qarang: Аминов Х., Примов С. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари.-Тошкент: “Мовароуннаҳр”.2017. - В-209

			nomlari
1	Fiqhiy manbaning o‘ta darajada muxtasarligi (ya’ni qisqa bo‘lishi)	Manbaning muallifi ilmi va amali bilan mashhur bo‘lsa ham fatvo olishda ye’tiborsiz hisoblanadi. Chunki o‘ta qisqa berilgan matndan o‘quvchi muallif nazarda tutgan ma’noni tushunmasligi mumkin.	Umar ibn Nujaymning (vaf.1005/1597) “Nahr foiq fi sharhi kanz daqoiq”, Muhammad ibn Ali Haskafiyning (1616-1677) “Durr muxtor sharhi tanvir absor”
2	Muallifning tarjimai xoli va fiqhiy saviyasidan bexabarligi	Ulamolar muallifning taniqli faqihlardan ta’lim olib, mashhur faqih bo‘lishi lozimligini aytganlar	Shamsiddin Ko‘histoniyning (vaf.962/1554) “Jome’ rumuz”, Abul Makorim Abdulloh ibn Muhammad Samarqandiyning (vaf.907/1501) “Sharh an-niqoya”
3	Muallifning ye’tiqodiga qarab ajratish	Ba’zi hollarda muallif mo‘taziliylikka yoki shialikka ye’tiqod qila turib hanafiylikka oid asar yozgan bo‘lishi mumkin.	Najmiddin Zohidiy Xorazmiy (vaf.658/1260) mo‘taziliy bo‘lsada hanafiy fiqhida mashhur asarlar muallifi hamdir. Jumladan, “Qunya” (“egalik qilish”) garchi Movarounnahrda ye’tiborli manbalar undan iqtibos keltirgan bo‘lsalar ham. Mahmud Zamaxshariyning hanafiylik va shofe’iylikning qiyosiy huquqshunosligiga bag‘ishlangan “Ruusul masoil” (“masalalar boshi”) asari ham.

4	Olimlar orasida keng tarqalmaganligi	Bir yurt olimlari ishonchliligiga umume'tirof qilmagan bo'lsa, vaqtlar davomida ko'pchilik bilmagan, yetib kelmagan yoki yo'qolib ketganligi manbaning ishonliligi munozarali bo'lishi mumkindir.	Abdulhay Laknaviy (1847-1886) ma'lumoticha, arab diyorlarida keng tarqalmagan "Muhit Burhoniy" Hindiston va Xuroson diyorlarida keng tarqalgani uchun "e'tiborli" manbalar qatoriga chiqqan.
5	Zaif qarashlar ko'p naql qilingan	Bunday manbalardan naql qilinmaydi, iqtibos olinmaydi deb hisoblangan	Abu Bakr ibn Ali Haddodiyning (vaf.800/1397) "Siroj Vajjoh" ("yorqin chiroq"), Fazlulloh Muhammad ibn Ayubning (vaf.666/1268) "Fatavoyi sufiya" ("Sufiylik fatvolari") asarlari kabi

“E’tiborsiz” manba deb sanalgan asarlar mahalliy ulamolar fatvolari va mintaqada faoliyat yuritgan vakillarning fikrlari ilgari surilgan nodir masalalarni o‘z ichiga oladi. Lekin ular yuqorida keltirilgan sabablardan birortasi topilsa ham, “e’tibor” dan tushib qolgan.

Shuningdek, “Jo‘ng”lar ham mavjud bo‘lib, ular Markaziy Osiyoda muftiy, qozi va faqihlar tomonidan tuzib kelingan fiqhiy masalalar to‘plamlari hisoblanadi. “Jo‘ng” so‘zi XVII–XVIII asrlarda forsiy va keyin turkiy lug‘atlarda, asosan, “katta kema”, “turli she’rlar to‘plami” kabi ma’nomlarni anglatib kelgan. Markaziy Osiyoda jo‘nglar, asosan, muftiy va a’lamlar tomonidan tuzilgan bo‘lib, ular fiqhiy masalalar, namunaviy rivoyat hujjatlar, fatvolar majmuasida ishlatilgan. Unda jo‘ng tuzuvchilari to‘plamni tuzishda,

asosan, amalda bo‘lgan fiqhiy masalalarga (ma’mulat Masa’il fiqhiya) e’tibor qaratganini qayd qilishadi<sup>40</sup>.

“Jo‘ng”lar, asosan, XVI-XX asr boshlarida yozilgan. Ular xalq orasida keng tarqalgan fiqhiy savollarga echimlarni va qozixonalarda amalda bo‘lgan shar’iy rivoyatlardan ko‘chirmalarni o‘zida jamlagan. “Jo‘ng to‘plamlari”dan ikkitasi Buxoroda toshbosma shaklida nashr qilingan<sup>41</sup>. Birinchisi – Mulla Nazrulloh Buxoriy (vaf.1334/1916) tomonidan mir Hisomiddin sudur muftiy nusxasi asosida nashrga tayyorlangani qayd etilgan. Ikkinchisi esa, 1909 yilda Buxoroda chop qilingan. to‘plam Mavlaviy Inoyatulloh Qozikalon Buxoriy (1780/1857) va uning o‘g‘li Buxoroda sudur muftiy bo‘lgan Porso xo‘ja nusxalari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining “Asosiy” fondi<sup>42</sup>da 100dan ortiq “Jo‘ng” to‘plamlari nusxalari saqlanadi. Mazkur asarlar Markaziy Osiyo fiqh tarixini o‘rganishda tarixiy rasmiy hujjatlar, fiqhiy asarlar va fatvo kitoblari bilan birga muhim o‘rin tutadi.

“E’tiborli” manbalar qatoriga esa, o‘z davrining mashhur ulamolari va ularning shogirdlari asarlari kiritilgan. Bunday asarlar usulu-l-fiqh ilmida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Usulu-l-fiqh barcha mazhab ulamolarining asosiy yo‘nalishi hisoblanganligi uchun mazkur sohada ko‘plab asarlar yaratilgan. Ayniqsa, bunda hanafiy mazhab ulamolari etakchilik qilgan. Mashhur olim Ibn Nadimning<sup>43</sup> fihristida keltirilishicha, birinchi bo‘lib tarqoq qoidalarni to‘plab kitob shakliga keltirgan shaxs Imom Abu Hanifa (ra)ning shogirdi

---

<sup>40</sup> Muhammadaminov S. Buxoro amirligi davrida yaratilgan ayrim fatvo to‘plamlari va ularning tarixiy ahamiyati// Imom Buhoriy saboqlari. - Toshkent, 2020. № 3. - B. 60–61.

<sup>41</sup> Qarang: Jungi fatavo va mahzarot. – Buxoro: 1907. – 495B, Jung ma’a Muxtasar viqoya. – Buxoro, 1909. – 766 b.

<sup>42</sup> Bundan buyon O‘zRFASHI qo‘lyozmalar bo‘limi

<sup>43</sup> Kitobda islomning dastlabki to‘rt asriga oid arab tilidagi adabiyotlar, jumladan, xorijiy mualliflar asarlarining tarjimalari haqida ma’lumotlar berilgan. Ibn an-Nadim o‘z davrining kitobsevarlari va ularning kutubxonalari, kitob va yozuv tarixi haqida malumot beradi.

Imom Abu Yusuf bo'lgan. Biroq uning to'plamlari bizgacha etib kelmagan<sup>44</sup>.

Hanafiy ulamolardan, Buxoroda yashab faoliyat yuritgan Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (vaf. 539/1150) ham «Mezonu-l-usul» nomli asar yozgan. Mazkur asar ilk bor suriyalik olim, Qatar universiteti shariat bo'limi mudarrisi, doktor Muhammad Zakiy Abdu-l Birr muharrirligi ostida 1404/1984 yilda Qatarda chop etilgan<sup>45</sup>.

Yuqorida keltirib o'tilganidek, ko'plab xalqlar orasida keng tarqalgandan keyin paydo bo'lgan muammolarni hal qilish uchun umumiy qoidalar ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Natijada, «Usulu-l-fiqh» ilmiga asos solindi.

Abu Yusufdan keyin «Usulu-l-fiqh»ga bag'ishlangan kitobni imom Muhammad ibn Idris Shofe'iy ta'lif etgan. «Risola» deb atalgan mazkur kitob bizgacha etib kelgan. Shu bois u ulamolar o'rtasida «Usulu-l-fiqh»ga oid birinchi asar deb e'tirof etiladi va imom Shofe'iy «Usulu-l-fiqh» ilmining asoschisi sifatida taniladi.

«Usulu-l-fiqh» ilmi ikki yo'nalishga bo'lingan holda asarlar yaratildi.

Birinchi: mutakallimlar yo'nalishi deb atalib, bunda ulamo dalil va hujjatlarning matni, so'zlarning lug'aviy ma'nosi, kalom va aqida koidalariga suyanadi. Mutakallimlar yo'nalishi bo'yicha kitob yozgan ulamolarning uslubi asosan uch narsa bilan e'tiborga sazovor:

1. Aqliy dalillarga suyanish.
2. Fiqhiy mazhablarga yon bosmaslik.
3. Furu'u-l-fiqhga faqat misol keltirish.

Shofe'iy, molikiy va boshqa mazhab ulamolari hamda mo'taziliylar ushbu yo'nalishda usulu-l-fiqhga oid kitoblarni ta'lif etgan.

---

<sup>44</sup> Qarang: Aminov H, Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. - Toshkent: "Movarounnahr".2017. - B-209

<sup>45</sup> Abdulvahhob Hallof. Usulu-l-fiqh (Islom qonunshunosligi asoslari). 1,2 qismlar. - Toshkent: 1997. - B. 9.

Xususan, mutakallimlar yoʻnalishida yozilgan asarlar orasida mashhur boʻlganlari quyidagilar<sup>46</sup>:

1. Abduljabbor Muʼtaziliyning «kitob Umda» asari.
2. Abulhasan Muhammad Ali Basriyning «Kitob muʼtamad» asari.
3. «Imom Haramayni» taxallusi bilan mashhur Abu-l Maʼoliy Abdulmalik ibn Abdulloh Juvayniy Nishopuriyning «Burhon» asari.
4. Qozi Abdulloh ibn Umar Bayzoviyning «Minhoju-l-Vusul ila ilmu-l-ssul» asari.
5. Hujjatul Islom Abu Homid Gʻazzoliyning «Mustasfo» nomli asari.
6. Imom Faxruddin Roziyning «Mahsul» nomli kitobi.
7. Abul Hasan Omadiyning «Ihkom fi usulu-l-Ahkom» nomli kitobi va boshqalar.

Ikkinchisi: hanafiy mazhabi ulamolari yoʻnalishi hisoblanadi. Bu yoʻnalishda «Usulu-l-fiqh» qoidalari hanafiy mazhabidagi mujtahidlarning ijtihodlari asosida ishlab chiqilgan. Chunki, bu mazhabdagi mujtahidlar imom Shofeʼiy singari «Usulu-l-fiqh»ga doir hujjatlar qoldirmaganlar. Ulardan faqat fiqhiy masalalar meros qolgan, xolos<sup>47</sup>.

Mazkur yoʻnalishda yozilgan asarlar oʻzining quyidagi xususiyati bilan ajralib turadi:

1. Fiqh qoidalari uning hukmlari bilan amaliy ravishda bogʻlangan.

2. Usulu-l-fiqh va fiqh foydali tarzda qoʻshilgan.

3. Bu uslubga umumiy fiqh «Xilof» qoidalari yozilgan.

Quyidagi asarlarni misol qilib keltirish mumkin<sup>48</sup>:

1. Abu Bakr Ahmad ibn Ali Jassosning «kitobu-l-usul» asari.
2. Faxrul Islom Ali ibn Muxammad Bazdaviyning «Kitobu-l-usul» asari.

---

<sup>46</sup> Ayrim asarlar yuqorida keltirilgan boʻlsa-da mazkur qismda ehtiyoj boʻlganligi uchun takror keltirildi.

<sup>47</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul fiqh . – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 15.

<sup>48</sup> Ayrim asarlar yuqorida keltirilgan boʻlsa-da mazkur qismda ehtiyoj boʻlganligi uchun takror keltirildi.

3. Abdulloh ibn Ahmad Hofizuddin Nasafiy<sup>49</sup>ning «Manor» asari.

4. Imom Shamsu-l Aamma Muhammad ibn Ahmad Saraxsiyning «Tamhidu-l-Fusul fi-l-usul» (“Usullarga oid fasllarga kirish”) kitobi va boshqalarni aytish mumkin<sup>50</sup>.

Ba’zi ulamolar hijriy ettinchi asrdan boshlab, «Usulu-l-fiqh»ning ikki yo‘nalishini ham o‘zida birlashtirgan asarlar yaratganlar. Ularda mutakallimlar va hanafiylarning yo‘nalishi jamlangan. Ushbu asarlarda usul koidalarini tahqiq qilish, dalillar bilan isbotlash va furu‘u-l-fiqhga tatbiq qilishga alohida e’tibor berilgan. Bu ish, asosan, hanafiylar va shofe’iylar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning uslubi «mutaaxxirlar yo‘nalishi» deb atalgan<sup>51</sup>.

Quyida islom fiqhi yo‘nalishida shakllangan to‘rt mazhabga oid usulu-l-fiqh asarlarning ba’zilari xususida alohida to‘xtalib o‘tamiz: “Fusul fi-l-usul” (“Usulga oid fasllar”)<sup>52</sup>. Bu asar muallifi hanafiy mazhabining

---

<sup>49</sup> Abdulloh Abdulhamid Sad. O‘rta Osiyo olimlari qomusi. – Toshkent, 2007. – B. 364.

<sup>50</sup> O‘sha asar. – B. 16.

<sup>51</sup> Qarang: Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2017

<sup>52</sup> Qarang: Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2017. – B. 208-209: «Kashf Asror sharhi usul Pazdaviy». Bu kitobning muallifi hanafiy mazhabining mashhur olimlaridan Alouddin Abdulaziz ibn Ahmad Buxoriydir. «Kashf Asror sharhi usul Pazdaviy» hanafiy mazhabi bo‘yicha eng muhim kitoblardan biridir. U imom Pazdaviyning “Usul Fiqh” kitobining eng mashhur sharhi hisoblanadi. Bu kitob hanafiy ulamolarning usul fiqh bo‘yicha bosh kitobi bo‘lib tanilgan.

«Talveh altavzih». Bu kitobning musannifi alloma Sa‘duddin Mas‘ud ibn Umar Taftazoniy (rah.a)dir. U kishining «Talveh altavzih» kitobi Sadr shari‘a Ubaydulloh ibn Mas‘ud Buxoriy Hanafiy (rah.a)ining «Tanqih usul»iga yozil-gan sharhdir. «Tanqih usul» esa o‘ta mashhur kitob bo‘lib, Faxrul Islom Pazdaviyning «Usul Fiqh» kitobiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bilan yuzaga kelgan kitobdir.

«Sharh Kavkab Munir». Bu kitobning muallifi Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulaziz ibn Najjor Hanbaliydir.

«Sharh Kavkab Munir» bir necha mazhablar qarashlarini o‘zida ifoda qilgan usul fiqh kitobidir. Bu kitob muallifining «Kavkab Munir» nomli kitobiga o‘zi yozgan sharhidir. «Kavkab Munir»ning boshqa nomi «Muxtasar Tahrir» bo‘lib, u Ibn Najjor Qozi

mashhur olimlaridan biri – Ahmad ibn Ali Roziy Jassos (ra)dir. «Fusul fi-l-Usul» asari hanafiy mazhabi bo'yicha yozilgan eng asosiy asarlardan biri bo'lib, aksariyat ulamolar usulu-l-fiqh bo'yicha unga suyanib ish ko'rgan. Muallif asarda fiqhiy masalalarni oson va engil zikr qilib o'tgan. Unda asar mazmuni haqida ma'lumotlar usulu-l-fiqhning tojiga aylangan. Shuningdek, usulu-l-fiqh masalalari bir muncha keng sharhlangan<sup>53</sup>.

«Usulu-l-Bazdaviy» («Faxrul islom Ali ibn Muhammad ibn Husayn ibn Abdulkarim Nasafiy Bazdaviy qalamiga mansub Ubaydulloh ibn Mas'ud usulga oid kitoblarini mazkur asarga

---

Mardoviyning «Tahrir Manqul va Tahzib Ilm Usul» asaridan qisqartirib olgan. Keyin Ibn Najjor o'zining muxtasarini o'zi sharh qilgan va uni «Sharhu Kavkab Munir» deb nomlagan.

«Sharhu Kavkab Munir» usul fiqh ilmining qoidalari va foydalarini xamda fiqhiy, lug'aviy, balog'at va mantiq masalalarni o'z ichiga olgan. Ibn Najjor har bir gapning kimniki ekanini aniq aytgan. Fikrlarni taqqoslab ko'rgan. Dalillarni munoqasha qilgan. Keyin esa, hanbaliylar nazarida qay biri kuchli ekanini bayon etgan. Shuningdek, o'zlariga muvofiq yoki muxoliflarni ham aytib o'tgan. Shu tariqa «Sharh Kavkab Munir» usul fiqh bo'yicha turli mazhablar fikrini ifoda qiladigan kitob bo'lgan<sup>52</sup>.

«Taqrir vtahbir fi sharh tahrir». Bu kitobning muallifi hanafiy ulamolardan Ibn Amir Hajj (rah.a)dir. «taqrir va-t-tahbir fi sharh tahrir» imom Kamol ibn Humom (rah.a)ning «Kitob tahrir»iga sharh bo'lib, unda musannif fuqaholar bilan mutakallimlarning usulini jamlagan. Shuningdek, unda hanafiylar bilan shofe'iyarning istilohlari ham jamlangan. «Sharh Manor» I'zzuddin Abdulatif ibn Abdulaziz ibn Malikning tasnifidir<sup>52</sup>. Bu kitob ham hanafiy mazhabida usul fiqhga oid kitoblar orasida shuhrat qozongan matn bo'lmish «Manor Anvor»ning sharhidir.

«Zubdat Asror sharh Muxtasar Manor» Abu Sano Ahmad ibn Muhammad Abulbarakot Zayliy (rah.a)ning tasnifidir. Bu kitob Shayxul imom Tohir ibn Husayn Halabiyning «Muxtasar Manor» nomli risolasiga yozilgan sharhdan iborat.

«Xoshiyatu Azmizoda» – Imom, alloma, shayx Mustafo ibn Pir Ali ibn Muhammadning (vaf. 1040/1662y.) tasnifi. Mazkur kitob ham «Manor Anvor»ning hoshiyasidir. Shu o'rinda sharh bilan hoshiyaning farqini aytib o'tish foydadan xoli emas. Ma'lumki, biror kitobga uni boshqalarga tushunarli bo'lsin deb undagi matnning har bir so'z yoki iborasiga izoh berilib, ushbu izohlar tafsir va tafsilotlar matn bilan sahifaning o'rtasiga yozilishiga sharh deyiladi. Hoshiya esa, matnning ba'zi tushunarsiz joylariga berilgan qisqacha izohlardan iborat bo'lib, u sahifaning chetiga yoziladi. Sahifani ziynatlangani uchun unga hoshiya deyiladi. Shuningdek, ba'zi hollarda hoshiya sharh deb ham ataladi.

<sup>53</sup> Abdulloh Abdulhamid Sad. O'rta Osiyo olimlari qomusi. – Toshkent, 2007. – B. 17.

asoslanib yozgan<sup>54</sup>. «Kashfu-z-zunun a'n Asami-l-kutub va-l-funun» (“kitob va san’at nomlaridan shubhalarni olib tashlash”) asari muallifi Mulla Xoja Xalifa taxallusi bilan mashhur Mustafó ibn Abdulloh (1609/1657)<sup>55</sup> ning yozishicha, «Usulu-l-Bazdaviy» o‘zida nodir masalalarni to‘plagan va unga ko‘plab sharhlar bitilgan. Mulla Xoja Xalifa o‘z kitobida usuli Bazdaviyning o‘ndan ortiq sharhini zikr qilib o‘tadi. Shulardan biri Imom Alouddin Abdulaziz ibn Ahmad Buxoriyning «Kashf Asror» asari bo‘lib, u «Usulu-l-Bazdaviy»ga yozilgan sharhlar orasida eng mo‘tabaridir.

Shamsu-l-aimma Muhammad ibn Ahmad ibn Sahl Xurosoniy Saraxsiy Hanafiy (rah.a)ning «Usul Saraxsiy» asari. Mazkur asarning asl nomi «Tamhid Fusul fi-l-usul» (“Usullarga oid fasllarga kirish”) bo‘lib, u Bazdaviyning usuliga o‘xshaydi.

«Tavzih ma’a-t-Talvih» (“So‘zni sayqallashtirish, bir xos mavzuga taalluqli hukmni umumiyashtirish”) Ubaydulloh ibn Mas’udning asaridir. Ubaydulloh ibn Masud ibn Toju-sh-sharia, Mahmud ibn Sadru-sh-sharia, Jamoliddin Ubaydulloh Mahbubiy<sup>56</sup> bo‘lib, «Sharhu-l-Viqoya»ni yozgan va sohibi talabalar orasida «Sadru-sh-Sharia»nomi bilan tanilgan.

«Usulu-sh-Shoshiy» Abu Ya‘qub Ishoq ibn Ibrohim (vaf. 325/947y)ning asari bo‘lib, u Shoshda tug‘ilgan. Misrda ta’lim olib, bir muddat qozilik ham qilgan. «Jomi’ Kabir»ni Zayd ibn Usoma va Abu Sulaymon Juzjoniylardan rivoyat qilgan. Ba’zi ulamolar uni shofe’iy mazhabida bo‘lgan, deb keltiradi. Lekin bu tadqiqotlar natijasida o‘z isbotini topmadi.

«Muxtasar fi-l-furu’u-l hanafiy» (“Hanafiy mazhabidagi furu’ qisqartmalari”) imom Abulhasan Ubaydulloh ibn Husayn ibn Dalol Karxiy (vaf. 340/962y.) asari. Bu asarga imom Quduriy va boshqalar sharh yozganlar.

---

<sup>54</sup> Nodir Nabijon o‘g‘li. Usulu-l-fiqh haqida saboqlar. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2008. – B. 17.

<sup>55</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kotib-chalabiy-uz/>

<sup>56</sup> <https://www.bukhari.uz/?p=5858>

Shuningdek, H.Aminov va S.Primovlar o‘z tadqiqotlarida usul ilmi bo‘yicha yozilgan asarlar haqida Jamoliddin Ahmad G‘aznaviyning ma‘lumotlariga tayanib, quyidagilarni keltiradilar<sup>57</sup>:

1. “Tahsil” (“Hosil qilish”). Abu Hafs Nasafiy(1068-1142) ning asari bo‘lib, to‘liq nomi: “Tahsil usulu-l-fiqh va tafsilu-l-maqolot fiha ala-l-vajh” (Usulu-l-fiqhni o‘rganish va u haqda umumiy qarashlarning tafsiloti)dir. Asarning yagona qo‘lyozma nusxasi muallifning “Matla‘a-n- Nujum va Majma‘u-l-u‘lum” (“Yulduzlar chiqish joyi va ilmlar jamlanmasi”) nomli qomusiy asari tarkibi kiritilgan. Hajm jihatdan 22 varaqni tashkil qiladi. Unda sohaga oid barcha qonun-qoidalarni jamlashga harakat qilingan. Asarda Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944) nomi 16 joyida tilga olinib, uning “Ma‘xaz Sharoye” (“Shariatlarning oladigan joyi”) asaridan iqtiboslar keltirilgan. Shuningdek, asarning oxirgi fasli Abul Hasan Karxiy ishlab chiqqan fiqhiy qoidalarga bag‘ishlangan. “Tahsil” shofi‘iylik, ahli hadislar va mahalliy ulamolarning usulu-l-fiqhga oid qarashlarini o‘rganishda ham katta ahamiyati ega<sup>58</sup>.

2. **“Fatovoyi Kubro” va “Fatovoyi Sug‘ro”** (Katta va kichik fatvolar). Abu Muhammad Husomuddin Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Moza Husomu-sh-shahid Buxoriy (1090-1141) tuzgan katta-kichik fatvolar to‘plami. Mazkur ikki asarni xorazmlik faqih Jamol aimma Najmiddin Yusuf ibn Ahmad Xorazmiy Xosiy (vaf. 634/1237) yanada qisqartirib, qayta ishlagan. Bularning hech qaysisi nashr etilgan emas,. Ulardan bittadan nusxa O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.<sup>59</sup>.

3. “Mezon usul fi natoiju-l-uqul” (“Aqllar natijalarida asos tarozusi”) – Alouddin Abu Bakr Muhammad ibn Abdulhamid (Ahmad) Usmandiy Samarqandiy (1096-1158) qalamiga mansub asar. Kichik hajmli bu risola Zakiy Abdulbarr tomonidan 1984 yilda Qatarda nashr etilgan<sup>60</sup>. Muallif usul fiqhga oid “Bazlu-n-nazar”

---

<sup>57</sup> Qarang: Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2017.-B.164

<sup>58</sup> Muhammadaminov S.Abu Hafs Nasafiyning usul fiqhga oid bir risolasi //O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. - № 1.-Toshkent, 2007,- B. 85-88.

<sup>59</sup> <https://ahlisunna.uz/mashhur-fatvo-tuplamlari/>

<sup>60</sup> Qarang: Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2017. - B.165

(“Nazar in’omi”) nomli asar ham yozgan. Ba’zi tadqiqotlar “Libob” (Oltin shoda) nomli usulu-l-fiqhga bag‘ishlangan asarni unga tegishli deb hisoblaydilar. “Mezonu-l-usul” da ahkomlar haqidagi umumiy qoidalardan so‘ng to‘rt asosiy masdar shar’u man qablana, sahobiy qavli kabi qo‘shimcha masdarlar, shuningdek, hukmlardagi taoruz (“dalillarning bir-biriga o‘zaro zid kelishi”), tarjih (ravshanlashtirish”), nasx (“ketkazish, o‘chirish”) qonun-qoidalari bayon etiladi. Asar so‘ngida ijtirod va mujtahidlik haqida so‘z yuritiladi.

4. “Usulu-sh-Shoshiy”. Nizomiddin ibn Muhammad Aziz Shoshiy (VP/VSh asr) qalamiga mansub asar bo‘lib, muallif uni ellik yoshida yozgani bois, “kitob Xamsin” (“Ellik yosh kitobi”), iboralarining qisqaligi uchun “Muxtasar fi usulu-l-fiqh” (“Usulu-l-fiqh bo‘yicha muxtasar”) deb ham nomlanadi. Muallif Hazrati Imom Qaffol Shoshiy [Hastimom] maqbarasiga dafn etilgan<sup>61</sup>. “Usulu-sh-Shoshiy” hanafiy mazhabi yo‘nalishida usulu-l-fiqhga bag‘ishlab yozilgan. U boshqa asarlar ichida o‘zining muxtasar ekani, sodda va ravon tilda yozilgani bilan ajralib turadi. Unda hanafiylik va shofi‘iylik mazhabi usul-qoidalari bir-biri bilan solishtirilib, misollar yordamida tushuntirilgan. Shuning uchun ham mazkur asar o‘rta asrlarda madrasalarda darslik sifatida o‘qitilgan. “Usulu-sh-Shoshiy” va uning sharhlari toshbosmalarda bir necha marotaba toshbosma shaklida nashr etilgan.

5. “Safva fi Usulu-l-fiqh” (Fiqh asoslaridagi musaffolik). Najmiddin Zohidiy (vaf. 658/1260) asari. Uning qo‘lyozma nusxalari topilmagan. Muallifning “Mujtabo” (“Tanlangan, saylangan”) nomli asari ham usulu-l-fiqhga oid deb e’tirof etiladi.

6. “Mug‘niy fi Usulu-l-fiqh” (“Fiqh asoslarida behojat qiluvchi”) – Jaloliddin Umar ibn Muhammad Xo‘jandiy Xabboziy (1232-1292) “Mug‘niy” asari. Xabboziy asosan Damashqda yashagan bo‘lsada, bir muddat Xorazm va Makkada bo‘lgan. Asar Saraxsiy (1009-1090) va Bazdaviy (1009-1089) asarlari asosida yaratilgan. Asar Muhammad Mazhar Baqo tomonidan Makkada 1983 yilda nashr qilingan.

---

<sup>61</sup> Ahmadaliev A. “Usulush Shoshiy” muallifi / Hidoyat, 2009/7. - B. 30-31.

7. “Badi’u-n-Nizom” (“Nizom go‘zalligi”) – Muzaffaruddin Ahmad ibn Ali ibn Saotiy (vaf. 694/1294) asari. Uning to‘liq nomi “Badi’u-n-nizomu-l-jomi’ bayna kitobay Bazdaviy va Ihkom” (“Ihkom” va Bazdaviyning kitoblari orasidagi to‘plangan tartib go‘zalligi) bo‘lib ko‘proq, “Nihoyatu-l-vusul ila ilmu-l-usul” (“Usul ilmiga etishish nihoyasi”) degan nomi mashhur. U hanafiy ulamosi Ali Bazdaviy (1009- 1089) qalamiga mansub “Usul” (“Asoslar”) va shofi’iy ulamosi Sayfiddin Ali Omidiy (1156-1233) qalamiga mansub “Ihkom” (“Mustahkam”) asarlari asosida yozilgan. Omidiy shofi’iy bo‘lgani uchun “Badi’ Nizom” nomli asari ham hanafiy ham shofi’iy ulamolari tomonidan sharh qilingan. Unga o‘ndan ortiq sharh va hoshiyalar bitilgan. Asar mutakallimlar, ahli hadis va ra’ylarning usuliy qoidalarini yaqinlashtirgan kitob sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

8. “Mirqotu-l-vusul ila ilmu-l-usul” (“Usul ilmiga etishuv zinasi”) – Mulla Xusrav Muhammad ibn Firomurz ibn Ali Rumiyy (vaf. 885/1480) qalamiga mansub asar bo‘lib, muallifning o‘zi unga “Mir’otu-l-usul” (“Asoslar oynasi”) nomli sharh bitgan<sup>62</sup>. Mazkur asarni ulamolar usul fiqhga oid e’tiborli manbalardan biri sifatida e’tirof etgan. Asar sharhi bilan birga, Istanbulda o‘n martadan ko‘proq nashr etilgan<sup>63</sup>. Bundan tashqari, muallifning “Usul Bazdaviy”ga yozgan sharhi va “Talvih”ga bitgan hoshiyasi ham shuhrat qozongan.

9. “Musallamu-s-subut” (“Mustahkamlikka bo‘ysundirilgan”) – Alloma Muhibbulloh ibn Abdushukur Bahoriy Hanafiy(vaf.1119/1708) ning asari. Asar 1109/1698 yilda yozilgan va unda abjad hisobida hanafiy hamda shofi’iy mazhabi usuliy qoidalari qiyosiy tahlil etilgan. U muqaddima, 3 ta maqola, 4 ta asl maqsad va xotima kabi bo‘limlarga ajratilgan. 1908 yilda Misrda nashr etilgan. Uning eng mashhur sharhi Abdulali Ansoriy Hindiyning (vaf. 1225/1810) “Favoyihu-r-rahamut” (“Mehr-shafqat hidlari”) nomli asari bo‘lib, u bir necha marta nashr qilingan.

---

<sup>62</sup> Qarang: Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2017.-B.165

<sup>63</sup> O’sha asar.-B.163-165

10. “Majomi’ haqoiq” (“Haqiqatlar majmuasi”) – Abu Said Muhammad Xodimiy (1701-1763) qalamiga mansub kichik hajmli asar. “Majomi’ haqoiq” muqaddima, to‘rt bob, fasl, rukn va xotima kabi qismlarga bo‘lingan. Asarning muhim jihatlaridan biri unda hanafiy mazhabiga oid fiqhiy qoidalarning 154 tasi “qavoidi kulliya” yoki “qavoidi aksariya” nomi ostida zikr qilingan. Asar Misr va Qozonda toshbosma shaklda chop etilgan.

11. Usul fiqhga bag‘ishlangan alohida asarlardan tashqari, furu’ fiqhga oid ayrim asarlar tarkibida ham mazkur mavzu qamrab olingan. Jumladan, Jamoliddin Ahmad G‘aznaviy (vaf. 600/1203) qalamiga mansub “Hoviy qudsiy” (“Muqaddas asrovchi”) asarida usulu-l-fiqhga oid qism mavjud<sup>64</sup>.

Hanafiy fiqhining mashhur hanafiy olimlaridan – Abul Fath Alouddin Muhammad ibn Abd Hamid ibn Umar ibn Hasan ibn Husayn Usmandiy Samarqandiy<sup>65</sup>ning (vaf. 552/1157 y.) “Bazlu-n-nazari fi-l-usul” (Usulu-l-fiqh ilmiga chuqur nazar), “Muxtalafu-r-rivoya” (Rivoyatlarning turliligi), Burhonuddin Marg‘inoniyning “Tajnis va-l mazid” (“O‘xshatish va qo‘shish”), Abu Fazl Abdulloh ibn Mahmud ibn Mavdud ibn Majdiddin Mavsiliy (vaf. 683/1284 y.)ning “kitobu-l-muxtor” (“Tanlangan kitob”), Abu Barakot Nasafiy (vaf. 710/1310 y.)ning “kitobvofiy fiu-l-vafiy-l-furu” (“Furu’ fiqhda vafo qiluvchi”), Tohir ibn Salom ibn Qosim ibn Ahmad Ansoriy Xorazmiy (vaf. 771/1370 y.)ning “Javohiru-l-fiqh” (“Fiqh javohirlari”) asarlarini keltirish mumkin<sup>66</sup>.

Usulu-l-fiqh ilmi bo‘yicha ta’lif etilgan asarlar hozirgi kungacha birlamchi manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Yuqorida zikr qilingan ulamolar usulu-l-fiqh ilmi rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Mazkur asarlarning yozilish uslubi va metodologiyasi keyingi davrda yaratilgan asarlarga nazariy jihatdan asos bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, usulu-l-fiqh ilmi bo‘yicha ta’lif etilgan asarlar hozirga kungacha birlamchi manba bo‘lib xizmat qilishi bilan birga, ulamolarning usulu-l-fiqh ilmi rivojiga katta hissa

---

<sup>64</sup> Qarang: Jamoliddin Ahmad G‘aznaviy. Al-Hoviy qudsiy. 2 jild. - Bayrut: "Dorun navodir" 2011.

<sup>65</sup> <https://www.bukhari.uz/?p=9899>

<sup>66</sup> <https://www.bukhari.uz/?p=22851>

qo‘shganliklarini aohida ta’kidlash darkor. Mazkur asarlarning yozilish uslubi va metodologiyasi keyingi davrda yaratilgan asarlarga nazariy jihatdan asos bo‘lib xizmat qilgan.

## **II-BOB. FARG‘ONA FIQH MAKTABI RIVOJIDA HUSOMUDDIN AXSIKATIYNING O‘RNI**

### **2.1. Husomuddin Axsikatiy yashagan davrdagi ijtimoiy, siyosiy va diniy hayot**

Husomuddin Axsikatiy yashagan davr haqida ma’lumot beruvchi manbalar hozirgi kungacha O‘zbekiston tarixida bir tizimga solib o‘rganilmagan. Shu bois bu davrda yuz bergan ijtimoiy, siyosiy va diniy hayotni ochib berish tadqiqot jarayonida ma’lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Xususan, bu holatni mazkur davr bilan bog‘liq tadqiqotlarning kamligi bilan ham izohlash mumkin.

Ma’lumki, Husomuddin Axsikatiy XI–XIII asrlarda ilm-fan taraqqiy etgan bir davrda yashagan. Bu vaqtda mazkur hududlar Saljuqiylar va Qoraxoniylar (Xoqoniylar)ga tobe bo‘lgan. Qoraxoniylar, dastlab mustaqil davlat sifatida faoliyat yuritgan<sup>67</sup>. Keyinchalik Qoraxoniylar davlati Saljuqiylar hukmdori Malikshoh tomonidan (480–481/1087–1088) bosib olinadi va bu erlarni u Qoraxoniylar vositasida boshqaradi. Ammo 1141–1142 (hijriy 536) yilda Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjar Movarounnahrni Qoraxitoylarga boy beradi. Saljuqiylar kabi Qoraxitoyliklar ham davlat boshqaruvida Qoraxoniylardan foydalanadi. Xususan, Qoraxoniylar hukmdori Arslonxon (1102-1130) tomonidan 16 ming xitan oilasi Movarounnahrnga ko‘chirilib, ulardan Qoraxoniylar davlati chegaralarini himoya qilish uchun foydalanilgan. Xitan axolisining ko‘payishi bilan Arslonxon ayollarni erkaklardan alohida joylashtirishni buyuradi. Shundan so‘ng xitanlar Bolasog‘unga ko‘chib o‘tdilar va ular bilan Arslonxon o‘rtasida tez-tez to‘qnashuvlar bo‘lib turadi<sup>68</sup>.

Ichki ziddiyatlar ayni kuchaygan vaktida Bolasog‘un xoqoni taxtni saqlab qolish niyatida Koraxitoy Go‘rxoniga yordam so‘rab

---

<sup>67</sup> Qoraxoniylarning hukumronlik davri IX-XIII asrlarni o‘z ichiga oladi.

<sup>68</sup> Дутураева Д. Правления Каракитаев (вторая четверт XII – – начало XIII вв.) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. - Тошкент. 2010. С.31.

murojaat kiladi. Gurxon bu taklifni ko‘pdan kutib yurganligi bois, u katta qo‘shin yuborib, Qoraxonlarning markaziy shahri Bolasog‘unni ishg‘ol qiladi va o‘z qarorgohini shahar yaqinida o‘rnatadi<sup>69</sup>. Koraxitoylar ko‘p vaqt o‘tmay Yettisuv va Sharqiy Turkistonni ishg‘ol qiladilar. Qoraxitoylar Bolasog‘unni olgan vaqtida (1129—1130) bu yerda Elxon Ahmad Ibn Xasan xonlik qilgan (u taxtiga 1103 yilda o‘tirgan). Musulmon manbalarida Qoraxitoy hukmdorlarining davlat boshliqlarining unvoni Go‘rxon bo‘lgan. Ibn Asirning talqin qilishicha: Go‘r xitoy tilida podsholarni ulug‘lovchi unvon, ya‘ni, ulug‘lar ulug‘i, degan ma‘noni bildirgan. XII asrning 30-yillarining oxirlarida Qoraxoniylar davlatining Sharqiy qismi batamom Qoraxitoylar qo‘liga o‘tgan.

Qoraxitoylar Sharqiy va G‘arbiy Turkistonda Movarounnahrda 526/1130–1211 yillar orasida hukmronlik qilgan mo‘g‘ul davlati edi. Ulardan so‘ng 607/1210 yilda Xorazmshohlar hokimiyat tepasiga kelgan va Qoraxoniylar hukmronligi o‘z nihoyasiga etgan.

Qoraxoniylar sulolasining (225-607/840-1211) yuksalishi natijasida musulmon jamiyatida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berdi<sup>70</sup>. Bu sulolaning nomini Yevropa sharqshunoslari Qoraxoniylar deb atagan. Chunki, ularning unvonlariga qora («qudratli») degan unvon qo‘shib aytilgan. Shuningdek, ular Ilikxonlar (aniqrog‘i, ilig) deb ham ataladi<sup>71</sup>. Qoraxoniylar davlati g‘arbda Buxorodan va Sirdaryoning quyi oqimidan sharqda Yetti suv va Qoshg‘argacha yetgan. 407/1016 yilda Qoraxoniylar o‘rtasida o‘zaro nizo boshlanadi va taxminan, 433/1041 yildan keyin esa, yaxlit xonlik ikki qismga ajralib ketadi. Natijada, markazi Buxoroda bo‘lgan Movarounnahr va Farg‘onaning Xo‘jandgacha boradigan g‘arbiy hududlarini o‘z ichiga olgan g‘arbiy xonlik hamda o‘z ichiga: Talas, Isfijob, Shosh, Farg‘onaning sharqiy hududlari, Yettisuv va Qoshg‘arni olgan – sharqiy xonlik yuzaga keldi<sup>72</sup>. Bu xonlikning siyosiy va harbiy poytaxti Bolasog‘un bo‘lgan, ammo doimiy va

<sup>69</sup>Shoniyozov K. O‘zbek xalqining kelib chiqishi. - B. 239.

<sup>70</sup> Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Монография. Том 1. – Москва: Издательство восточной литературы. 1963. - С. 137.

<sup>71</sup>.Bosvort K.E. Musulmon sulolalari. O‘zRFA. “Fan” nashriyoti, 2007. B-87.

<sup>72</sup> O‘sha joyda. - B-87.

madaniy markazi Koshgʻar edi. Qoraxonlar xukmronligi Movarounnahrda qariyb 200 yil davom etdi<sup>73</sup>.

Tadqiqotchilarning fikricha, Qoraxoniylar turkiy qabilalar konfederatsiyasidan iborat boʻlib, ular tarkibida: Qarluq, Yagʻmo, Chigil, Tyurgash, Argʻun, Ogʻuz kabi yirik qabilalar bor edi<sup>74</sup>.

Qoraxoniylarning boshqaruv institutida turkiy davlatga xos kuchli anʻanalar saqlanib qolgan boʻlib, ular: Alp-tegin, Atim-tegin, Togʻan-tegin, Togʻril-tegin, Ulugʻ-tegin, Humtegin, Chagʻri-tegin, Aka-ogʻa, Subashi ogʻa, Tonga-ogʻa, Yel-ogʻa, Tarxan/tarkan, bek kabi titul va unvonlar ostida hukmronlik qilgan<sup>75</sup>.

Qoraxoniylar davlati Somoniylar davlati kabi markazlashmagan boʻlsada, uni birlashtirishga harakat qilgan shaxslardan biri Ibrohim Tamgʻochxon edi. Xususan, uning markazlashtirish siyosati pul tizimini birlashtirishda ham ifodalangan<sup>76</sup>. Mazkur pullar butun hudud boʻylab tarqamagan boʻlsa-da (baʼzi hududlarda dirham, boshqalarida esa, mis-qoʻrgʻoshin pullar muomalada boʻlgan), Movarounnahrda keng tarqaldi.

Qoraxoniylar davlati oʻz davrida Gʻarb va Sharq oʻrtasidagi «Oltin koʻprik» vazifasini oʻtagan. Bunda Buyuk Ipak yoʻlining asosiy tarmoqlari mazkur hududdan oʻtganligi va u turli dinlar, shu jumladan islom dinini tarqalishiga katta hissa qoʻshganligini alohida taʼkidlash lozim<sup>77</sup>. Qoraxoniylar taxtiga 24 yoshida oʻtirgan hukumdorlardan biri Satuk Bugʻroxon islom dinini rasman davlat dini deb eʼlon qildi<sup>78</sup>. Bu nafaqat turkiy qabilalar tomonidan islomning ommaviy qabul qilinishiga va ularning etno-madaniy

---

<sup>73</sup>Shoniyozov K. Oʻzbek xalqining kelib chiqishi. - B. 237.

<sup>74</sup>Karaev O. Istoriya Karaxanidskogo kaganata (X nachalo XIII vv). Ilm. Frunze. 1983. S. 68-72; Shoniyozov K. Oʻzbek xalqining kelib chiqishi. - B. 220-237.

<sup>75</sup>Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991-1209). Часть II. Источниковедческое исследование. "София". 2006 С.126.

<sup>76</sup> Oʻsha joyda. S.138.

<sup>77</sup>Кылычев А.М. Об истории караханидского государства. Интернационал журнал оф экспериментал эдусатион № 10, 2016. С. 207-210.

<sup>78</sup>Али заде Айдын Ариф оглы. Хроники мусулманских государств I-VII веков хиджры. Изд. 2/е, испр. и доп. – М., Умма, 2004. С. 74.

muhitiga ta'sir ko'rsatdi balki islom dinining keyingi tarixida ham hal qiluvchi rol o'ynadi.

Satuk Bug'roxon tomonidan islom dinining qabul qilinishi masalasi manbalarda turlicha talqin qilinadi. Jumladan «Tazkira-i Bug'roxon» asarida keltirilishicha Somoniylar sulolasi vaqili xoja Abu Nasr Samoniy Olloh tomonidan Satuk Bug'roxonning ustozini etib tanlangan. U tushida Muhammad (s.a.a.)ni ko'radi va undan Turkistonga jo'nab ketish hamda Qoraxoniylarni topish ishorasini oladi<sup>79</sup>. Safardan maqsad Satuk Bug'roxonga Qur'onni o'rgatish edi. Bir so'z bilan aytganda, Satuk Bug'roxon «islomni qabul qilish va turkiy xalqni musulmon qilish» uchun mo'jallangan shaxs edi<sup>80</sup>.

Satuk Bug'roxon o'z tangalarini Shihabu-d-davla laqabi ostida zarb qildirgan. Lekin bu laqab xalifa tomonidan rasman unga berilmagan. Bunday «o'z-o'zini tabriklash» o'sha paytdagi odatiy amaliyotga zid bo'lgan va bu «Qoraxoniylar islomi» «xalifalik islomi» bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmaganligini ko'rsatadi<sup>81</sup>. Keyinchalik u Horun laqabli Abdulkarim nomli musulmoncha ism bilan chaqirila boshladi<sup>82</sup>.

Manbalarda Qoraxoniylar Farg'onadan Shosh (Toshkent)gacha bo'lgan erlarni qaysi vaqtda qo'lga kiritganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Lekin qoraxoniy hukumdori Eloq Nasrxon davrida to'g'rirog'i 380\990-91 yillarda Farg'onada tangalar zarb qilingan<sup>83</sup>. X asrlarda Farg'on<sup>84</sup>da Quva, Nasrobod

---

<sup>79</sup>O'sha joyda. - S. 207.

<sup>80</sup>O'sha joyda. - S. 207.

<sup>81</sup> Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского Караханидского каганата (991-1209). Часть II. Источниковедческое исследование. "София". 2006.- С.83.

<sup>82</sup>Джамоли С.К. Особенности исламизации Караханидов (IX – XI века). ISSN 0321-3056 Известия вузов. Северо-Кавказский регион. Общественные Науки. 2018. № 1. С. 95.

<sup>83</sup>Караев О. История Караханидского каганата (X начало XIII в). Илм. Фрунзе. 1983.- С. 114.

<sup>84</sup> Farg'ona nomi so'g'dcha «Fraganik» shaklida berilgan. Ilk o'rta asrlarda Farg'ona mulkining Fraganik ixshidligi nomi ostida yuritilishini arab tarixchilari ham tasdiqlaydi. Shu manbada «Samarqanddan Fraganikkacha (bu yerda u qadimgi Farg'onaning bosh shahrini kuzda tutadi) 53 farsax (1 farsax 6-8 km ga teng), Bab (Pop)dan Fraganikkacha 4 farsax»,- deyilgan. Darhaqiqat, Ibn Xordatbex asarida

kabi yirik shaharlar bo'lishi bilan birga alohida udel (qism)larga ham bo'lingan edi<sup>85</sup>. X-XII asrlarda Axxi<sup>86</sup>, Marg'ilon, Rishton, Andijon kabi shaharlar siyosiy va iqtisodiy markazlar sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi<sup>87</sup>. Xususan, tog' kon sohasida, asosan, janubiy mintaqalardan, jumladan, merkuriy (Sox), oltin va kumush (Nekad), ammiak, qatron, asbest, firuza, temir, mis va qo'rg'oshin (Nessay mintaqasi)dan qazib olingan. Shimoliy Farg'onada ham ruda konlari bor edi. Masalan, Axxiket yaqinidan kumush va oltin qazib olingan<sup>88</sup>. Bundan tashqari mintaqada pardador, dovotdor, tashtdor, jashnigir, qutvol, salor, sarhang, sipohsalor, biruq, ag'ichi, qushchi, chovush, xaylboshi kabi rasmiy lavozimlar ham joriy qilingan<sup>89</sup>. Makdisiyning ma'lumotlariga ko'ra<sup>90</sup>, IX-X asrlarda Farg'onadan, shuningdek Ispidjabdan turkiy qullar bilan birga oq matolar, qurollar, qilichlar, mis, temir eksport qilingan. Metall buyumlar, ayniqsa, qurol-yarog' hatto Bag'dodda ham sotilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasiga temir asosan Farg'ona va Usturshonadan yetkazib berilgan. Farg'onalik ustalar temirga ishlov berishda juda mohir bo'lgan va ular qurol-yarog' bilan birga,

---

ko'rsatilgan Popdan keyingi 4 farsax masofada joylashgan shahar punkti aslida Axxikent bo'lib, sug'diy manbalarda arablarga qadimiy nomi Fraganik sifatida ma'lum bo'lgan. Biz keltirgan keyingi ikki manba (Divashtich va Ibn Xordatbex) ma'lumotlariga ko'ra, VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asr boshlarida Farg'ona vodiysining mayda mahalliy hokimliklari Fraganik hokimlik bir qo'l ostida birlashib, yagona Farg'ona mulkiga aylangan ko'rinadi. Qarang: Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент. "Университети"-2007. Б-36.

<sup>85</sup> O'sha joyda.

<sup>86</sup> Axxikent so'zining birinchi tarkibiy qismi so'g'dcha «Axshiyz» (اخشيد) va «Xshiyz» (خشيد) so'zlari bo'lib, boshliq, rahnamo, xo'jayin, ega degan ma'nolarni anglatadi. Ikkinchi qismi (bo'lagi) esa «kat» (كت) yoki «kas» (كث) bo'lib, bu ham so'g'diycha shahar yoki qishloq, aholi yashash maskani ma'nolarida keladi. Axxikat - «Amir yoki podshoh qarorgohi (saroyi)» ma'nolarida keladi.

Qadimda Farg'ona podshohlarining unvoni اخشيد Ixshid bo'lgan.

<sup>87</sup> Бернштам А.Н. Древняя Фергана. Академ наук УзССР. - Ташкент. 1951.- С.

<sup>88</sup> O'sha asar.

<sup>89</sup> Z.Zinatullaev. VIII-XII asrlarda islomning Markaziy Osiyoga yoyilishi va boshqaruv tizimining o'zgarishi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent-2022.-B.20

<sup>90</sup> Халмўминов У. VI-VIII асрларда Фарғона водийсидаги етакчи шаҳар марказлари // "Science and education" scientific journal. September 2021. Volume 2/issue 9. P-82

pichoq hamda ignalar yasagan<sup>91</sup>. Shuningdek, bu yerda har oyda bir marotaba hunarmandlar tomonidan yarmarka o'tkazilgan va unga uzoq hududlardan savdogarlar, hunarmandlar kelib qatnashgan.

Farg'ona Qoraxoniylar davrining dastlabki bosqichlarida siyosiy voqealar markaziga aylandi. Qoraxoniylarga qarshi chiqqan Muntasir O'zgan shahridagi qamoqxonaga qamaladi va u yerdan qochib, qo'zg'olon boshlaydi. Qo'zg'olon bostirilgandan keyin uning ukalari va tarafdorlari qamoqqa tashlandi. Bu vaqtda Qoraxoniylar o'rtasida do'stona ittifoq tuzish uchun Mahmud G'aznaviy O'zgangacha tashrif buyuradi. Nasr Mahmud G'aznaviyga Farg'ona boyligini namoyish etuvchi sovg'alarni topshiradi. Ushbu sovg'alar orasida muskus, otlar, tuyalar, qullar va ayol, oq lochinlar, qora mo'ynalar, xutu shoxlari, Xitoy zargarlik buyumlari, Nefrit toshlari bor edi<sup>92</sup>.

IX–X asr boshlarida yashab faoliyat yuritgan Ibn Xordadbeh, Ibn Ruste, Al Ya'qubi, Kudama kabi geograflar, asosan, Farg'onadan o'tgan savdo yo'llari haqida yozadilar. Masalan, Ibn Xordadbeh transkontinental yo'lni tasvirlash jarayonida Farg'onadagi quyidagi shaharlarni eslatib o'tadi: Xo'jand (Xo'jend), Bab (Pap), Farg'ona (Parkana), Kuba (Quva), Ush (O'sh), O'zgend (O'zgan), Atbash<sup>93</sup>. Tadqiqotchi A. Anarboev, Ibn Xordadbeh ma'lumotiga suyanib Farg'ona shahrini ( unga ko'ra Farg'ona shahri Bab va Fargan shaharlari o'rtasida 4 farsax masofada joylashgan) eski Ahsi deb ta'kidlaydi va mazkur ma'lumotlar savdo yo'llarini o'rganish hamda mahalliyashtirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tadi<sup>94</sup>.

Mo'g'ullar davrigacha bo'lgan o'rta asr yozma manbalarida keltirigan Markaziy Osiyo shaharlari to'g'risidagi ma'lumotlar V.V. Bartoldning ishlarida keltirilgan<sup>95</sup>. U o'z tadqiqotida Farg'onada

---

<sup>91</sup> Большаков О.Г. Город в конце VIII- начале XIII вв.// Средневековый город Средней Азии. - С. 286.

<sup>92</sup> O'sha joyda.

<sup>93</sup> Анарбаев А. Городская культура Ферганы В эпоху античности и средневековья. Докторская диссертация в виде научного доклада. Ташкент. 2017. С.92.

<sup>94</sup> O'sha joyda.

<sup>95</sup> Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Монография. Том 1. – Москва: Издательство восточной литературы. 1963.- С. 220-221.

masjidlar bilan birga 40 ta shahar va qishloqlar borligini aytib o‘tadi hamda ularni 31 tasining nomlarini keltiradi. O.G. Bolshakov esa, 39 ta shahar borligini qayd etadi<sup>96</sup>. Ba’zi sabablarga ko‘ra, Axsiket bu shaharlar ro‘yxatiga kiritilmagan<sup>97</sup>. Ushbu ma’lumotlar o‘rta asrlarda Farg‘onani ko‘plab shahar va qishloqlarga ega bo‘lgan gullab-yashnayotgan mamlakat bo‘lganidan darak beradi. Bu erdan oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin, bronza, ammiak, simob, yonadigan tosh (ko‘mir), magnit va boshqa minerallar qazib olingan. Yozma manbalarga ko‘ra, Farg‘onaning poytaxti Axsiket edi va u uch qismdan: kuhendiz, Madina, rabad, devor bilan himoyalangan<sup>98</sup>.

Axsining janubi-sharqiy qismida, massivdagi qal’a yaqinida joylashgan juma masjidi arxeologlar tomonidan topib o‘rganilgan. Shahrstonning Sharqiy qal’a devori va chuqur o‘rtasida qal’aning xandaqi va uning atrofida qo‘shimcha binolar bilan birga, juma masjidi qoldiqlari topilgan<sup>99</sup>. Bu erda to‘rta qurilish davri aniqlangan. Ulardan uchtasi Mo‘g‘ullargacha bo‘lgan davrda qurilgan masjid va to‘rtinchisi sanoat binolaridan iborat. Masjid mehrobi g‘arbiy devor tomonda joylashgan va ganchlar bilan bezatilgan. Farg‘onada ilk o‘rta asrlarda Axsikent, Koson, Quva, Uzgand kabi shaharlar mavjud bo‘lganligi xitoy, arab-fors tilidagi yozma manbalar va arxeologik qazishmalardan ham ma’lum. Ular vodiydagi bir qator shahar va yirik aholi maskanlarini o‘z ichiga oluvchi alohida-alohida siyosiy-ma’muriy markazlashgan shaharlar hisoblanganligi bois, boshqaruv markazlari aynan qaysi shaharlar bo‘lgani masalasida ham tadqiqotchilar orasida farqli qarashlar bor. Biroq yozma manbalarda, ba’zan Kosonni yoki Quvani, ba’zan esa O‘zgandni boshqaruv markazi sifatida eslatilishi tadqiqotchiardan bu masalani chuqurroq o‘rganishni talab qiladi. Xitoy manbalarida Sigyan (bugungi Eski Axsikent yodgorligi) shahri Farg‘onaning poytaxti, deb ko‘rsatiladi. IX-XII asrlarda vodiya bo‘lgan arab va

---

<sup>96</sup> Bolshakov O.G. Gorod v konse VIII – nachale XIII vv. // Srednevekovyy gorod Sredney Azii. S. 201-202, tabl. 15. L., 1973.

<sup>97</sup> Anarbaev A. Gorodskaya Kultura Ferganы v epoxu antichnosti i srednevekovyya. Doktorskaya dissertatsiya v vide nauchnogo doklada. Tashkent. 2017. S.92.

<sup>98</sup> O‘sha Joyda.

<sup>99</sup> O‘sha joyda. S.92.

fors geograflari asarlarida Farg‘ona vodiysida 40 ta shahar bo‘lgani, uning poytaxti Sirdaryo bo‘yidagi Axsikat (Axsikent)ekani, uning aylanasi 3 farsaxdan (18 km) kam emasligi eslab o‘tiladi . Shuningdek, “Axsikat, tekislikdagi shahar, tog‘lar bilan orasi bir farsax. Daryoning o‘ng sohilida, bozorlari shahar va rabadda joylashgan, kattaligi farsaxning o‘ndan olti qismichadir”,- degan ma'lumotlar ham bor. “Boburnoma”da Axsikentga shunday tavsif beriladi: “... Farg‘onada Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qtur... Umarshayx Mirzo muni poytaxt qilib edi... ” Mazkur ma'lumot Axsikent o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi.

Quva ikkinchi yirik shahar hisoblangan. U ham kuhendiz, Shahrison va raboddan iborat bo‘lib, devorlar bilan o‘ralgan. Shaharda katta juma masjidi joylashgan. Qoraxoniylar ko‘chmanchi turkiy qabilalar bo‘lganligi uchun asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan. Shunday bo‘lsada, ular X-XI asrlarda o‘troqlasha boshlagan. Mazkur sulola davrida o‘troq dehqonchilik madaniyati eng rivojlangan hududlar Farg‘ona va Movraunnahr edi<sup>100</sup>. Yerga sultoniy (sulolaga tegishli), amloki xos (xususiy), devon (davlat) va vaqf erlari ko‘rinishida egalik qilingan<sup>101</sup>. Qoraxoniy hukumdorlari va ayrim mansabdor shaxslar o‘z er mulklari hisobidan masjid va madrasalarga vaqf ko‘rinishida ulush ajratganlar. Xususan, Ibrohim ibn Nasrga tegishli ikkita vaqf hujjatining nusxasi hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Bu hujjat, dastlab, O.G.Bolshakov keyinchalik Sh. Kamoliddin tomonidan batafsil o‘rganilib, tadqiq etilgan<sup>102</sup>.

Yuqorida keltirilgan vaqf hujjatlarining birinchisi Samarqand shahrida joylashgan shifoxonaga tegishli bo‘lib, Ibrohim ibn Nasr Tamg‘ochxon bemorlarga oziq-ovqat, turli xil ichimliklar, shifokorlar va boshqa xodimlarga zarur bo‘lgan maosh hamda zarur

---

<sup>100</sup> Karaev O. Istoriya Karaxanidskogo kaganata (X nachalo XIII vv). Ilm. Frunze. 1983. S. 208.

<sup>101</sup> O‘sha joyda.

<sup>102</sup> Qarang: Болшаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгач Бугра-хана в Самарканде // СНВ, вып. 10. М., 1971. С. 170 - 178.; Шамсиддин Камолитдин ,Мухайё Махмудова, Баходир Мусаметов. Два вакфа Тамгач Бугра-хана В Самарканде. Германия. 2012.

narsalar uchun ikkita mehmonxona, do'konlarni vaqf qiladi<sup>103</sup>. Shu o'rinda Ahsi shahrining yuqori qismida ham shifoxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritganligini aytib o'tish o'rinli<sup>104</sup>.

Ikkinchi vaqf ham Samarqandning mashhur Bob jadid degan joyida joylashgan madrasaga tegishli bo'lib, madrasa tarkibiga masjid, maktab, Qur'on o'qish joyi, hujralar, binolar va hovli kirgan<sup>105</sup>. Unga uchta mehmonxona, karvonsaroy, erkaklar hammomi, uzumzorlar, ekin maydonlari vaqf qilingan. O'rta asrlarda hamomlar masjiddan keyin odamlar eng ko'p tashrif buyuradigan maskanlardan biri hisoblangan. Ibrohim ibn Nasr Tamg'ochxonga qarashli ikkita hammom mavjud bo'lib, ulardan biri Samarqandda Hammad ko'chasida, ikkinchisi esa, undan uncha uzoqda bo'lmagan Marvon hammomi edi<sup>106</sup>. Buxoroda Arslonxon Farjak darvozasi yaqinida hammom qurdirgani va uni o'zi barpo ettirgan madrasa foydasiga vaqf qilganligi ham ma'lum. Axsikentdan ham XI asrga oid hammom qoldiqlari topilgan. Hamomlar katta foyda keltirgan xususan, Aleppoda joylashgan hammomdan sulton yiliga 80 ming dirham foyda olgan. Qadimgi Xitoy tarixchisi Si Ma Syanning "Tarixiy xotiralar" (Shi Ji") asarida yozilishicha: "Davan Xan sulolasidan 10 ming li (Li qadimda taxminan 0,5 km ga teng bulgan, hozir esa —576 m. deb qabul qilingan) olisda bulib, xunnlarning g'arbi-janubiga, Xan (sulolasi) ning aynan g'arbiga to'g'ri keladi. Davanda shahar, qal'a, uy-joylari bor, katta-kichik 70 dan ortiq shaharlar bor ekan. Ularda 60 ming oila (300 ming odam) yashar ekan . Bu asarda ya'ni "Shi Ji"da Davanning ikkita poytaxti bo'lganligi, ularning biri Ershi bo'lsa, ikkinchisi Yu (Yuchen) ekanligi tilga olinadi. Bu ikki shaharning lokalizatsiyasi masalasida olimlar o'rtasida hozirgacha ilmiy munozara va bahslar davom etadi. O'zbekiston tarixining 1950

---

<sup>103</sup> Болшаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгач Бугра-хана в Самарканде // СНВ, вып. 10. М., 1971. С. 172.

<sup>104</sup> Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (Iх - XII вв.). У ч е н ы е з а п и с к и. С. 128.

<sup>105</sup> Шамсиддин Камалиддин, Мухайё Махмудова, Баходир Мусаметов. Два вакфа Тамгач Бугра-хана В Самарканде. Германия. 2012. С.24.

<sup>106</sup> Большаков О.Г. Город в конце VIII- начале XIII вв.// Средневековый город Средней Азии. - С. 309.

yilda chop etilgan nashrida Davan hukmdorining qarorgohi Gushan (Yu-chen)ni O‘zgan shahri bilan taqqoslanadi, Ershi esa, A.N.Bernshtamga asoslanib, Andijon viloyatining Marhamat tumanida joylashgan Mingtepa deb ko‘rsatiladi. O‘z davrida N.Ya.Bichurin Ershi Qo‘qon bulishi kerak, degan g‘oyani o‘rtaga tashlagan. Ershi shahrining lokalizatsiyasi masalasida A.N.Bernshtam tahlilining tarafdorlari ko‘proq. Ammo keyingi yillarda Ershining lokalizatsiyasi masalasida A.Anorboyev yangi g‘oya bilan chiqib, Ershi bu eski Axsikentdir, degan asosli xulosaga keldi<sup>107</sup>.

Qoraxoniylar davrida barpo etilgan madrasa va masjidlar va ularning faoliyati, Qoraxoniylar hukmdorlarining ilm-fan rivojiga katta ahamiyat berganliklarini va bu esa, hanafiy mazhabini Movarounnahr bo‘ylab tarqalishi asosiy sabablardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat, o‘z navbatida, Faxruddin O‘zjandiy yashab, ijod qilgan davrning ilmiy muhiti haqida tasavvur hosil qilishda alohida o‘rin egallaydi. Hanafiy mazhabining rivojiga hissa qo‘shgan Ubaydulloh ibn Umar Dabusiy (vaf.456/1063 y.), Halvoniy (vaf. 482/1089), Saraxsiy (400/483-1009/1090 yy.), Bazdaviy (vaf. 482/1089 y.), Umar Sadr Shahid (vaf. 536/1141 y.), Umar Nasafiy (vaf. 537/1142 y.), Ibn Moza Mahmud (vaf. 570/1174 y.), Alouddin Kosoniy (vaf. 546/1151 y.), Qozixon (vaf. 592/1196 y.) va Marg‘inoniy (vaf. 594/1197 y.) kabi faqihlarning Qoraxoniylar davrida etishib chiqqanligi va Movarounnahrdan bo‘lganliklari bu davrning hanafiy mazhabi rivoji va uning Movarounnahr bo‘ylab keng tarqalishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Qoraxoniylar davrida Samarqand, Saraxs va Buxoro kabi Movarounnahr shaharlari mustaqil ilm markazlari bo‘lib, u erlarda hanafiy mazhabining asoslari ishlab chiqilgan. Bu erda musulmon turkiy hukmdorlarining faqihlarga ko‘rsatgan iltifotlari ham katta ta’sirga ega bo‘lgan. Qoraxoniylar davrida yashab ijod etgan Movarounnahrlik faqihlar mujtahid faqihlar bo‘lgani sababli islom

---

<sup>107</sup> Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент. “Университети”-2007. Б-172

huquqi tarixida Qoraxoniylar davrini “mujtahid imomlar davri”ga kirgizish mumkin<sup>108</sup>.

Ko‘rib chiqilayotgan davrlarda Movarounnahrda ko‘plab buyuk mufassirlar, muhaddislar, mutakallim va faqihlar etishib chiqqan. Ular jahon sivilizatsiyasiga boy ilmiy-ma’naviy meroslari bilan ulkan hissa qo‘shganlar. Shunday allomalardan biri Farg‘onaning Lomish qishlog‘idan chiqqan yirik olim Mahmud ibn Zayd Lomishiydir. Yozma manbalarda keltirilishicha, Lomish qishlog‘idan bir qancha olimlar - Lomishiylar etishib chiqqan bo‘lib, ulardan ikkitasi ayniqsa, alohida shuhrat qozongan<sup>109</sup>. Ulardan biri Abu Sana Mahmud ibn Zayd Lomishiy bo‘lib, u Hanafiy mazhabi bo‘yicha yirik mutakallim va faqih sifatida tanilgan. Ikkinchisi esa, hadisshunos olim Husayn ibn Ali ibn Abulqosim Imoduddin Lomishiy deb atalib, u milodiy 1049 (hijriy 441) yilda Lomish qishlog‘ida tug‘ilgan va milodiy 1128 (hijriy 522) yilning ramazon oyida Samarqandda vafot etgan<sup>110</sup>. Imom Lomishiyning ilohiyat masalalariga bag‘ishlangan asari «kitob Tamxiyd li-qavo‘id tavhiyd» (“Tavhiyd (Allohning yagonaligi) qoidalariga doir qo‘llanma kitob”) deb atalib, uning titul varag‘ida muallif haqida «Imomu-l-alloma shayxu-l- islom Lomishiy» deb yozilgan. Qo‘lyozmalarining ikkinchisi esa, fiqh (islom qonunshunosligi) asoslari haqidagi «kitob fi usulu-l-fiqh» nomli asardir. Imom Lomishiyning topilgan qo‘lyozmalaridan biri «kitobu-t-tamhiyd li-qavo‘idu-t-tavhiyd» asari ahli sunna val jamoat aqidasi qonun-qoidalarini g‘oyatda ommabop va engil uslubda sharhlab tushuntirib bergan. Asarda o‘sha davrda mavjud bo‘lgan turli-tuman diniy toifalar va guruhlarqiyunlar, mujassamalar,

---

<sup>108</sup> Ikromov A. Faxriddin O‘zjandiy yashagan davrda Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat va ilm fan rivoji. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. - № S/2 (3)-2023. ISSN: 2181-1342 (Online) <https://scienceproblems.uz> - B. 17-25.

<sup>109</sup> Уватов У. Ал-Ломиший-Калом ва фикҳ илмининг алломаси. // Марғилон шаҳрининг жаҳон сивилизацияси тарихидаги ўрни. // Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. - Тошкент. “Фан” нашриёти. 2007. - Б. 155-157.

<sup>110</sup> Уватов У. Ал-Ломиший-Калом ва фикҳ илмининг алломаси. \\ Марғилон шаҳрининг жаҳон сивилизацияси тарихидаги ўрни. // Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. - Тошкент. - “Фан” нашриёти. 2007. - Б. 155.

daysoniylar, karromiylar va boshqalarga ta'rif berilgan hamda muallif ularning qarashlariga o'z munosabatini bildirgan<sup>111</sup>.

Mashhur olim Yoqut Hamaviy (1170-1221)ning «Mu'jam buldon» («Shaharlar qomusi») asarida ham Farg'onaning turli shahar va qishloqlarida yashab ijod qilgan, jami 18 nafar mashhur shaxs (faqihlar, muhaddislar, adiblar, sufiy shayxlar)lar haqida ma'lumotlar berib o'tildi<sup>112</sup>. Asarda muallif Hojib ibn Molik ibn Irkin Abu-l-Abbos Turkiy Farg'oni (muhaddis olim, hofiz. Olim tug'ilgan sana noma'lum bo'lib, Damashqda yashagan. 296/908 yil Asbahonda bo'lgan. Bag'dodda hadis aytgan. 306/918 yil Damashqda vafot etgan. Yoqut Doriqutniy (306/918-385/995)dan keltirib, «Unda [Farg'oniya] hech qanday yomonlik yo'q edi» deydi. «Mu'jam buldon»da olimning hadisshunoslikdan ta'lim olgan olti ustoz va shogirdlaridan besh nafari nomlari zikr qilingan. Ular qatorida mashhur hofiz, yo'lboshchi – imom Abu-l-Qosim Tabaroniy (260/873-360/970) nomi ham ko'rsatilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar imom Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy (kunyasi Abu Abdulloh) yashagan davrdagi ijtimoiy muhit, iqtisodiy, siyosiy va diniy vaziyatni imkon qadar ochib berishga xizmat qiladi. Bu esa, o'sha davr muhitida bunday olimlarning etishib chiqishiga sabab bo'lgan holatlarni anglash, muallif shaxsini turli rakurslardan o'rganish imkonini beradi. Allomalarning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, ularning yozgan asarlaridan salohiyati, yo'nalishi hamda asarining o'rganilishi va sharhlariga qarab tadqiqotchiga xulosa beradi. Jumladan, Husomuddin Axsikatiyning bizgacha ma'lum bo'lgan asarlarining barchasi usulu-l-fiqh ilmiga oid asarlar bo'lib, mazkur asarlar allomaning faqih ekanligining dalilidir. O'z davrida allomaga «Husomuddin» taxallusi berilganligi olimlikning yuksak darajasidaligi hamda o'z davridayoq xalq e'tirofida bo'lganligini taxmin qilishimiz mumkin. Zero, mazkur taxallus ilm yuqori bo'lgan faqihlarga berilgan.

---

<sup>111</sup> O'sha joyda.

<sup>112</sup> Бобожонов А. Ёқут Ал-Ҳамавийнинг «Му'жам Ал-Булдон» асарида Фарғона ва Фарғоналик олимлар. - Б.163.

## 2.2. Farg‘ona fiqh maktabi vakillari va ularning faoliyati

O‘rta asrlarda islom dini G‘arb va Sharqda ilmu fanning taraqqiy etishiga jiddiy turtki bergan. Bu bugungi kunda barcha millat va madaniyat vakillari tomonidan e’tirof etilgan<sup>113</sup>.

Boshqa ilm sohalari qatorida fiqh ilmi ham ildam sur‘atlar bilan rivojlanib borgan. Farg‘ona ilmiy markazlarida etishib chiqqan islom ulamolari merosining tahlili ham shundan darak beradi. Vodiyning turli shaharlaridan chiqqan qator allomalar keyinchalik islom ilmlari rivojida o‘ziga xos o‘rin tutdi. Ular musulmon dunyosining qaysi bir hududida faoliyat olib bormasinlar, Farg‘ona ilmiy maktabining o‘ziga xos an‘analarini davom ettirganlar.

O‘rta asrlarda Farg‘onaning poytaxt shaharlaridan biri bo‘lgan Axsikent vodiyning eng go‘zal va yirik ilmiy markazlaridan sanalgan. Bu hududda tug‘ilib voyaga etgan va shuhrat qozongan ilm ahllarining ayrimlari haqidagi ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tsak:

Ibrohim ibn Yusuf ibn Ahmad ibn Hamd ibn Abu-l-Fadl ibn Abdulloh Axsikatiy – manbalarda u faqih, muhaddis bo‘lish bilan bir qatorda, adib sifatida ham tilga olinadi. Hozircha uning ilmiy merosi haqida ma’lumotlar mavjud emas,. Axsikentda o‘sib ulg‘aygach, keyinchalik Samarqandda yashagan. Manbalarda alloma yuz yilga yaqin umr ko‘rganligi aytilsa-da, tug‘ilgan va vafot etgan sanasi haqida aniq ma’lumot keltirilmagan<sup>114</sup>.

Husayn ibn Abu Ba’li Abu Ali Axsikatiy Farg‘oniy – IX- XII asrlarda yashagan faqih Xaffof va boshqalardan hadis rivoyat qilgan. Nishopur tarixi asarida u Axsikatiy nisbasi bilan zikr qilingan<sup>115</sup>.

Abu Rashod Ahmad ibn Muhammad ibn Qosim Axsikatiy (406/1067-535/1140) – faqih, tilshunos, adib va tarixchi olim bo‘lgan. Uning ilmiy merosini «Tarixi Abu Rashod», «Zavoid»,

---

<sup>113</sup> Uott M. Vliyanie islama na srednevekovuyu Yevropu. – M.: Nauka, 1976. – S. 128.

<sup>114</sup> -1999 «نجم الدين عمر ابن أحمد النسفي. القند في ذكر علماء سمرقند. تهران». ص.62.

<sup>115</sup> Қозоқов Т., Воҳидов А., Рўзинов Б. Буюкларга бешик бўлган Ахсикент ёхуд Фарғона алломалари. – Тошкент: “Навруз” нашриёти. -2020. - Б.71.

«Divon she'r» asarlari tashkil qiladi. Olim ko'plab hadislar bilganligi va qator xurosonlik ulamolarga ustozlik qilgani haqida ma'lumotlar mavjud. Abu Sa'd Sam'oniylar ham uning shogirdlaridan biri bo'lgan<sup>116</sup>.

Farg'ona vodiysining o'rta asrlardagi yirik shaharlaridan bo'lgan Koson ham o'z ilmiy an'alariga ega markazlardan hisoblangan. Bu erdan etishib chiqqan allomalar soni vodiyning boshqa shaharlariga nisbatan kamroq bo'lsa-da, ular orasida o'zining yuksak iqtidori bilan fiqh ilmi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk faqih alloma Alouddin Kosoniyni zikr etish lozim. Abu Bakr ibn Mas'ud ibn Ahmad Alouddin Kosoniy (vaf. 585/1191 y.) – fiqh ilmining yirik vaqili, mashhur faqih Alouddin Muhammad Samarqandiyning shogirdi va uning «Tuhfatu-l-fuqaho» («Faqihlar tuhfasini») asariga «Badoe'-s-sanoe' fi tartibu-sh-sharoe'» («Shariat tartibida ajoyib san'atlar») nomli sharh bitgan<sup>117</sup>. Rum podshohining elchisi sifatida Halabga Nuriddin Mahmud huzuriga yuborilgan. U Damashqda hanafiylik mazhabi imomi sifatida ham faoliyat yuritgan. Allomaning rafiqasi Fotima binti Alouddin Muhammad (Alouddin Samarqandiyning qizi) ham olim bo'lib, fiqh ilmini mukammal egallagan bo'lib, manbalarning xabar berishicha, olim otasining «Tuhfat ul-Fuqaho» asarini yod olgan. Abu Bakr Alouddin Kosoniy va rafiqasi Suriyaning Halab shahridagi «Maqomi Halil» qabristonida dafn qilingan<sup>118</sup>.

Muhammad ibn Hasan Burhonuddin Kosoniy (vaf. XII asr) – faqih olim. Fiqh ilmining usul va furu' sohalarida mukammal ilmga ega bo'lgan. Zamondoshlari orasida ko'p hadis yod olganligi bilan ham tanilgan. U Najmuddin Umar Nasafiy va Abu-l-Yusr Bazdaviyning shogirdi bo'lgan. O'z navbatida Ashraf ibn Najib ibn Muhammad Abu-l-Fadl Kosoniy, Muhammad ibn Abdulkarim Turkistoniya ustozlik qilgan. Manbalar uning 576/1181 yili haj

---

<sup>116</sup> Бобожонов А. Ёқут Ал-Ҳамавийнинг «Му'жам Ал-Булдон» асарида Фарғона ва Фарғоналик олимлар. - Б.164.

<sup>117</sup> М. М. Komilov Movarounnahr fiqh ilmi rivojida Alouddin Samarqandiyning o'rni va «Tuhfat ul-fuqaho» asarining ahamiyati. t.f.n. il. daraj. olish uchun takdim etilgan diss. avtorefti. – Toshkent, 2000. – B. 14.

<sup>118</sup> Қозоқов Т., Воҳидов А., Рўзинов Б. Буюкларга бешик бўлган Ахсикент ёхуд Фарғона алломалари. – Тошкент: “Навруз” нашриёти. -2020. - Б.755-57

safari chogʻida Bagʻdodda boʻlganligini maʼlum qiladi. Samarqandda yashab ijod qilgan<sup>119</sup>.

Yana bir alloma Abu Nasr Ahmad ibn Sulaymon ibn Nasr ibn Hotim ibn Ali ibn Hasan Kosoniy boʻlib, Hoqon Abu Shujjoʻ Xadr ibn Ibrohim zamonida «Qozi Quzot» (Bosh qozi) lavozimini egallagan. Samarqandda hadis aytgan va ular Sikkat Muhtasibdagi uyida yozib borilgan. Undan Samarqandning imom-xatibi Abu-l-Maoliy Muhammad ibn Nasr ibn Mansur Madiniy hadis rivoyat qilgan, Hoqon Ahmad ibn Xadr davrida vazirlik mansabini egallagan. Biroq, alloma hoqonning hukmronlik davrining boshlanishida shahid boʻlgan<sup>120</sup>.

Margʻilonning oʻrta asrlarda islom ilmlari markazi sifatidagi shuhrati barchaga maʼlum. Bu erdan etishib chiqqan faqihlar, muhaddislar, mufasssirlarning ilmiy salohiyati nafaqat mintaq va Movarounnahr miqyosida, balki butun islom olamida eʼtirof etilgan. Fiqh ilmi taraqqiyotida oʻzining xos uslubi bilan alohida iz qoldirgan. Xususan, buyuk faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Fargʻoniy Rishtoniy Margʻinoniy 1123 yilda shu erda tugʻilgan va 1197 yilda Samarqandda vafot etgan. Burhonuddin Margʻinoniy dastlabki taʼlimni Margʻilonda olib, keyinchalik Movarounnahrning oʻsha davrdagi diniy va maʼrifiy markazi boʻlgan Samarqandga koʻchib borgan hamda umrining oxirigacha shu erda yashagan. Mavlono Burhonuddin Margʻinoniy yoshlik chogʻlaridanoq Qurʼoni Karimni yod olib, hadislarni chuqur oʻrgangan.

U balogʻat yoshiga etganida ham mukammal ilmga ega boʻlishiga qaramay, ustozlardan taʼlim olishni davom ettirdi. 1149 yili Burhonuddin Margʻinoniy haj safariga borgan. “kitob ul-mashoyix” (“Shayxlar haqidagi kitob”) asarida u oʻzi taʼlim olgan 40 dan ortiq shayx va allomani sanab oʻtgan. Bu roʻyxatda: Najmuddin Umar ibn Muhammad Nasafiy, Abul-Asir Bayzoviy, Abu Yoqub Sayariy, Abu Ishoq Navqadiy, Jaʼfar Hinduvoniyning nomlarini uchratish mumkin.

---

<sup>119</sup> نجم الدين عمر ابن أحمد النسفي. القند في ذكر علماء سمرقند. تهران. 1999. ص. 584.

<sup>120</sup> Oʻsha manba. – B. 284.

U Qur'on, hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh borasida chuqur ilmga ega bo'lgan va bu sohada asarlar yaratgan. Shu bois unga Burhonuddin (Islom dinining dalili) va Burhonuddin Marg'inoniy (Marg'inon – Marg'ilon shahrini o'rta asrlarda arablar Marg'inon deb atagandeb murojaat qilishgan.

Marg'inoniy "Fiqh" yo'nalishi bo'yicha: "Bidayatu-l mubtadiy", "Kifayatu-l muntahiy", "Nashru-l mazhab", "kitobu-l mazid", "Manosiku-l haj", "Mazid fi furu'u-l hanafiy", "Kitabu-l tajnis va-l mazid" kabi asarlar ta'lif etgan.

Burhoniddin Marg'inoniy "Bidayatu-l mubtadi" asarining kirish qismida: "Yoshligimda barcha masalalarni o'zida qamrab olgan fiqhiy to'plamni qo'lga kiritishni orzu qilardim. Bir safar Iroqda bo'lganimda "Muxtasaru-l Quduriy<sup>121</sup>" fiqhiga bag'ishlangan noyob asarga ega bo'ldim. Ilgari men o'sha davrning mashhur olimi Muhammad ibn Hasan Shayboniyning "Jome'u-s sag'ir" fiqhiy kitobiga qiziqib qolgandim. Keyin men bu ikki asarni birlashtirib, "Bidayatu-l mubtadiy" deb nomlangan asarni yaratmoqchi bo'ldim", deb yozadi. U bu kitobga sharh yozib, 8 jilddan iborat "Kifoyatu-l muntahiy"ni yozib tugatgan. Keyinchalik, Samarqandda 1178 yilda 57 ta bo'limdan tashkil topgan 4 jildli «Hidoya» asarini yaratgan. Asar islom fiqhshunosligining ma'lum bir sohalari tavsifiga bag'ishlagan. Unda huquqiy me'yorni qo'llab-quvvatlaydigan manba sifatida Muhammad (s.a.v), sahobalar va boshqa faqihlar, jumladan Movarounnahrlik safdoshlaridan ham dalillar keltirgan.

"Hidoya"ning ayrim sharhlovchilari va "Islom Qomusi" mualliflari tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'ndan ziyod mukammal fiqhiy asarlar Burhoniddin Marg'inoniy qalamiga mansubdir.

Burhoniddin Marg'inoniy asarlarini o'rganishda ikkita jihatga e'tibor qaratish zarur:

---

<sup>121</sup> Abul Husayn Ahmad ibn Muhammad Quduriy Bag'dodiy (972–1037) asari bo'lib, u hanafiy mazhabidagi fiqhiy matn kitoblari ichida eng e'tiborlisi va o'rni yuksagidir. Hoji Xalifa (1609–1657)ning aytishiga qaraganda, hanafiylikda "Kitob" deb fiqhiy manba aytilsa, ushbu asar nazarda tutilgan bo'ladi. U taniqli faqihlar orasida shuhrat qozongan, e'tibor topgan eng qulay matn kitobi hisoblanadi. Unda 12000 ta fiqhiy masala zikr qilingan. Qarang: <https://www.bukhari.uz/?p=9281>

Birinchiidan, uning asarlarida, xususan, “Hidoya”da bitilgan shariat ahkamlari avvalgi buyuk faqihlarning fikrlari, e’tiroz bilan adolat mezoni ustida yoritilgan. Unda kishining dunyoqarashi, fikr-mulohazasini o’tkiraydigan, masalaga adolat ko’zi bilan qarashga undaydigan yorqin dalil va hujjatlar oyat hamda hadislar misolida keltirilgan;

Ikkinchiidan, Burhoniddin Marg‘inoniyning fiqhiy qarashi musaffo Islom ta’limotining sunniylik aqidasi bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda turli xil ixtiloflarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Uning fiqhiy qarashlaridan o‘rin olgan “Ahli ilmlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat” (ularga itoat qilish), “Musulmonlar jamoasi bilan birga bo‘lish”, “Muhammad (s.a.v)ning ummatiga zid ish qilmaslik” kabi tamoyillarning ahamiyatini tasavvur qilish qiyin emas,. Imom Marg‘inoniyning fiqhiy asarini o‘qigan har bir kishining hayot yo‘li hidoyat ziyosi bilan munavvar bo‘lgan<sup>122</sup>.

Ali ibn Abdulaziz ibn Abdurrazzoq Zahiruddin Kabir Marg‘inoniy (vaf. 506/1113 y.) – zamonasining taniqli faqihlaridan biri bo‘lgan. Fiqh ilmini o‘z otasi Abdulaziz Marg‘inoniy, Sayyid ibn Shujjo‘, Muhammad ibn Ahmad ibn Hamza va Burhonuddin Kabir Abdulazizlardan olgan. Allomaning shogirdlari qatorida fiqh ilmida yuksak martabalarga erishgan o‘g‘li Abu-l-Mahosin Zahiruddin Hasan ibn Ali, Qivomuddin Ahmad ibn Abdurrashid va Tohir ibn Ahmad kabilarni zikr qilish mumkin. Olimning ilmiy merosi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q<sup>123</sup>.

Hasan ibn Ali Zahiruddin Kabir ibn Abdulaziz Marg‘inoniy (XII asr). Fiqh ilmida Zahiruddin Abu-l-Mahosin nomi bilan tanilgan. Bu zot faqih va muhaddis bo‘lib, shu ilmlarning mintaqada ravnaq topishi hamda tarqalishiga katta hissa qo‘shgan. Olim «kitob Aqdiya» (“Qozilik haqidagi kitob”), «kitob Shurut» (“Shartlar bayoni haqidagi kitob”), «kitob Fatovo» (“Fatvolar kitobi”), «kitob Favoid» (“Foydali narsalar haqidagi kitob”) va

---

<sup>122</sup> Қориев О. Фарғона фиқҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 85-86.

<sup>123</sup> نجم الدين عمر ابن أحمد النسفي. القند في ذكر علماء سمرقند. تهران. 1999. ص. 150-148.

boshqa asarlar muallifi bo‘lgan. Allomaga Shamsulaimma Mahmud O‘zgandiy, Zakiyuddin Xatib Mas‘ud ibn Xasan Kosoniylar ustozlik qilgan. Shogirdlari qatorida esa, Iftixoru-d-din Tohir, Zahiruddin Muhammad ibn Ahmad, Faxruddin Hasan ibn Mansur O‘zgandiy kabi taniqli faqihlarni keltirish mumkin. Allomaning oila a‘zolari ichidan ham ko‘plab islom olimlari etishib chiqqan<sup>124</sup>.

Habib ibn Umar Farg‘oniy fiqh ilmiga oid mo‘jaz asar muallifidir. Aqiliy o‘zining fiqhga oid «Manhaj» (Dastur) nomli asarida zikr qilishicha, Habib ibn Umarning yuqorida zikr etilgan fiqhiy asarini ko‘rgach, unga asoslanib, o‘z asaridagi xatolarni tuzatgan. Allomaning tug‘ilgan va vafot etgan sanasi hamda ilmiy merosi haqida ma’lumotlar keltirilmagan<sup>125</sup>.

Imoduddin ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Farg‘oniy Marg‘inoniy – «Hidoya» asari muallifining o‘g‘li va «Fusulu-l-Imadiyya» (“Imodiy fasllari”) asari muallifining otasi. Ilmni o‘z otasi va Zahiruddin Buxoriylardan olgan. «Odobu-l-qozi» (“Qozilar odobi”) nomli asar yozgan. Fatvo chiqara olish darajasidagi faqih bo‘lgan<sup>126</sup>.

Umar ibn Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Shayxu-l-islom Nizomuddin Farg‘oniy Marg‘inoniy «Hidoya» asari muallifining o‘g‘li hisoblanadi. Manbalarda olimning tavallud hamda vafot sanalari xususida ma’lumotlar uchramaydi. U, avvalo, ilmni o‘z otasi Burhonuddin Marg‘inoniydan olgan. Ilmiy merosini «Javahiru-l-Fiqh» (Fiqh ilmi javohirlari), «Favoid» (Foydali narsalar) va boshqa asarlar tashkil etadi. U o‘z davrining muftiylaridan bo‘lgan.

Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad Marg‘inoniy (vaf. 725/1326 y.) – fiqh bilan bir qatorda, turli ilmlarni o‘zida jam qilgan alloma. Manbalarda uning ustozlari haqida ma’lumotlar keltirilmagan. Ilmiy merosini esa, «Sharh Jome’ Kabir» (Katta

<sup>124</sup> نجم الدين عمر ابن أحمد النسفي. القند في ذكر علماء سمرقند. تهران. 1999. ص. 150-151.

<sup>125</sup> M<sup>U</sup><sub>2</sub><sup>U</sup><sub>3</sub><sup>G</sup>MN<sub>9J</sub><sup>DX</sup>/O<sub>2</sub> R<sub>52</sub><sup>’</sup>= H<sup>C</sup> 9JB7<sup>O</sup><sub>2</sub> +02D<sup>DO</sup><sub>2</sub> N<sub>GD</sub><sup>XLO</sup><sub>2</sub> H/O<sub>2</sub> +7<sup>5</sup> +<sup>T</sup>/S +3<sup>X</sup></O<sub>2</sub> D62 76-75MN°N1903

<sup>126</sup> Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 58-59.

to‘plam sharhi) va «Nazm Jome’ Sag‘ir» (Kichik to‘planning she‘riy matni) kabi asarlar tashkil qiladi<sup>127</sup>.

Abdulloh ibn Ali ibn Soin ibn Abduljalil ibn Xalil ibn Abu Bakr Farg‘oniy Abu Bakr ibn Abu-l-Hasan ibn Abu Bakr (551/1156-616/1220) – marg‘ilonlik yirik faqih. Samarqandda istiqomat qilib, imom xatiblik vazifasida bo‘lgan. 600/1204 yilda haj safaridan qaytib, Bag‘dodda yashagan. U erda: Abu Ahmad Amin, Abu Muhammad ibn Ahdar, Abu-l-Qosim ibn Hasin va Abu G‘olib ibn Banna, Abu Bakr Ansoriy va boshqalardan hadis eshitib, o‘z qo‘li bilan yozib borish bilan bir qatorda movarounnahrlik ulamolardan olib kelgan qirqaqa yaqin hadisni rivoyat qilgan. Alloma o‘z mazhabining yirik imomi, jadal, xilof va hadis ilmlari, tilshunoslik, nasr va nazm bobida tengi yo‘q bilimdon olim bo‘lgan. Manbalar uni xushsuratli, go‘zal axloqli, taqvodor va tavoze‘li inson bo‘lganligi haqida xabar beradi. Bu zot islom ilmlari qatorida, nazm va nasrda ham sermahsul ijod qilgan. Shunga qaramay, olim ilmiy merosi hali aniqlanib, tadqiq qilinmagan. Olim Buxoroda tutqinlikda vafot etgan<sup>128</sup>.

Abu Muhammad Umar ibn Ahmad ibn Abu-l-Hasan ibn Hasan G‘andabiy Marg‘inoniy (485/1092- 556/1161) – faqih, fozil inson bo‘lgan. Samarqandda istiqomat qilgan va Farg‘oniy nomi bilan tanilgan. G‘andab nisbasi Marg‘ilonning o‘rta asrlardagi mahallalaridan birining nomidan olingan. Samarqandda muftiylik qilgan. Alloma Faxruddin Qozixonning bobosi Qozi Mahmud O‘zgandiydan ta‘lim olgan. Manbalarda olim Abu Ja‘far Muhammad ibn Husayn Siminjoni (vaf. 504/1110 y.)ning ham shogirdi bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Sam‘oniy esa, olimning o‘zidan dars olganini xabar qiladi.

Ilmiy faoliyatini turli hududlarda olib borgan marg‘ilonlik allomalarning fiqh ilmi sohasidagi qarashlarida aynan Farg‘ona hududiga xos xususiyatga egaligi va buning chuqur ilmiy tahlili bu erdagi fiqh maktabining boshqa hududlardan farqlanib turuvchi

---

<sup>127</sup> نجم الدين عمر ابن أحمد النسفي. القند في ذكر علماء سمرقند. تهران. 1999 - ص. 322.

<sup>128</sup> Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 62-63

jihatlardan ekanligidan dalolatdir. Bu yoʻnalishdagi ilmiy izlanishlar olib borishda zikr etib oʻtilgan allomalarning ilmiy merosi beqiyos manba boʻlishi, shubhasiz.

Darhaqiqat, “Fargʻona” atamasi butun vodiya nisbat berilishi bilan bir qatorda, ayni shu nom bilan atalgan alohida shahar ham vodiya ilmiy hayotida oʻz oʻrniga ega boʻlgan. Albatta, aksar hollarda vodiyaning deyarli barcha shahar va qishloklarida tugʻilib voyaga etgan hamda ilmning turli sohalarida yuksak mavqega erishgan koʻplab allomalar oʻz ismlariga “Fargʻoniy” nisbasini qoʻshib aytishgan.

Abu-l-Muzaffar Mushtab ibn Muhammad ibn Usoma ibn Zayd ibn Nuʻmon ibn Muhammad ibn Sufyon Fargʻoniy (414/1024-486/1093) – faqih olim, ilmni tugʻilgan yurtida olib, xilof va jadal ilmlarida peshqadamlik darajasiga etgan. Isfahon, Buxoro va Ray shaharlarida hadis eshitgan. Bagʻdodda ham bir necha marotaba boʻlib hadis aytgan. Undan hadis eshitganlar orasida Mahmud ibn Masʻud Shaʻbiy Hanafiy ham bor. Abu-l-Barakot Hibatulloh ibn Muborak Saqtiy allomadan hadis rivoyat qilgan. Ibn Najjor allomaning Bagʻdodda vazir Nizomul-mulk qabulida boʻlgani, Bagʻdod imomlari bilan munozara qilganini xabar qilgan.

Xatib Abu Abdulloh Muhammad ibn Dovud ibn Ahmad ibn Rizvon Ilaqiy (vaf. 539/1144 y.) – faqih olim. U Fargʻonaning Iyloq deb nomlangan qishlogʻidan boʻlib, ilm izlab, Marv va Nishopurga safar qilgan. Manbalarda, bu olim shofeʻiy faqihlaridan deb zikr qilinadi. Ustozlari qatorida hadis ilmi sohasida Abu Abdulloh Muhammad Faroviy (440/1048-503/1109), tariqatda Hasan ibn Masʻud Faroviy, xilof ilmida Muhammad ibn Yahʻyo Jiziy kabi olimlarning ismlari zikr qilinadi<sup>129</sup>. Iloqiy vafoti oldidan Marvga kelib bir muddat Amoliy madrasasida Abu Saʻd Samʻoniy huzurida yashagan va Samʻoniy undan hadis tinglagani haqida maʼlumotlar bor<sup>130</sup>.

<sup>129</sup> Бобожонов А. Ёқут Ал-Ҳамавийнинг «Муʼжам Ал-Булдон» асарида Фарғона ва Фарғоналик олимлар. - Б.162.

<sup>130</sup> M<sup>U</sup><sub>2</sub><sup>÷3</sup> G<sup>MN</sup><sub>9J</sub> <sup>DX</sup>/<sub>2</sub> <sup>O</sup> <sup>R</sup><sub>52</sub> = H<sup>C</sup> <sup>9JB7</sup> <sup>O</sup><sub>2</sub> + <sup>DO</sup><sub>2</sub> <sup>NGD</sup> <sup>XLO</sup><sub>2</sub> H/<sub>2</sub> + <sup>7</sup><sup>5</sup> + <sup>T</sup>/<sup>S</sup> + <sup>3</sup> <sup>X</sup> < /<sub>2</sub> <sup>D62</sup>  
76-75MN°N1903

Abu Ali Husayn ibn Ali ibn Abu-l-Qosim Lomishiy Farg‘oniy (441/1049-522/1128) – faqih, xilof ilmining bilimdoni bo‘lgan. Farg‘onaning Lomish nomli qishlog‘ida tug‘ilib, Samarqandda vafot etgan. Olim Abu Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurrahim Hofiz. Qassordan hadis tinglagan<sup>131</sup>.

O‘zgand shahri vodiy ilmiy hayotida yuqori o‘rin tutganligi tarixiy manbalar hamda bu erdan etishib chiqqan allomalar ilmiy merosi tadqiqi jarayonida ham tasdiqlangan. Zero, hanafiy fiqhida uchinchi darajadagi mujtahid maqomiga ega bo‘lgan mashhur alloma Faxruddin Qozixon O‘zgandiy ayni shu shaharda tug‘ilib voyaga etgan va ilmda yuksak natijalarga erishgan. U kishining o‘zigina emas, balki ajdodlari va boshqa qator oila a‘zolari Farg‘ona fiqh maktabining shakllanishi va taraqqiyotida etakchi o‘rinlarda turgan. Ularning ilmiy merosi va faoliyatiga oid ma’lumotlar o‘rta asr manbalarida muayyan darajada zikr qilingan<sup>132</sup>.

Ali ibn Sulaymon ibn Dovud Hotibiy Abu-l-Hasan O‘zgandiy mashhur faqih, muhaddis va mufassir olim. Olimning ilmiy merosi va biografiyasi haqida ma’lumotlar yo‘q. «Mu’jam buldon» asarida uning 405/1014 yilda Hamadonga kelganligi haqidagi ma’lumot qayd etilgan. Mazkur manbada Yoqut Hamaviy olimning Abu Sa’d Abdulmalik ibn Abu Usmon Harkushiy (vaf. 406/1015 y.), Abu Abdurrahmon Muhammad ibn Husayn Sulamiy (vaf. 412/1021) kabi ustozlarini zikr qilgan.

Shamsu-l-aimma Mahmud ibn Abdulaziz O‘zgandiy. Zamonasining fozil kishilaridan bo‘lgan bu alloma xususida manbalarda ma’lumotlar kam. Asosan u kishi taniqli alloma, faqih Faxruddin Qozixonning bobosi bo‘lganliklari xabar qilinadi, xolos. Biroq, farzandlari va nabiralari yirik faqih allomalar bo‘lib etishganligi va bu zotning ismlari o‘rta asr tabaqot janridagi asarlarda keltirilishi Mahmud ibn Abdulazizning o‘zi ham ilm

---

<sup>131</sup> Бобожонов А. Ёқут Ал-Ҳамавийнинг «Му’жам Ал-Булдон» асарида Фарғона ва Фарғоналик олимлар. - Б.165

<sup>132</sup> Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 68-69

sohasida yuksak martabaga ega bo'lgan olimlardan bo'lgan deb xulosa qilishga asos beradi.

Hasan ibn Mansur ibn Mahmud Faxruddin Qozixon O'zgandiy Farg'oniy (vaf. 593/1197 y.), o'z davrida fiqh ilmining peshqadam allomalaridan bo'lgan. Ilmiy merosi «Mashhur fatvolar to'plami», «Voqeot» (Dalillar), «Amoliy» (Imlo qilingan), «Muhadara» (Ma'ruzalar), «Sharh uz-Ziyodot» (Ziyodot asari sharhi), «Sharh Jome' Sag'ir» (Kichik to'plam sharhi), «Sharh Odob Qozi» (Qozilar odobi asari sharhi) va boshqa asarlardan iborat.

Faxruddin Qozixon ustozlari Zahiruddin Hasan ibn Ali Marg'inoniy, Abdulaziz ibn Umar ibn Moza, Mahmud ibn Abdulaziz O'zgandiylardan ta'lim olgan. Allomaning shogirdlari qatorida Jamoluddin Abdulmahomid Mahmud Husayriy, Shamsulaimma Muhammad Kardariy va boshqalar bor.

Mas'ud ibn Mansur ibn Mursal O'shiy (vaf. 518/1125 y) – mashhur faqih. O'shda tug'ilib voyaga etgan va keyinchalik Samarqandda yashagan. Rabot Hamza madrasasida mudarrislik qilgan. Alloma ilmiy merosiga oid ma'lumotlar yo'q. Umar ibn Ahmad Nasafiyning xabar berishicha, olimning o'zi, ahli oilasi va farzandi – barchalari 518/1125 yili zul-hijja oyining o'rtalarida bir kunda vafot etishgan.

Muhammad ibn Ahmad ibn Xolid Abu Abdulloh O'shiy (vaf. 612/1216 y.) – faqih. Hozircha manbalardan alloma ilmiy merosiga aloqador bo'lgan bir asar «Manosik» (Marosimlar) haqida ma'lumot topilgan, xolos<sup>133</sup>. «Mu'jam Buldon» asarida O'sh shahridan chiqqan allomalar qatorida zikr qilingan. Buxoroda yashagan, 612/1216 yili haj safari davomida Bag'dodda bo'lgan. Haj ibodatini ado etgandan keyin bir yil o'tgach, 1216 yilning safar oyida vafot etgan.

Sirojiddin Abu Muhammad (ba'zi manbalarda Abulhasan<sup>134</sup> deb kelgan) Ali ibn Usmon O'shiy Farg'oniy, Taymiy, Shahidiy, Hanafiy Moturidiy bo'lib, tabaqot asarlarida Sirojiddin O'shiy

<sup>133</sup>Бобожонов А. Ёқут Ал-Ҳамавийнинг «Му'жам Ал-Булдон» асарида Фарғона ва Фарғоналик олимлар. - Б.167.

<sup>134</sup> Ali ibn Sulton Muhammad Qori Makkiy. Zov'ul ma'oliy fi sharhi Bad' amoliy. – Istanbul: Süleymaniye Ktp., Bağdatlı Vehbi, nr. 1791. – B. 2.; Ahmad ibn Umar Aboqandiy. Sharh bad' amoliy. – Istanbul: Süleymaniye Ktp., Fatih, nr. 1791. – B. 2.

«Imom», «Alloma», «Muhaqqiq», «Siroj Millat va din» laqablari bilan mashhur. Ali ibn Usmon O‘shiyning tug‘ilgan sanasi bilan bog‘liq ma‘lumotlar uchramaydi. Faqihning vafot etgan sanasi sifatida 575/1179 yil ko‘rsatilgan<sup>135</sup>. O‘shiyning tug‘ilgan joyi bilan bog‘liq aniq ma‘lumot mavjud bo‘lmasa ham, uning ismi hozirgi Qirg‘izistondagi O‘sh shahri nomidan olingan<sup>136</sup>. O‘shiy ilm olish maqsadida, Marg‘inon, Xo‘jand, Samarqand, Buxoro shaharlariga safar qilgan. U erdagi ustozlardan fiqh, hadis, kalom kabi ilmlardan ta‘lim olgan. Olimning hadis ilmi borasida: «Nisob axbor li tazkira axyor», «G‘urar axbor va durar ash‘or» va «Musnad Anas ibn Molik» asarlari, hanafiy fiqhiga oid – «Fatovo Sirojiya», «Javohir ahkom fi fiqh», «Muxtalif rivoya» asarlari va kalom ilmiga oid – «A‘moliy» yoki «Ba‘d amoliy» kabi asarlari mavjud.

Farg‘ona vodiysining Marg‘ilon, Farg‘ona, O‘zgan, Axsikat, O‘sh, Iyloq, Lomush kabi shahar va qishloqlaridan etishib chiqqan olimlar va ularning faoliyati islom ilmlari markazlaridan biriga aylanishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, mahalliy ulamolarning hanafiy fiqh ilmining usul va furu‘ sohalaridagi keng qamrovli faoliyati va ta‘lif etgan asarlari Farg‘ona vodiysida o‘ziga xos fiqh maktabining shakllanishiga olib keldi. Ular orasida Axsikat shahridan etishib chiqqan, Buxoro fiqh maktabida taxsil olib, hanafiy faqihlaridan biri sifatida tanilgan – Husomuddin Axsikatiy va uning ilmiy merosi alohida tadqiqotlarga jalb etilgan.

### **2.3. Husomuddin Axsikatiy ilmiy merosining hanafiy fiqhi rivojiga qo‘shgan hissasi.**

Allomaning to‘liq ismi – imom Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy bo‘lib, Abu Abdulloh kunyasi bilan mashhur bo‘lganligi, Husomuddin uning taxallusi hisoblanadi. O‘z davrida xalq e‘tiborida bo‘lgan shaxslar, shuningdek ilmning bir necha darajalarini egallagan olimlarga nisbatan Husomuddin iborasi ishlatilgan.

---

<sup>135</sup> Sebetov J. Ūṣīʿīnīn Fīkīh İlmindeki Yeri. – B. 6.

<sup>136</sup> Sirojuddin Abu Muhammad O‘shiy. Mavsua alam ulamo va udabo arab va muslimin. – Bayrut: 2007. – J 2. – B. 563.

Husomuddin Axsikatiy Farg‘ona vodiysining Axsikat shahrining buyuk ulamosidir.

Axsikatiy haqida yozilgan biografik asarlarda uning nasabi va taxallusi turlicha berilgan. Allomaga bag‘ishlangan aksariyat manbalarda uning nomi “z” (ya’ni Aksikaziy), boshqalarida esa, “t” (ya’ni Axsikatiy) usulida tilga olingan. Masalan, Yoqut Hamaviyning<sup>137</sup> “Mu’jam buldon” asarida “t” bilan, chunki “z” ajam (arabiy bo‘lmagan) alifbosi tarkibiga kirmaydi, deb izohlagan<sup>138</sup>.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan manbalarda olimning tug‘ilgan sanasi qayd etilmagan. Xususan, Husomuddin Axsikatiyning vafoti ayrim manbalarda 624/1227 yil<sup>139</sup> deya ko‘rsatilsa, ba’zilarida 644 yil Zulqa‘da oyining 23-kuni (1247 yil 1 aprel kuni) deya ta’kidlangan<sup>140</sup>.

Faqih Husomiddin Axsikatiy dushanba, 23 aprel (644 hijriy), ya’ni aprel oyining ikkinchi kuni (milodiy 1247 yil) vafot etgan va Kadikxon yaqinidagi Yetti qozilar qabristoniga dafn etilgan – degan taxminlar ham mavjud<sup>141</sup>.

Husomuddin Axsikatiy Buxoroning “Quzzatus sab’a” (“Yetti qozi”) nomli qabristoniga dafn qilinganligi haqida ma’lumotlarni quyidagicha keltirish mumkin: “Maqbaraning qibla tomonida Hojai Namadpo‘sh degan allomaning turbatiga qarab yurilganda, Mavlono Husomuddin Axsikatiyning turbati chiqadi, u Mavlono Shamsul-Aimma Kardariyning yaqinlaridan bo‘ladi. Mavlono Husomuddinning turbatini qibla tomonida esa, qozi Imom Faxruddinning nurafshon mozori bor. U Qozixon nomi bilan

---

<sup>137</sup> Brockelmann. History of the Arabic Literature. 1 vol. – Pp. 630, 479-480

<sup>138</sup> Yoqut Hamaviy. Mu’jam buldon. – Bayrut: 1374/1954.

<sup>139</sup> Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғинович. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 85-86.

<sup>140</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1. – B. 79a.

<sup>141</sup> Al-Qurayshi. Al-Jawahir al-Mudiyya. 3 vol, P. 334; al-A‘lam (Vol. 2, p. 224); Mu’jam al-Mu‘allifin (Vol. 1, p. 594) by Kahhala; History of the Arabic Literature, (Vol. 1, p. 376), S. (Vol.!, p. 643,644) by Brockelmann

mashhur bo‘lib, uning to‘liq ismi – imom Hasan ibn Mansur ibn mahmud ibn ab Aziz Marg‘inoniydir”<sup>142</sup>.

Demak, Husomuddin Axsikatiy Qozixon (592/1196)ning yoniga dafn etilgan. Bugungi kunda ushbu qabriston o‘rnida bir necha inshootlar qad rostlagan. Mahalliy axolining bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, qabriston o‘rniga katta avtoyo‘l tushishi va bir necha inshootlar qurilishi loyihasi tuzilgach, qabristondagi qabrlar ochilib, u erdan chiqqan suyaklar “Hazrati Imom” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Abul Hafs Kabir” qabristoniga ko‘chirib o‘tkazilgan va “Etti qozi” qabristoni o‘rnida “Dahmai behishtiyyon” (“jannatiylar makoni”) nomli ramziy maqbara qad rostlagan. Ushbu ramziy maqbara Buxoro shahrining “Labi hovuz” yaqinida joylashgan bir dona ramziy qabrdan iborat. “Dahmai behishtiyyon” maqbarasi qad rostlagan joyda ikki mingdan ortiq allomalarning qabri bo‘lgan. Shu bois uning hurmati yuzasidan shunday nomlangan. Bugungi kunda allomaning qabri qaerda degan savol tug‘iladi. Mahalliy axolidan olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, “Hazrati Imom” qabristoniga ko‘chirib o‘tkazilganligini inobatga olib, allomaning qabri “Hazrati Imom” nomi bilan mashhur “Abul Hafs Kabir” qabristonida deya taxmin qilish mumkin.

Ushbu qabriston hududiy jihatidan juda katta maydonni egallagan bo‘lib, Buxoro shahrini “Qubbat islom” shahriga aylantirgan faqih alloma Abu Hafs Ahmad ibn Hafs ibn Zibarqon ibn abdulloh ibn Bahr Kabir Ijliy Buxoriy Hanafiy nomlari sharafiga qo‘yilgan. Maqbara ostonasidan kirganda, chap devorda alloma haqidagi ma‘lumotlarni uchratish mumkin.

Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan manbalarda allomaning ustozlari haqida ma‘lumotlar uchramadi. Har bir davrda olim darajasiga etishish uchun inson bir ustoz bilan kifoyalanmaydi, chunki ilm bu igna bilan quduq qazishdir. Husomuddin Axsikatiyning ilm olish davrlari haqida biror ma‘lumotlar uchramasa-da, uning yozgan kitoblari haqida keltirilgan tabaqot asarlaridagi ma‘lumotlarda alloma juda ko‘p shayxlardan dars olgani va buyuk zotlar bilan zamondosh bo‘lib yashaganiga

---

<sup>142</sup> Ahmad ibn Mahmud Buxoriy. “Mu‘in Fuqaro” (“Tarixi mullozoda”) (Sh.Vohidov tarjimai ostida nashr qilingan). – B. 66.

ishoralar bor. Xususan, “Al-muntaxab al-Husomiy” asarini o‘sha davrning katta olimlaridan dars olib va ular bilan suhbatdosh bo‘lgan holda yozgani haqida juda ko‘p kitoblarda ma‘lumotlar kelgan. Husomuddin Axsikatiy garchi Farg‘ona vodiysining Axsikat shahrida tug‘ilgan bo‘lsada, ilm izlab bir necha shaharlarga borgan bo‘lishi kerak. Jumladan, o‘z davrida Basra va Shom shaharlari ilm rivojlangan markazlar hisoblangan.

Demak, Axsikatiy ham Basra va Shom shaharlariga ilm izlab sayohat qilgan va ilmiy tajribasini oshirish maqsadida Buxoroda faoliyat olib borgan, degan fikrni ilgari surish mumkin. Faqih Qozixon bilan bir davrda, bir makonda yashaganligi va bir qabristonga yonma-yon dafn etilganligi aynan Qozixonni o‘ziga ustoz deya qabul qilganligini taxmin qilish mumkin.

Albatta, Axsikatiyning ma‘naviy ustozlari sifatida Abu-l-Hafs Kabir va uning shogirdlarini, shuningdek Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy (vaf. 945y)<sup>143</sup>, Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Marvon Saraxsiy (vaf. 1047y)<sup>144</sup>, imom Faxrulislom Abul Hasan Ali ibn Muhammad ibn Husayn ibn Abdulkarim Bazdaviy (vaf. 1089y)<sup>145</sup>, imom Abu-l-Muin Maymun ibn Muhammad ibn Muhammad Makhul Nasafiy (vaf.1114y)<sup>146</sup> kabi olimlarni ham ko‘rsatish mumkin. Chunki alloma ushbu nomlari zikr qilingan allomalarning ilmiy merosini o‘rganganligi manbalardan ma‘lum.

Manbalarda Husomuddin Axsikatiy shogirdlari ko‘p bo‘lganligi keltiriladi. Ular orasida quyidagi allomalarning ismlari ham zikr qilingan:

---

<sup>143</sup> Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog‘ida tug‘ilgan. Abu Bakr Ahmad Jurjoniy fiqh ilmi bo‘yicha ustozlari hisoblanadi. Kalom yo‘nalishidagi olim hisoblansa-da, usul fiqh sohasida “Kitab jadal” (“Dialektika haqida kitob”) va “Kitab ma hazi shari’a” (“Shariat asoslari sarasi kitobi”) asarlarini yozgan.

<sup>144</sup> Olimning fiqh ilmiga oid “Tamhiy fusul fi usul” asari mavjud.

<sup>145</sup> Samarqandda ta‘lim olgan bo‘lib, Hanafiy mazhabining mashhur olimlaridan. “Kashf asror sharhi usuli Bazdaviy” asari usul fiqh ilmida eng mashhur sharh asarlardan biridir. Shuningdek, ikki jildli “Mabsut”, “Al-Jome’ kabir” va “Al-Jome’ sag‘iy”ning sharhlari Imom Bazdaviy qalamiga mansub

<sup>146</sup> Nasaf (qadimgi Qarshi) shahrida tug‘ilgan. Allomaning “Manor anvor” asari usul fiqh sohasida mashhur bo‘lib, 25 ta sharh yozilgan.

1. Faxriddin Muhammad ibn Umar ibn Muhammad ibn Ilyos<sup>147</sup> Maymirg'iy (tug'ilgan va vafoti sanasi noma'lum)<sup>148</sup>;

2. Abu Muzaffar Muhammad ibn Umar ibn Muhammad Navhoboziy Hanafiy<sup>149</sup>. Bu zot 616/1219 sanada tavallud topgan. Damashq shahriga borib, u erda dars bergan va shu erda 668/1270 yilda vafot etgan. Uning usulu-l-fiqhga oid "Kashf ibhom li rof' avhom" ("Vahmni ko'tarish uchun mubhamlikni ochish"), "Kashf asror" ("Sirlarni ochish") va "Talxis quduriy" ("Quduriyning qisqartmasi") nomli asarlari mavjud.

3. Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Umar Buxoriy Jaloliddin Iydiy. Bu zot buyuk muhaddislardan bo'lgan. Uning fors tilida bitilgan "Jome' ulum" ("Ilmlar majmui") nomli asari mavjud. U 668/1270 yilda vafot etgan<sup>150</sup>.

4. Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad Quboviy Hanafiy. Bu zot Marg'ilondan bo'lib, uning furu' ilmiga bag'ishlab "jome' Kabir" ("Katta jamlanma") va "Nazm jome' Sag'ir li-sh-shayboniy" ("Shayboniyning kichik jamlanmasi nazmi") nomli asarlari yozgan. Olim 730/1330 yilda vafot etgan<sup>151</sup>.

---

<sup>147</sup> O'zRFASHI qo'lyozmalar bo'limida saqlanayotgan №9003 raqamli "Muntaxab Husomiy" asariga yozilgan sharh asar allomaning shogirdi hisoblanmish Maymirg'iy tomonidan sharh qilingan deya taxmin qilishimiz mumkin. Chunki tavsifda Muhammad ibn Ilyos ismi qizil siyohda kelganligi, Maymirg'iyning ismi ham Muhammad ibn Umar ibn Muhammad ibn Ilyos Maymirg'iydir.

№9003 tahqiq Sharh muntaxab Axsikatiy

Basmaladan so'ng:

.....الحمد لله الذي مهد مباني الاسلام بالابيات الظاهرة و احكم قواعد الاحكام

2a sahifaning matni ichida محمد ابن محمد ismining tagiga chizilgan. Shu insonning sharhi bilan boshlanganligi xabari keltirilgan. Qo'lyozma 24 yo'ldan iborat bo'lib, har bir so'z kichik hajmda yozilgan. Kitob to'liq holatda etib kelgan. 280 varaqdan iborat.

Kolofon:

قال الامام كل من دخل منكم هذا الخص فله راس فدخل عشرة معا فلكل واحد منهم راس لان...

تمت بعون الملك الوهاب

<sup>148</sup> <https://tarajm.com/people/28110>

<sup>149</sup> Buxoro shahridagi qishloq nomi.

<sup>150</sup> Hoji Xalifa. Kashf zunun 'an asamiy kutub vfunun. – J. 2. – B. 1853.

<sup>151</sup> Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Al-javahir muziyya fi tabaqot hanafiyya. – Bayrut. 1993. – J. 3. – B. 349.

Hozirgi kunga qadar Husomuddin Axsikatiyning sanoqli asarlarigina etib kelgan. Ular quyidagilar:

1. “Muxtasar fi usulu-l-fiqh” (“Fiqh ilmi asoslari haqidagi qisqartma”). Asar “Muntaxab fi usul hanafiy” yoki “Muntaxabu-l-Husomiy” nomi bilan ham mashhur.

2. “Miftahu-l-usul” (“Fiqh ilmi asoslari kaliti”).

3 “G‘oyatu-t-tahqiq” (“Izlanish cho‘qqisi”). Asar “Tahqiq Husomiy” (“Husomiy dalillari”) degan nom bilan ham ataladi.

4. “Daqoiqu-l-usul va-t-tabyin” (“Manbalardagi aniqlik va anglatish”)<sup>152</sup>.

Yuqorida nomlari zikr qilingan asarlarning barchasi usulu-l-fiqh ilmiga oiddir. O‘zRFAShI qo‘lyozmalar bo‘limi Asosiy fondida №11458 raqami<sup>153</sup> ostida “G‘oyatu-t-tahqiq” (“Izlanish cho‘qqisi”) deb nomlangan asari saqlanmoqda. Ushbu asarni o‘rganish jarayonida quyidagi ma‘lumotlarga duch keldik:

1-a sahifasida كتاب التحقيق للشيخ الامام مقتدي الأمة العظام حسام الدين محمد ابن عمر الأسيكتي

1-b sahifasida: بسم الله الرحمن الرحيم اما بعد حمد لله

2-a sahifasida: .....علي نواله و الصلاة علي رسوله محمد و اله

أعلم ان الاصول جمع الأصل والفروع جمع الفرع و هو في اللغة ما يتمني عليه الشئ ثم نقل في العرف الي الراجح و القاعدة الكلية و الدليل و هو المراد ههنا و يمكن ان يحمل علي الاول و يراد الأخير بقرنته المقام و الشرع في الأصل بمعني الاظهار و هو بمعني الشارع فيكون المعني الأدلة التي نصهما الشارع كالعدل بمعني العادل و الاضافة يتعظم المضاف كيت ...و بمعني المشروع.

اي ادلة التي يثبت بها المشروعات فيكون المقصود من الاضافة تعظم المضاف اليه يمكن ان يجعل تعظم المضاف ...يفيدكونها اصولا ببعض الشرعيات.

Qo‘lyozma suls xatida chiroyli xusnixat bilan ko‘chirilgan bo‘lib, kotibi noma‘lum. Matn 3 yo‘ldan iborat bo‘lib, har bir qator

<sup>152</sup> Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a‘la Muntaxab. – Damashq: 1999. – B. 13.

<sup>153</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy “Kitab tahqiq” Varaq: 518 (1b-518B), satr: 3, o‘lchovi:20x15, xati:nasx, tili: arabiy, nuqsoni: yo‘q. Kolofon:

تمت الكتاب و الله اعلم بالصواب في الثالث عشر من شهر المبارك رمضان بخط بنده خاندان نبوى محمد موسى غفر الله له و لوالديه و احسن اليهما و اليه

orasida soʻzlarga izohlar berilgan. Muqovasi qattiq, och yashil rangda. Ilk sahifada mundarija keltirilgan (**Qarang: 6-ilova**)

Asar dastlab ملك عزيز البارودي Malik Aziz Barudiy kutubxonasi saqlanganligi 1<sup>a</sup> sahifada bayon qilingan. Har bir fasl qizil siyoh soʻzlar bilan ajratilgan. Shuningdek, Allohning nomi bilan kelgan soʻzlar ham qizil bilan koʻrsatilgan. Masalan: قول تعالي فسجد الملائكة

Kotib asarni 400-sahifasiga qadar raqamlagan. Qolgan sahifalarga raqamlar qoʻyilmagan. 261<sup>a</sup>-266<sup>b</sup> sahifalar ramkaga olinmagan. Ayrim varaqlar suv tegishi natijasida yopishib qolgan. Qolgan barcha sahifalar matni qizil ramkada keltirilgan. Ushbu asarning matni “Muntaxabu-l-Husomiy” asari matni bilan oʻxshash va maʼlumotlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxabu-l-Husomiy” asari boshqa usulu-l-fiqh oid asarlarning yozilishi va masalalarga yondashishi jihatdan quyidagi oʻziga xos uslublari bilan farqlanadi.

- Imom Axsikatiy fihiy qoidalarning aksariyatiga sabab keltiradi. Masalan, musofirga namozni qasr qilish ruxsati borasida bahs qiladi va buning sababini: *“Musofirga berilgan bu ruxsat, Alloh taolo tomonidan unga berilgan marhamatdir. Alloh taolo tomonidan berilgan bu marhamat namozni qasr qilishda namoyon boʻladi. Shunga koʻra, [musofirdan] namozni toʻliq oʻqish mutlaq soqit boʻladi. Chunki qasr bilan [nomozni] toʻliq qilishning oʻrtasida ixtiyorli boʻlish bandalikka toʻgʻri kelmaydi”* deb keltiradi<sup>154</sup>. Bunday hukmlarning sabablari asarning bir necha oʻrinlarida zikr qilinganligini kuzatish mumkin;

- muallif Usulu-l-fiqhga doir masalalarning har biriga muvofiq va xilof boʻlgan raylarni keltirib oʻtadi. Bunda avval hanafiy mazhabiga doir qarashlarani zikr qiladi va undan soʻng muxolif tarafning rayʼni keltiradi. Shu bilan birga, oʻzining dalillarini ham aytib oʻtadi. Baʼzi hollarda esa, dalilsiz raddiyalar ham beradi. Masalan, muallif majozning hukmida uning umumligi haqida soʻz yuritadi. Biroq, Imom Shofeʼiyning “Majoz umum

---

<sup>154</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. OʻzR FA ShI. Asosiy fond. Qoʻlyozma. №10718/1. – B. 15b.

bo‘lmaydi. Chunki majoz gapni kengroq ma’no ifoda etishi uchun qo‘llaniladi”, degan so‘zlariga raddiya tarzda, “Majoz Alloh taoloning kitobida bor. Alloh taolo esa, o‘jizlik va zaruratdan buyuk ekanini aytadi” deydi<sup>155</sup>. Bu esa, muallif o‘z mazhabidan tashqari boshqa mazhablarning dalillarini ham yaxshi bilishini ko‘rsatadi.

- Husomuddin Axsikatiy “Muntaxabu-l-Husomiy” asariga muqaddima yozmagan. Asar “*Amma ba’da hamdillahi... Shariatning asli uchtadir...*” jummalari bilan boshlanganligini quyida ko‘rishimiz mumkin:

اما بعد حمد الله على نواله، والصلوة على رسوله محمد وآله، فان اصول الشرع ثلاثة، الكتاب والسنة واجماع الامة. والاصل الرابع القياس المستنبط من هذه الاصول الثلاثة. اما الكتاب فالقرآن المنزل على الرسول، المكتوب في المصاحف المنقول عنه نقلا متواترا بلا شبهة. وهو النظم والمعنى جميعا في قول عامة العلماء، وهو الصحيح من مذهب ابي حنيفة رحمه الله الا أنه لم يجعل النظم لازما في حق جواز الصلوة خاصة. واقسام النظم والمعنى فيما يرجع الى معرفة احكام الشرع اربعة. الاول في وجوه /4a/ النظم صيغةً ولغةً .  
وهي اربعة الخاص وهو كل لفظ وضع لمعنى معلوم على الانفراد، وكل اسم وضع لمسمى معلوم على الانفراد.

Mazkur kirish qismida alloma ammo ba’ddan so‘ng matnni izohlab ketgani allomaning o‘zi haqida ma’lumot qoldirmaganidan dalolat.fhatt

Ba’zi ulamolarning fikriga ko‘ra alloma asarning muxtasar bo‘lishiga rag‘bat bildirgan va bu asarga alohida muqaddima yozmaslikka sabab bo‘lgan. Shu bois ko‘plab olimlar Husomuddin Axsikatiyni “Sohib Muxtasar”, ya’ni “Muxtasar sohibi” deb ataganlar. Jumladan, “Toj tarojum” (“Tarjimai hollar toji”), “Miftahu-s saodat” (“Saodat kaliti”), “Mu’jamu-l-mu’allifin” (“Mualliflar majmui”) va “favaidu-l bahiyya” (“Go‘zal foydalar”) kabi asar mualliflarini ular qatoriga kiritish mumkin;

- Muallif asarda keltirilgan iqtiboslarga nisbatan “ilmiy omonatdor” degan jumlaning qo‘llaydi va bu bilan iqtibos olinayotgan

<sup>155</sup> Nishanova D. Farg‘ona fiqh maktabida Husomuddin al-Axsikatiyning “Muntaxab al-Husomiy” asarining tutgan o‘rni //Markaziy Osiyoda islom madaniyati va san’ati: o‘tmish va hozirgi zamon. //“Buxoro-islom madaniyati poytaxti” nomli forumi doirasida o‘tkazilgan xalqaro konferensiya materiallari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. № 2.-Toshkent, 2020,- B. 170-171.

asar muallifini zamonaviy tartibda tushintirsak, “mualliflik huquqi”ni ham himoya qilib ketadi<sup>156</sup>. Shuningdek, Abu-l Hasan Karxiyning: “Qiyosga amal qilish imkoni bo‘lmagandagina sahobiyga taqlid qilish durust bo‘ladi”, degan so‘zlariga ham amal qiladi <sup>157</sup>.

Allomaning ilm olishi va qanday qilib eng yuqori ilmiy darajaga erishgani haqidagi ma’lumotlar manbalarda kam uchraydi. Biroq, munozara ostida ta’kidlash joizki, muallifning “Muntaxabu-l-Husomiy” asarini o‘rganish jarayonida muallifning zamonaviy olimlar bilan muloqotda bo‘lganligi, bolalikdan qiyinchiliklarni engib o‘tib, ilm-ma’rifatning eng yuqori cho‘qqilarini zabt etish darajasiga etganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Xoja Xalifa o‘zining “Kashf zunun”<sup>158</sup> asarida alloma Husomuddin Aksikatiyning “Muntaxabu-l-Husomiy” asari xususida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Mazkur asar keraksiz so‘z va iboralardan xoli bo‘lib, uning mundarijasi aniq va ravshan tafsilotlarni o‘z ichiga olgan”<sup>159</sup>.

Alloma mazkur asarni “Muntaxabu-l-Husomiy” deb nomlamagan va unga muqaddima ham yozmagan<sup>160</sup>. Buni muallif usulu-l-fiqhga oid asarlarining qisqartmasi shaklida (hozirgi kun nuqtai nazaridan qaraganimizda, konspekt yoki tezis) o‘zi va talabalar foydalanishi uchun tayyorlagan, deyishimiz mumkin. Shunday bo‘lsa-da, ayrim ulamolar mazkur asarni matn mazmuniga munosib keladigan turli nomlar bilan ataganlar. Ular quyidagilar:

1. “Muntaxab fi usul Mazhab” (“Mazhab usulida tanlangan”). Asarning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari va ba’zi manbalardagi iqtiboslari mazkur nom ostida saqlanadi<sup>161</sup>.

---

<sup>156</sup> Ahmad ibn Muhammad Nosir Abbos Avdiy. Tahqiq Muntaxab Husomiy. – B. 150-160.

<sup>157</sup> Nishanova D. “Muntaxab al-Husomiy” asarining dunyo xazinalarida saqlanishi //“Islom tafakkuri” – maxsus son. - Toshkent, 2020 yil. -B. 50-52.

<sup>158</sup> Brockelmann. History of the Arabic Literature. 2 vol. –P. 563.

<sup>159</sup> Xoja Xalifa. Kashf zunun. – J. 2. – B. 1848.

<sup>160</sup> Biz bu haqdagi fikrlarimizni 3.2. bo‘lim “Muntaxab Husomiy” asarining bayon uslubi qismida batafsil aytib o‘tganmiz.

<sup>161</sup> Hoji Xalifa. Kashf zunun ‘an asamiy kutub vfunun. – J. 2. – B. 1848.

2. “Muxtasar fi Usulu-l-fiqh” (“Usulu-l-fiqhdagi qisqartma”). Asarning bu nomi, asosan dunyoning ko‘plab qo‘lyozma fondlarida uchraydi. Xususan, Imom Laknaviy asarni “Muxtasar fi usulil fiqh Ma’ruf bil Muntaxabu-l-Husomiy” (“Muntaxabu-l-Husomiy nomi bilan tanilgan usulu-l-fiqhdagi qisqartma”), deb keltiradi<sup>162</sup>.

3. “Muxtasar” (“Qisqartma”). Ayrim ulamolar jumladan, Abdulqodir ibn Muhammad Ibn Abul Vafo Qurashiy (vaf. 775/1373 y.) “Husomuddin “Muxtasar”ning sohibidir”, desa, Hofiz Zaynuddin Qosim ibn Qutlubg‘o (vaf. 879/1474 g.): “Husomuddin Axsikatiyning usulu-l-fiqhda “Muxtasar” nomli kitobi bor”, deb ta’kidlaydi<sup>163</sup>.

4. “Muntaxab”. Mavloni Ahmad ibn Mustafu Toshko‘prizoda (901-968/1495-1561) ning keltirishicha, Axsikatiyning “Muntaxab” nomli kitobi mavjud bo‘lgan<sup>164</sup>.

5. “Husomiy”. Karl Brokkelman Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxab fi usul Mazhab” nomli kitobi borligiga ishora qiladi va u “Husomiy” nomi bilan mashhur bo‘lganligini aytib o‘tadi<sup>165</sup>.

6. “Usulu-l-fiqh li Muhammad Husomuddin Axsikatiy”. Ba’zi qo‘lyozma fondlarida kitobning jildiga muqovasozlar tomonidan “Usulu-l-fiqh li Muhammad Husomuddin Axsikatiy”, deb yozib ketilgan.

7. “Axsikatiy fi usulu-l-fiqh” (“Usulu-l-fiqhda Axsikatiy”). Bu nom asarning ba’zi nusxalarining g‘ilofiga kichik (xafiy) xatda yozilgan. Boshqa nusxalarida esa, “Axsikatiy fi-l-usul”, deb bitilgan.

8. “Muntaxabu-l-Husomiy”. Asar ushbu nom bilan ulamolar o‘rtasida mashhur bo‘lgan. Xususan, Xayriddin Zirikliy (1893-1976)<sup>166</sup> o‘zining “a’lam” (“Buyuk olimlar”) kitobida va Umar Rizo Kahholaning (1905-1987) “Mu’jam Muallifin” (“Mulliflar to‘plami”) asarida shunday nom bilan tilga olinadi.

---

<sup>162</sup> Muhammad Abdulhay Laknaviy. Favoid bahiyya fi tarojum hanafiyya. – B. 188.

<sup>163</sup> Yusuf Ilyan Sarkis. Mu’jam matbu’ot arabiyya muarriba. – Qohira: Dor kutub olam, 1997. – J.1. – B. 406.

<sup>164</sup> Ahmad ibn Mustafu Toshkupriyoda. Miftah Saoda. – Bayrut: Dor kutub ilmiya, 1995. – J 2. – B. 170.

<sup>165</sup> Karl Brokkelman. Tarix adab arabiy. – Misr: Dor irfon, 1993. – B. 718.

<sup>166</sup> www.maktabaalmeshkat.net Xayriddin Zirikliy. Al-A’Hoxilom. T.1.—B. 248.

Shuningdek, “Muntaxabu-l-Husomiy”ga “Tahqiq” nomi ostida sharh yozgan mualliflardan biri Abdulaziz ibn Ahmad Buxoriy (vaf. 730/1329 y.) ham yuksak baho beradi va “Bu asar o‘zining go‘zal tartibi, chiroyli uslubi, ortiqchalikdan xoli ekani bilan o‘z bobida barcha muxtasar kitoblardan ustun hisoblanadi. Shuning uchun ham bu asar yaqinu uzoqdagi, sharqu g‘arbdagi barcha musulmon olamiga etib borib keng tarqalgan”, deb ta’kidlaydi<sup>167</sup>.

Ulamolar nazdida “mashhur”, “ma’ruf” va “mo‘tabar” degan istilohlar ayrim kitoblarga nisbatdangina qo‘llanilgan. Shu bois, Imom Husomuddin Axsikatiyning asari ulamolar nazdida yuqori o‘rinda turadigan mo‘tabar kitoblardan sanalgan va u yozilishi, tuzilishi, masalalarni qo‘yilishi jihatdan ham boshqa manbalardan farqlangan<sup>168</sup>.

Alloma ilmiy merosi haqida boshqa bir qator manbalarda ham ma’lumotlar uchraydi<sup>169</sup>. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar “Muntaxabu-l-Husomiy” asarini ulamolar, talabalar va tadqiqotchilar orasida mashhur bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida, Axsikatiyning asarlarining ichida usulu-l-fiqhni o‘rganishda tanlangan va qisqa ma’lumotlardan iborat asar “Muntaxabu-l-Husomiy”dir. Ulamoning bu asari manbalarda turli nomlar bilan qayd etilgan, jumladan, “Muntaxab fi usulu-l-hanafiy”, “Muxtasaru-l-Husomiy” (“Husomiy qisqartmalari”), “Muntaxabu-l-Axsikatiy” kabi nomlari bilan ham mashhur. O‘zRFASHI qo‘lyozmalar bo‘limida №2674, №4944/I, №8396, №8857, 10718/I tartib raqamlari ostida saqlanayotgan asarning nusxalari dunyoning ko‘plab qo‘lyozma fondlarida ham mavjud.

Ushbu asarga bir qancha sharhlar yozilgan. Ulardan Amir Kotib Itqoniyning (vaf. 1357 y.) “Tabyin” (“Anglatish”), Abdulaziz Buxoriyning “Tahqiq” (“Izlanish”), imom Husomuddin Husayn ibn Ali ibn Hajjoj Sig‘anoqiyning (vaf. 1312 y.) “Vafiy” (“Mukammal”) va Hofiziddin Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy (vaf. 1311 y.) tomonidan yozilgan sharhlarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

<sup>167</sup> Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a’la Muntaxab. – Damashq, 1999. – B. 18-22

<sup>168</sup> Xoja Xalifa. Kashf zunun. – J. – B. 1849.

<sup>169</sup> Qarang: Abdulhay Laknaviy. Al-Favoid bahiya. – Qohira, Saada, 1324/1906. – B. 188.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan olimning "Muntaxabu-l-Husomiy" asari bugungi kunga qadar islom bilim yurtlarida usulu-l-fiqh ilmi bo'yicha darslik sifatida o'qitilishi, unga o'z davri va keyingi asr ulamolari tomonidan takror-takror murojaat etilishi, sharh va izohlar yozilishi mazkur asarning hanafiy usulu-l-fiqh ilmida o'ziga xos mumtoz manbalardan biri bo'lgan, deb xulosa qilishga asos bo'ladi. Chunki mazkur asarning sharhlari boshqa asarlarning sharhiga nisbatan ko'pligi asarning har bir davrda mashhurligini bildiradi

Xulosa qilinganda, IX-XIII asr boshlarida Movarounnahr va Farg'ona hududlari Somoniylar, Qoraxoniylar, Qoraxitoylar sulolalari tomonidan boshqarildi. Husomuddin Axsikatiy yashagan davr ko'proq Qoraxoniylar hukmronligiga to'g'ri keladi. Bu davrda Qarluq, Chigil, Yag'mo kabi turkiy qabilalar ko'chmanchi, o'troq, yarim o'troq shaklda yashagan va ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, Qoraxoniylar tomonidan turkiy qabilalarni birlashtirish va markazlashtirish siyosati olib borilganligi hamda bunda islom dinining hanafiylik yo'nalishidan unumli foydalanilgani ahamiyatlidir.

Somoniylar tomonidan diniy va dunyoviy ilmlarning rivojlantirishga bo'lgan rag'bat nafaqat Buxoro, Samarqand, Marv kabi yirik shaharlarda balki Farg'ona vodiysining Axsikat, O'sh, O'zgan, Marg'ilon kabi shaharlaridan ham islom ilmlarini o'rganishga turtki berdi. Ayniqsa, hanafiy mazhabining rivojiga hissa qo'shgan Ubaydulloh ibn Umar Dabusiy, Halvoniy, Saraxsiy, Bazdaviy, Umar Sadru-sh-Shahid, Umar Nasafiy, Ibn Moza Mahmud, Alouddin Kosoniy, Qozixon va Marg'inoniy kabi faqihlar Qoraxoniylar davrida yashab faoliyat yuritdi. Ular musulmon dunyosining qaysi bir huduida faoliyat olib bormasinlar, Farg'ona ilmiy maktabining o'ziga xos an'alarini davom ettirdilar. Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy ham mazkur ilmiy maktab vakillaridan bo'lib, o'z davrining faqih ulamolaridan sanalgan. Olim mujtahidlarning uchinchi tabaqasi, ya'ni mazhabdagi tarjih sohiblari toifasiga kiruvchi olimlardan hisoblangan. Axsikatiyning "Muxtasar fi usulu-

l-fiqh” (“Fiqh ilmi asoslari haqidagi qisqartma”, yana bu asar “Muntaxab fi usul hanafiy” yoki “Muntaxabu-l-Husomiy” nomi bilan ham mashhur), “Miftahu-l-usul” (“Fiqh ilmi asoslari kaliti”), “G‘oyatu-t-tahqiq (“Izlanish cho‘qqisi”) va “Daqiq usul vTabyin” (“Manbalardagi aniqlik va anglatish”) kabi asarlari etib kelgan. Hozirgi kunda Hindiston va Pokistonning barcha madrasalarida avvalo “Usulu-sh-Shoshiy”, “Nuru-l-Anvor”, “Muntaxabu-l-Husomiy” asarlarining o‘qitilayotgani va bu qat’iy o‘zgarmas dasturiy tarzdagi ta’lim rejasiga kiritilganligi “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining usulu-l-fiqh sohasida yuksak o‘ringa ega ekanligini bildiradi.

### **III BOB. HUSOMUDDIN AL-AXSIKATIYNING “MUNTAXABU- L-HUSOMIY” ASARI USULU-L-FIQH ILMIGA OID MUHIM MANBA**

#### **3.1 Asarning qo‘lyozma nusxalari kodikologik tahlili**

Husomuddin Axsikatiyga tegishli asarlar bugungi kunda nafaqat respublikamiz balki dunyoning ko‘plab qo‘lyozma fondlarida saqlanmoqda. Xususan, tadqiqotni amalga oshirish jarayonida asarning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (keyingi o‘rinlarda O‘zRFAShI)ning qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan nusxalari tahlil qilindi. Ma’lumki, O‘zRFAShIda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga oid minglab qo‘lyozma asarlar saqlanadi. Xususan, Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxabu-l-Husomiy” asarini ham ana shunday manbalar qatoriga kiritish mumkin. Mazkur asarning turli davrlarda ko‘chirilgan №2674, №4944/I, №8396, №8857, 10718/I inventar raqamlari ostida 5ta qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. Qo‘lyozmalar yaxshi saqlangan.

Mazkur asarning №2674 inventar raqamli nusxasida ko‘chirilgan yili ko‘rsatilmagan. Sahifaning boshida asar nomi keltirilgan. Asar nasx xatining suls uslubida ko‘chirilgan. Varaqlar soni 312 tani tashkil etadi. Varaqlar bichimi esa, 22,5x13,5 sm, asosiy matn 3 satrdan iborat, qog‘ozi sharq qog‘ozi bo‘lib, kotib nomi “Homiy” deb keltirilgan. Asosiy matnning atrofiga va ayrim so‘zlar orasiga 5 satrdan iborat sharhlar bitilgan. Qo‘lyozma arab tilida. kitobning avvalgi sahifasiga “Abdurahmon ibn Qozi Tulak” muhri bosilgan. Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxab” asarining matni yirik yozuvlar bilan nasx xatida keltirilib, homiyning sharhi esa, suls shaklli nasta’liq xatida berilgan. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan. Sahifalar yirtilmagan. Muqovasi qora rangda. Basmaladan so‘ng:

[.....] اما بعد حمدا لله على نواله والصلوة على رسوله محمد و آله

“..Ammo ba’d, Allohga bergan ne’matiga hamd, U Zotning Rasuli Muhammad va oila a’zolariga salavot bo‘lsin...” degan so‘zlar yozilgan.

Matn oxiri yo‘q. Avvalgi 10 sahifada matn qizil jadvalga olingan.

Shuningdek, №4944/I inventar raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozmasi 726/1325 yil ko‘chirilgan. Sahifalar shikastlangan bo‘lib, chetlari yirtilgan. Qo‘lyozmaning matni avval keltirilgan qo‘lyozmaning matni bilan bir xil. Varaqlar bichimi 17,5x13 bo‘lib, 49 sahifadan iborat. Matn 13 satr qilib joylashtirilgan. Qog‘ozi sharq qog‘ozi bo‘lib, kitobning avvalgi sahifalari yo‘qolgan, matn nim nasx xatida berilgan.

Kolofonga:

[ الفقير العبد الضعيف الحيف الخاطي الحافي مدعمرخان اسود محمد جعفر محمد  
الحسني الخاطي الحافي المدعومرهان الوانكنوي غفر الله له و والده و احسن اليها و اليه  
و لجميع المؤمنين و المؤمنات و

[.المسلمين و المسلمات اللهم .... علما .... آمين رب العالمين]

“Faqir, zaif, yalangoyoq, gunohkor banda Madumarxon Asvad Muhammad Ja’far Muhammad Hasaniy xatokor, yalangoyoq Madumarxon Vonkanaviy, Alloh uni va otasini mag‘firat etsin, ularga, barcha mo‘min-mo‘mina, muslim-muslimalarga yaxshilik ato etsin. Allohim... ilm (ber)... omiyn, ey olamlar Parvardigori” so‘zlari yozilgan.

Kolofondan ma’lumki, ushbu qo‘lyozmaning ko‘chiruvchisi Ma’d Umarxon Asvad Muhammad Husayniydir. Qo‘lyozmaning bir necha joyiga muhr bosilgan. Muhrda “Muhammad Porso vaqfxonasi” nomi keltirilgan. Ushbu qo‘lyozma O‘zRFAShIda saqlanayotgan asarning eng qadimiysi hisoblanadi.

№8396 inventar raqami ostida saqlanayotgan asar qo‘lyozmasi o‘lchovi: 24x15, hajmi: 110 varaq bo‘lib, satri: 9 yo‘ldan iborat. Qog‘ozi sharq qog‘ozi bo‘lib, arab tilida, nasx xatida yozilgan.

Boshi:

اما بعد حمدا لله على نواله والصلوة على رسوله محمد و آله فان اصول

“Ammo ba’d, Allohga bergan ne’matiga hamd, U Zotning Rasuli Muhammad va oila a’zolariga salavot bo‘lsin...”.

Oxiri:

و معنى الافراد ان ... كل مسمى بانفراده كان ليس ... غيره تمام شد كتاب حسامى  
تم

“Albatta, har bir insonning asoslari va ma’nosi bor.. Har bir musammo (nomlangan narsa) ... bo‘lmagan... undan boshqasi. kitobi Husomiy nihoyasiga etdi”. kitob sharq qog‘ozida bitilgan.

№8857 inventar raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozmaning yozilgan yoki ko‘chirilgan sanasi ko‘rsatilmagan. O‘lchovi 19,5x12,5, hajmi: 143 varaq. Satri 3 yo‘ldan iborat. Qog‘ozi sharq qog‘ozi bo‘lib, arab tilida nasta‘liq xatida yozilgan. Oxirgi sahifalari yo‘qolgan.

Boshi:

اما بعد حمدا لله تعالى على نواله والصلوة على رسوله محمد و آله فان اصول  
الشرع ثلاثة

“Allohga bergan ne‘matiga hamd, U Zotning Rasuli Muhammad va oila a‘zolariga salavot bo‘lsin... Albatta, shariat asoslari uchta”

Oxiri:

و اذا اصلح للوقت و الشرط والسواء عند الكوفيين و هو قول ابي حنيفة رحمه الله  
و عند البصريين و هو قولهما و هي للوقت و يجازى

“Agar kufaliklar nazdida vaqt, shart va tenglik to‘g‘ri bo‘lsa va u Abu Hanifa rohimahullohning so‘zidir. Basraliklar nazdida u ikkisining so‘zidir, u vaqt uchun va to‘lab beriladi”. Hoshiyaga bitilgan sharhlar 1b-45b, 53a-96a sahifalarda uchraydi. Oradagi sahifalarda sharh keltirilmagan.

Shuningdek, asarning 10718/I inventar raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozmasi varaqlar bichimi: 17,5x13 bo‘lib, 49 sahifadan iborat. Matn: 13 satrdan iborat. Hajmi: 76 varaq (1a-76a), satri: 13 yo‘ldan iborat bo‘lib, o‘lchovi 25x14. Arab tilida, nasta‘liq xatida sharq qog‘ozida yozilgan.

Ko‘chiruvchisi: Mavlono Abdushukur Muhammad Sharif Buxoriy. Ko‘chirilgan sana: 1310/1893 yil deya ko‘rsatilgan. Muqovasida muhr mavjud. Muhrda sahhofning ismi Mir Odilxo‘ja sahhof deya keltirilgan. kitobning nuqsoni yo‘q. Hatto kolofoni ham mavjud.

Boshi:

حمدا لله على نواله و الصلوة على رسوله محمد و آله فان اصول الشرع ثلاثة  
الكتاب والسنة و اجماع

(“Shariat asoslari uchta: kitob, sunnat va ijmo”)

Oxiri:

و معنى الافراد ان يعتبر كل مسمي بانفراده كان ليس معه غيره الحمد لله <sup>170</sup> الافراد على الاتمام

“Shaxslar va shaxslar ma’nosi har bir nomlangan narsaning yakkaligi bilan e’tiborga olinadi, u bilan boshqasi bo’lmaydi. Oxiriga etgani uchun Allohga hamd bo’lsin”.

Kolofon:

قد تمت الكتابة بعون الملك اللطيف من يد ابن استاذ العلماء قاضي مولانا عبد الشكور صدر محمد شريف البخاري

“Lutf-marhamatli Podshoh (Alloh taolo) yordami bilan ulamolar ustozlari o’g’li mavlono Abdushshakur Sadr Muhammad Sharif Buxoriy qo’lida (kitobni) yozish nihoyasiga etdi”. Ushbu nusxa nodir hisoblanib, xattot qo’lyozmaga qizil ranglarda bezaklar bilan urg’u bergan va uni san’at asari darajasida ko’chirgan.

Bugungi kunda “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining xoriydagi qo’lyozma manbalar fondlarida nusxalari saqlanib kelmoqda. Xususan ular quyidagilar:

Turkiyaning qo’lyozma fondlarida jami 68ta qo’lyozma nusxasi mavjud. Xususan, Sulaymoniya kutubxonasida – 28 ta (№143472, №358365, №355238, №274722, №634036, №659399, №272972, №202276, №200149, №298387, №357982, №239136, №208079, №378868, №378840, №327864, №310027, №225744, №225743, №320335, №313626, №270107, №265932, №284335, №284337, №232131), Boyazid kutubxonasida – 7 ta (№564774, №565038, №565037, №565034, №543236, №543235, №576342), Milliy kutubxonada 6ta, Amasya Boyazid kutubxonasida – 5ta (№388323, №387149, №386382, №386522, №387326), Topkapi Saroyi kutubxonasida 4ta (№552070, №552046, №551690, №560499), Edirne Selimiya kutubxonasida – 3ta (№433203, №430898, №430809), Manisa kutubxonasida – 3ta (№97934, №101024, №97881), Kutahya Vahid Pasha kutubxonasida – 2ta (№519073, №519149), Chorum Hasan Pasha kutubxonasida 2ta (№125934, №128796), Atif Afandi kutubxonasida 1ta (№373643), Diyorbakir kutubxonasida 1ta(423668), Kastamonu qo’lyozma asarlar kutubxonasida 1ta(№457841), Konya qo’lyozmalar fondida

---

<sup>170</sup> Fard, yolgiz, bitta boshqa biron so’z bilan aloqasi bo’lmagan bittasi, yolg’iz so’zga deb ham ataladi.

1ta (№81511), Ko‘prulu kutubxonasi 1ta (№362627)dan nusxa saqlanmoqda. Mazkur kutubxonalardagi qo‘lyozmalar Milliy kutubxona qo‘lyozmalari, Murod Buhari, Nafiz Pasha, Nevshuhir Damad Ibrohim Pasha, Nuru usmoniya, Pertevniyal, Rashid Afandi, Samsun il xalq kutubxonasi, Sulaymoniya, Yangi jami, Yozgat, Yusuf Og‘a, Chorlulu Ali Pasha, Shehid Ali Pasha kolleksiyalari ostiga kiritilgan. Muntaxabu-l-Husomiy” asari el-Mъntehab fo Usъili’l-Mezheb. / المذهب المنتخب في أصول nomi bilan elektron katalogga kiritilgan <sup>171</sup>.

Sulaymoniya kutubxonasi Sulaymoniya fondida 00372-001 [ Digər risaleler ] bo‘limida 143472 inventar raqamli nusxasi 770 yil 3-rajab/ 1369 yil 11- fevral sanada ko‘chirilgan. Sahifaning boshida asar nomi keltirilgan. Asar nasx xatida ko‘chirilgan.. Varaqlar bichimi esa, 28,5x17,5-15,2x8 sm, asosiy matn 23 satrdan iborat. Muqovasi teridan ishlangan qora rangda. Ba’zi sahifa chetlarida asar matnining mazmuniga tegishli tuzatishlar mavjud. 19a-sahifada o‘zlashtirish yozuvi mavjud, ammo keyinchalik ism o‘chirilgan. Muhri: 1b, 2a, 12b, 17b, 18a sahifalarida bosilgan. Basmaladan so‘ng:

بسم الله... رب تمم بالخير أما بعد حمد الله على نواله والصلاة على رسوله محمد [ وآله فإن أصول الشرع ثلاثة الكتاب والسنة وإجماع الأمة والأصل الرابع القياس المستنبط... من هذه الأصول أما الكتاب فالقرآن المنزل على الرسول

“..Alloh nomi bilan... yaxshilikka erishgan Robb. Alloh taoloning muvaffaqiyati va Rasuli Muhammad va u zotning oilasiga salovot aytishga kelsak, shariatning uchta asosi Qur’on, Sunnat va ijmodir. millatning, to‘rtinchi asos esa, bu asoslardan kelib chiqqan qiyosdir. kitobga kelsak, u Rasulullohga nozil qilingan Qur’ondir..” degan so‘zlar yozilgan.

Oxiri:

ومن وما وكلما يدخل في هذا الباب وفي كل معنى الشرط أيضا من حيث أن الإسم الذي يتعقبها بوصف بفعل لا محالة ليتم الكلام وهي توجب الإحاطة على سبيل الأفراد أن يعتبر كل مسمى بانفراد كأن ليس معه غير

“Va kim, nima va qachon bu qismga va shartning har bir ma’nosida ham kiritilgan bo‘lib, unda tavsifdan keyin kelgan ot nutqni yakunlash uchun muqarrar ravishda fe’l bo‘lib, qamrab

<sup>171</sup> <https://portal.yek.gov.tr/works/advancedsearch/full>

olishni taqozo qiladi. Masalan, shaxslar, har bir ot alohida ko‘rib chiqiladi, go‘yo u bilan boshqa hech narsa yo‘q”.

Kolofon:

قد وقع الفراغ من تحرير هذا الكتاب وقت العصر اليوم الأحد ثالث رجب الأصب  
في سنة سبعين وسبعمائة

“Bu kitob etti yuz etmishinchi yil rajab oyining uchinchi yakshanba kuni peshindan keyin tugallandi.”

Konya qo‘lyozmalari hududiy boshqarmasining Mintaqa qo‘lyozmalari fondida 81511 raqami ostida saqlanayotgan asar 783/1381 yilda ko‘chirilgan. Sahifaning boshida asar nomi keltirilgan. Arab tilida, nasx xatida ko‘chirilgan. Varaqlar bichimi esa, 20,5x14-15,5x9,5sm bo‘lib, asosiy matn 15 satrdan iborat. Muqovasi jigarrang teridan, qizil chiziqlar bilan ishlangan.

Hindistonning Raza kutubxonasi arab qo‘lyozmalari bo‘limida №2925M ashyo raqami ostida “Muntaxabu-l-Husomiy” asari ham saqlanmoqda<sup>172</sup>.

Tadqiqotchi O.Qoriev o‘zining “Farg‘ona fiqh maktabi va Burhonuddin Marg‘inoniy” nomli monografiyasida ushbu asarning dunyo fondlarida saqlanayotgan nusxalari haqida quyidagicha ma‘lumot bergan<sup>173</sup>:

Birlashgan Arab Amirligining Dubay shahridagi “Jum‘a-l-Majid” nomidagi madaniy meros markazida to‘rt nusxasi: №1089 (hajmi: 151 varaq), №1161 (hajmi: 122 varaq), №1162 (hajmi: 80 varaq), №1163 (hajmi: 72 varaq) tartib raqamlari ostida saqlanadi.<sup>174</sup> Misr milliy kutubxonasi qo‘lyozmalar xazinasida №190 tartib raqami ostida, Germaniyaning Berlin davlat kutubxonasida – №4858 tartib raqami ostida, Alukah ilmiy tadqiqot markazi kutubxonasida – №4524 tartib raqami ostida, Umm Quro

---

<sup>172</sup> Taqiqotchi K.Rahimov Hindistonga tadqiqot tajribasi uchun borganida Raza kutubxonasi katalogidan aniqlab bergan edilar, biroq qo‘lyozma asarning fotonusxasini olishga kutubxona mas‘ullari tomonidan ruxsat berilmadi.

<sup>173</sup> Qarang: Farg‘ona fiqh maktabi va Burhonuddin Marg‘inoniy. –T.: O‘zRFA “Fan”, 2009. - B.88-89

<sup>174</sup> Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a‘la Muntaxab. – Damashq,1999. – B. 18-20

universiteti kutubxonasida – №1009 tartib raqami ostida saqlanadi<sup>175</sup>.

Irlandiyaning Dublin shahri Chester Bitti kutubxonasida – №5047 raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasi “Muntaxab fi usul Mazhab” (“Mazhab usulida yozilgan tanlangan matn”). Asar nasx xatida yozilgan.

Amerikaning Bornston universiteti kutubxonasida – №1705 raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxa. Asar “Usulu-l-fiqh Muhammad Husomuddin” yoki “Axsikatiy fi usulu-l-fiqh” (“Muhammad Axsikatiyning usulu-l-fiqhi yoki usulu-l-fiqhda Axsikatiy”) deb nomlangan. Asar Sojiy ibn Ya‘qub ibn Muhammad, “Siroj Multiy” nomi bilan mashhur bo‘lib, nasx xatida yozilgan<sup>176</sup>.

Eron Islom Respublikasi “Mir‘ashiy” kutubxonasida – №2/7887 raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxa “Muntaxab fi usul Mazhab”. Bu nusxa Abdulloh ibn Nasr ibn Muhammad ibn Abu-l-fath Dusoni tomonidan nasx xatida ko‘chirilgan.

Birlashgan Arab Amirligi Podshoh Faysal nomidagi “Islom ilmiy tadqiqot markazi”da №877 raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxa “Axsikatiy fi usulu-l-fiqh” bo‘lib, asar nasx xatida ko‘chirilgan.

“Muntaxabu-l-Husomiy” asariga yozilgan sharhlar ham dunyo miqyosida ko‘plab olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilgan. Zotan, har bir davr ulamolari usulu-l-fiqh ilmida bugungi kunga qadar keng foydalanib kelayotganliklari mazkur asarni katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Manbalardan asarga yigirmadan ortiq sharhlar yozilganligi ma‘lum<sup>177</sup>. Ular orasida Nasafiy, Sig‘noqiy, Abdulaziz Buxoriy va Itqoniyning sharhlari mashhurdir. Sharhlarning asosiy qismi Movarounnahrlik olimlar tomonidan yozilgan bo‘lib, ular qatoriga Shamsul-Aimma Kardariy (559–642/1164–1244)<sup>178</sup>, Muhammad

---

<sup>175</sup> O‘sha asar. 18

<sup>176</sup> <https://ketabpedia.com>

<sup>177</sup> Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a‘la Muntaxab. – Damashq, 1999. – B. 87

<sup>178</sup> Shams Aimma Kardariy. Muhammad ibn Abdusattor ibn Muhammad Abu Vajd Shams Aimma Shams din Imodiy Barotqaniy Kardariy Xorazm vohasi Kardor hududidagi Barotakin qishlog‘ida tug‘ilgan. Dabusiy va Sarasiydan keyin usul fiqh

ibn Sharif Hasaniy Samarqandiy (vaf. 702/1303 y.)<sup>179</sup>, Abu-l-Fazl Nuriy (vaf. 703/1304 y.)<sup>180</sup>, Hafizud-din Nasafiy (vaf. 710/1310 y.)<sup>181</sup> kabi allomalarni kiritish mumkin. Bu esa, asarning Movarounnahrda keng shuhrat topganligidan darak beradi. Hozirgi kunda mazkur sharhlarning qo‘lyozma nusxalari dunyo fondlarida saqlanadi. Shuningdek, “Muxtasar Husomiy”ga yozilgan sharh va hoshiyalarning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari ham dunyoning turli qo‘lyozma xazinalarida saqlanadi. Masalan, Abdu-l-aziz Buxoriy

---

ilmining olimi hisoblanadi. Shogirdlari orasida singlisining o‘g‘li Xoxarzoda Hamid din Dorir va Abul Barokat an-Nasafiylar ham bor. Buxoroda vafot etgan. “Sharh muxtasar Axsikatiy” nomli asari Qodir ibn Qutlubog‘a Kardariyga tegishli ekanligi aytilsa-da, ammo bu ma‘lumot uncha ishonchli emas. Chunki Kardariy Axsikatiy bilan bir davrda yashagan va Axsikatiydan bir yil avval vafot etan.

<sup>179</sup> Muhammad ibn Sharif Hasaniy Samarqandiy (vaf. 702/1303 y.) “Sharh Muntaxab” asarining bir qo‘lyozma nusxasi saqlanib qolgan. Muallifning ismi asarning debocha qismida Muhammad ibn Sharif Hasaniy Samarqandiy shaklida keladi. Hoshiyasida esa, muallifning ismi boshqa bir yozuvda “Sayyidu Hakim Samarqandiy” deb yozilgan. Fikrimizcha uning biografiyasi saqlanib qolmagan. Shamsiddin Muhammad ibn Ashraf Husayniy (yoki Hasaniy) Samarqandiydir. Ushbu olimning kalom, mantiq, handasa va qiyos kabi sohalarga bag‘ishlangan bir necha asarlari mavjud. Ayniqsa, qiyosga oid “Adab Samarqandiy” va geometriyaga oid “Ashkam ta’sis” nomli asarlari Usmoniy davrida madrasalarda keng o‘qitilgan

<sup>180</sup> Abu Fazl an-Nuriy (vaf. 703/1304 y.) Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Munir (yoki Mubin) Abu fazl an-Nuriy bo‘lib, hanafiy olimlaridandir. Bizgacha “Al-Muntajob (yoki Muntaxab) sharh Muntaxab” nomli asari etib kelgan. Qo‘lyozmaning muqaddima qismida muallifning ismi Abu Fazl Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Munir an-Nuriy deya keltirilgan. Asarning nomi esa nuqtasiz arab harflari bilan “Al-Muntajob (yoki Muntaxab) fi sharh Muntaxab” ko‘rinishida keltirilgan. Muallif o‘z asarini 694/1264 yilda tugatgan. Shu sababli ham uning vafoti 695/1265 yildan so‘ng ekanini aytish mumkin. Hatto asar 703 yilda yozib tugatilgani aytiladi va mantiqiy ravishda ushbu yilda muallifning hayot bo‘lganligini anglashimiz mumkin

<sup>181</sup> Hafiz din an-Nasafiy (vaf. 710/1310 y.) Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Abu Barakot Hafiz din an-Nasafiy. Mashhur hanafiy faqih, usul, kalom va tafsir sohasidagi etuk olimdir. Buxoro yaqinidagi Nasaf (Naxshab, Qarshi) shahriga mansubdir. Nasafiyni hatto mazhabdagi mujtahid deb hisoblaganlar ham mavjud. Tafsir, fiqh, kalom va usulga oid mashhur asarlari bor. Usulga oid “Minor”, fiqhga oid “Kanz” matnlari mashhurdir. “Muntaxab Husomiy” asariga bag‘ishlangan ikkita sharhi mavjuddir. Sharh Muntaxabning muqaddimasida avvaliga shogirdlarining talabiga muvofiq qisqaroq tarzda sharh yozganini, so‘ngra esa, uni kengaytirganini aytib o‘tadi. Bu sharhning qisqacha nusxasi bizning davrimizgacha etib kelmagan

tomonidan mazkur asarga yozilgan “Tahqiq” nomli sharh nusxalari Suriya Arab Respublikasining Damashq shahridagi “Zohiriyya” kutubxonasiida – №2868 (hajmi: 351 varaq), №5619 (hajmi: 229 varaq), №7738 (hajmi: 240 varaq) tartib raqamlari ostida saqlanmoqda.

Dubay shahridagi “Jum’a Majid” nomidagi madaniy meros markazida shu sharhning nusxalari № 3466 (hajmi: 286 varaq), hamda №399 (hajmi: 222 varaq) tartib raqamlari ostida saqlanadi<sup>182</sup>.

Hindistonning Raza kutubxonasi arab qo‘lyozmalari bo‘limida №4272M ashyo raqami ostida saqlanayotgan Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxab Axsikatiy” asarining “Sharh Hafiziyyatu-l-usul” asari mavjud deya topildi. Sharhlovchisi Muhtadin ibn Yamin bin Xoja Muhammad ibn Ism bo‘lib, arab tilida nasta’liq xatida bitilgan. Ushbu ma’lumot Raza kutubxonasi katalogida keltirilgan.

Ushbu asarga shuningdek, Imom Qavomiddin Amir Kotib ibn Amir Umar Itqoniy ham “Tabyin” deb nomlangan sharh asarini yozgan. Sharhning qo‘lyozma nusxalari Misr milliy kutubxonasiida 142 tartib raqami ostida, Iskandariya kutubxonasiida – №3634 tartib raqami ostida, Germaniyaning Berlin davlat kutubxonasiida esa, №4588 tartib raqami ostida saqlanadi<sup>183</sup>.

Imom Hisomiddin Husayn ibn Ali ibn Hajjoj Sig‘noqiy tomonidan yozilgan “Vafi” nomli sharhning qo‘lyozma nusxasi mashhur “Jum’a-l-Majid” nomidagi madaniy meros markazida №3634 tartib raqami ostida saqlanadi.

Abu Muhammad Abdulhaq ibn Muhammad Amin tomonidan yozilgan sharh “Namiy” deb nomlanadi. Uning qo‘lyozma nusxasi ham “Jum’a-l-Majid” nomidagi madaniy meros markazida №374 va №43 tartib raqami ostida saqlanadi. Hindistonning Laknau shahrida uch marotaba, Dehlida ikki marotaba toshbosma shaklda nashr qilingan<sup>184</sup>.

---

<sup>182</sup> Қorieв О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 88.

<sup>183</sup> Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a’la Muntaxab. – Damashq, 1999. – B.19

<sup>184</sup> Qarang: Аминов Х., Примов С. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2017. - Б.164

Yuqorida zikr qilingan sharhlar qatoriga Hofiziddin Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy, Muhammad ibn Muhammad ibn Mubin Navaviy Abulfazl va Yusuf ibn Shahiyn Sabt ibn Hajar Asqaloniy kabi allomalar tomonidan ham ko‘plab sharhlar yozilganligini kiritish mumkin.<sup>185</sup>

Shuningdek, Saudiya Arabistonining Riyoz shahri Malik Saud universitetida №3797 raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxa “kitob fi usulu-l-fiqh” (“Usulu-l-fiqh haqidagi kitob”) deb atalgan. Asar 690/ 1291 yil, Robi’ul avval oyining 10-kunida ko‘chirilgan. Varoqlar soni: 74 ta, har bir beti 11 qatordan iborat.

Turkiyaning Bashir og‘a kutubxonasida – №187 raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxa “Sharh li Axsikatiy ma’a Matn li Hofiziddin Nasafiy” (“Hofiziddin Nasafiyning matni ila Axsikatiyning sharhi”). Asarning qo‘lyozma nusxasi Saudiya Arabistonining Muhammad ibn Saud nomidagi Islom Universiteti kutubxonasida – №7406 raqami ostida saqlanmoqda<sup>186</sup>.

Husomuddin Axsikatiyning bu asariga yozilgan ko‘plab sharhlar uning naqadar mo‘tabar kitob ekaniga dalolat qiladi. Yuqorida keltirilganidek, kitobga yigirmadan ortiq sharh yozilgan, biroq sharhlovchilarining aksarining ismi ma’lum, ayrimlariniki esa, ma’lum emas,. Tadqiqotchi Ahmad ibn Muhammad Nosir Abbos Avdiy o‘z tadqiqotida asarga yozilgan sharhlarning qo‘lyozma nusxalari va ular saqlanayotgan kutubxonalar haqida ma’lumot berib o‘tadi<sup>187</sup>. Biz mazkur tadqiqotga asoslanib ularni quydagicha keltirdik:

1. Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy tomonidan “Sharh Muntaxab” (“Tanlangan kitob sharhi”) asari yozilgan bo‘lib, mazkur asar ikki xil biri qisqaroq, ikkinchisi kengroq uslubda yozilgan. Asarning qisqa sharhi hozirda Turkiya Respublikasi Istambul “Laleli” nomli kutubxonasida – №750 raqami ostida va Misr Arab Respublikasi Qohira “Maktaba azhariya” kutubxonasida saqlanadi. Kengroq sharh yozilgan qo‘lyozma nusxasi esa, Turkiyaning “Bashir og‘a”

---

<sup>185</sup> [https://archive.org/details/rain\\_bow2020\\_yahoo\\_20171127](https://archive.org/details/rain_bow2020_yahoo_20171127)

<sup>186</sup> <http://search.mandumah.com/Record/994225>

<sup>187</sup> Ahmad ibn Muhammad Nosir Abbos Avdiy. Tahqiq Muntaxab Husomiy. – B. 123-126.

kutubxonasida – №187 raqami ostida saqlanadi. Mazkur asar ustida doktor Solim O‘g‘ut o‘zining doktorlik ishida tadqiqot olib borgan.

2. Husayn ibn Ali Sig‘noqiyning “vafiy” (“Mukammal”) deb nomlangan sharhi. Muallif o‘z kitobining oxiriga “Mening huzurimda ulamolar ittifoq qilgan sharhlar mavjud”, degan so‘zlarni bitgan. Bu kitobning qo‘lyozma nusxasi hozirda Fransiyaning Parij shahrida joylashgan “Milliy kutubxona”da №6452 raqami ostida va Misrning Qohira shahri “xodyaviya” kutubxonasida – №2/269 raqami ostida saqlanmoqda.

3. Muhammad ibn Muhammad ibn Mubin Abul Fazl Nuriy Hanafiy tomonidan yozilgan “Muntaxab” (“Tanlangan”). Bu sharh Turkiyaning “Sulaymoniya” kutubxonasida – №1429, Istanbul shahrida “Salim og‘a” kutubxonasida – №274, Suriyaning Damashq shahrida “umumiya” kutubxonasida – №16/57, Misrning Qohira shahrida “Qovluh” kutubxonasida – №1/ 291 raqamlari ostida saqlanadi.

4. Imom Alouddin Abdulaziz ibn Ahmad ibn Muhammad Buxoriy tomonidan yozilgan «Tahqiq» (“Izlanish”) yoki “G‘oya tahqiq” (“Ochib berish”) sharhining to‘rtta qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ulardan biri Quvayt universitetining “Qo‘lyozma manbalar” kutubxonasida 774/1373 yilda yozilgan nusxa №445 raqam ostida, 1122/1710 yilda yozilgan nusxa №1099 raqam ostida, 1308/1890 yilda yozilgan nusxa №1098 raqami ostida va X/XV asrda yozilgan nusxa №1277 raqami ostida saqlanmoqda.

5. Amir Kotib ibn Amir G‘oziy Farobiy Itqoniy (vaf. 758/1357) qalamiga mansub “Tabyin” (“Bayon qilish”) sharhi. Sharh olimning Hijozga safari chog‘ida Tustar degan joyda 716/1316 yilda yozilgan. Bu kitobning qo‘lyozma nusxalari Germaniyaning Berlin shahrida “Mulkiya” nomli kutubxonada №4858, Turkiyaning Istanbul shahrida “Laleli” kutubxonasida – №745, Turkiyaning Istanbul shahrida “Bani Jomi” kutubxonasida – №339-№341, Fransiyaning Parij shahri “Milliy” kutubxonasida – №802, Angliyaning London shahrida “Britaniya muzeyi” kutubxonasida – №207, Misrning Iskandariya shahrida “Baladiya” kutubxonasida – №A-5, Misrning Qohira shahrida “Xodyaviya” kutubxonasida – №2/239, Qohirada “Dor Kutub Misriya” kutubxonasida – №1/372, Falastinning

Quddus shahrida “Xolidiya” kutubxonasida – №15, №27 raqamlari ostida saqlanmoqda. “Azhar” universiteti professori Sobir Nasr Mustafu bu asar ustida tadqiqot olib borib, doktorlik ishini himoya qilgan.

6. Mansur ibn Ahmad Qo‘oniy Xorazmiyning “Sharh” nomli asari. Bu kitobning qo‘lyozma nusxasi Turkiyaning “Nur Usmoniya” kutubxonasida – №1329 raqami ostida saqlanmoqda.

7. Muhammad ibn Sharif Husayniy Jurjoniy Samarqandiyning (vaf. 838/1435) “Sharh Muntaxabu-l-Husomiy” (“Husomiyning tanlangan kitobi sharhi”) asarining qo‘lyozma nusxalari Turkiyaning “Fotih” kutubxonasida – №1310, Madina shahrining “Orif Hikmat” kutubxonasida – №36/251 va boshqa bir nusxasi Madinning “Umm quro” universiteti Islom tadqiqot markazida №A-342 raqami ostida saqlanmoqda.

8. Abul Fazoil Abdulloh ibn Abdukarim Dehlaviy (vaf. 891/1486) tomonidan yozilgan “Miftahu-l-usul” (“Usul kaliti”) asarining qo‘lyozma nusxasi Turkiyaning “Laleli” kutubxonasida – №744 raqami ostida saqlanmoqda.

9. Afzalulhaq Axvanzoda tomonidan yozilgan “ Daqiq usul fi sharh Muntaxabu-l-Husomiy” (“Husomiyning tanlangan kitobi sharhida usul qoidalari nozikligi”) asari bo‘lib, asarning mikrofilm nusxasi “Umm quro” universitetining markaziy kutubxonasida – №2491 raqami ostida saqlanadi.

10. Muhammad ibn Ya‘qub Bannoni (yoki Banboniy) (vaf. 1081/1670) tomonidan yozilgan “Hoshiya Somiy” asarining qo‘lyozma nusxasi Saudiya Arabistoni Jidda shahrining “Markaziy” kutubxonasida – №348 raqam ostida, Angliyaning London shahrida “Hindiya” kutubxonasida – №1437 raqam ostida, boshqa bir nusxasi Londonning “Monastr” kutubxonasida – №152 raqami ostida saqlanadi.

11. Muhtadin ibn Amin ibn Xo‘ja Muhammad ibn Ismoil tomonidan yozilgan “Sharh Muntaxab fi usul Mazhab” (“Mazhab usulida tanlangan kitob sharhi”) asarining qo‘lyozma nusxasi Hindistonning “Rompur” kutubxonasida – №1/274-65 raqami ostida saqlanadi.

12. “Sharh muntaxab fi usul Mazhab”. Asarning muallifi ma’lum emas,. Bu kitobning qo‘lyozma nusxasi Angliyaning London shahrida “Maktab hindiy” kutubxonasi – №1438 raqami ostida saqlanadi<sup>188</sup>.

Biroq turk olimi professor Mehmet Boynukalin o‘z tadqiqotida “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining yigirma to‘rtta sharhi borligi haqida ma’lumot bergan<sup>189</sup>. Ular quyidagilar:

1. Shamsul-Aimma Kardariy (559-642/1164-1244)-Muhammad ibn Abdussattor ibn Muhammad Abul Vajd Shamsul-Aimma Shams din Imodiy Barotqaniy Kardariy. Xorazm vohasi Kardor hududidagi Barotakin qishlog‘ida tug‘ilgan. Dabbusiy va Sarasiydan keyin usulu-l-fiqh ilmining olimi hisoblanadi. Shogirdlari orasida singlisining o‘g‘li Xoxarzoda, Hamid din Dorir va Abul Barokat Nasafiylar ham bor. Buxoroda vafot etgan. “Sharh Muxtasar Axsikatiy” nomli asari Qodir ibn Qutlubog‘a Kardariyga tegishli ekani aytilsa-da, ammo bu ma’lumot uncha ishonchli emas,. Chunki Kardariy Axsikatiy bilan bir davrda yashagan va Axsikatiydan bir yil avval vafot etgan.

2. Muhammad ibn Sharif Hasaniy Samarqandiy (702/1303)ning “Sharh Muntaxab” asari. Asarning bir qo‘lyozma nusxasi saqlanib qolgan (39). Muallifning ismi asarning debocha qismida Muhammad ibn Sharif Hasaniy Samarqandiy shaklida keladi. Hoshiyasida esa, muallifning ismi boshqa bir yozuvda “Sayyidu Hakim Samarqandiy” deb yozilgan. Bu zotning fikrimizcha, biografiyasi saqlanib qolmagan. Shamsiddin Muhammad ibn Ashraf Husayniy (yoki Hasaniy) Samarqandiydir. Ushbu olimning kalom, mantiq, handasa va qiyos kabi sohalarga bag‘ishlangan bir necha asarlari mavjud. Ayniqsa, qiyosga oid “Adab Samarqandiy” va geometriyaga oid “Ashkam ta’sis” nomli asarlari Usmoniylar davrida madrasalarda o‘qitilgan.

---

<sup>188</sup> Ahmad ibn Muhammad Nosir Abbos Avdiy. Tahqiq Muntaxab Husomiy. – B. 142-147.

<sup>189</sup> Mehmet Boynukalin. Hanefi Usul Muhtasarlarinin Gelistimi: (II) Husameddin El-Ahsiketinin El-Muntehab’i ve hanefi usulundeki eri. Kocaeli Ilahiyat Dergisi c. 1, sy. 2, Aralık 2017, s. 21-42.

**3.** Abu-l-Fazl Nuriy (703/1304oxiri) Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Munir (yoki Mubin) Abu-l-fazl Nuriy bo'lib, hanafiy olimlardandir. U haqda boshqa ma'lumot saqlanib qolmagan. "Muntajob (yoki Muntaxab) sharh Muntaxab" nomli asari bizni davrimizgacha etib kelgan. Qo'lyozmaning muqaddima qismida muallifning ismi Abu-l-Fazl Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Munir Nuriy tarzida keltirilgan. Asar nomi nuqtasiz arab harflari bilan "Muntajob (yoki Muntaxab) fi sharh Muntaxab" ko'rinishida keltirilgan. Muallif o'z asarini Mardinda (694/1264-1295) yillarda yozib tugatgan. Shu sababli ham, uning vafoti hijriy 695 yildan so'ng ekanini aytishimiz mumkin. Hatto asarning hijriy 703 yilda yozib tugatilgani aytiladi va mantiqiy ravishda ushbu yilda muallifning hayot bo'lganligini anglashimiz mumkin.

**4.** Hafizud-din Nasafiy (710/1310) Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Abu-l-Barakot Hafiz din Nasafiy. Mashhur hanafiy faqih, usul, kalom va tafsir sohasidagi etuk olimdir. Buxoro yaqinidagi Nasaf (Naxshab, Qarshi) shahriga mansubdir. Nasafiyning hatto mazhabdagi mujtahid deb hisoblaganlar ham mavjud. Usugan oid "Minor", fiqhga oid "Kanz" matnlari mashhurdir. "Muntaxab"ga bag'ishlangan ikkita sharhi bor. Muallif "Sharhi Muntaxab"ning muqaddimasida asarga avvaliga shogirdlarining talabiga muvofiq qisqaroq tarzda sharh yozganini, so'ngra esa, uni kengaytirganini aytib o'tadi. Bu sharh qisqa vaqt ichida yozilgan va uning nusxalari bizgacha etib kelmagan<sup>190</sup>.

**5.** Husomuddin Sig'noqiy (714/1314) Husayn ibn Alin ibn Hajjoj Husomuddin Buxoriy Sig'noqiy Sirdaryo bo'yidagi Sig'noq (Sug'naq) shahrida tug'ilgan. Movarounnahrda Maymurg'iy va Nasafiy kabi olimlardan tahsil olib, Buxoro, Nishopur, Bag'dod, Shom va Qohirada dars ham bergan. Xalabda yoki Marvda vafot etgan o'z vaqtida hanafiy mazhabining eng buyuk olimlaridan biri hisoblangan. Fiqh, aqoid, nahv, sarf va usulga oid bir necha asarlari

---

<sup>190</sup> Mehmet Boynukalın. Hanefo Usûl Muhtasarlarının Gelişimi: (II) Hüsameddin El-Ahsiketî'nin El-Müntehab'ı ve hanefî usûlündeki eri. Kocaeli İlahiyat Dergisi c. 1, sy. 2, Aralık 2017, s. 21-42.

bor. “Vafiy fi sharhi Muxtasar” nomli asari nashr qilingan. Sig‘noqiy asarining oxirida bu sharhni safar oyining 20-kuni 692 (30 yanvar 1293) yilda Axsikatiyning masjidida o‘qitganini va shu erda bitirganini aytib o‘tadi. Ba’zi manbalarda u bu asarni Buxoroda yozgan deyiladi.

6. Abdulaziz Buxoriy (730/1329). Abdulaziz bin Ahmad bin Muhammad Alouddin Buxoriy hanafiylikdagi faqih va usul olimlaridan biri hisoblanadi. Ustozlaridan amakisi Faxriddin Maymirg‘iy va Hafiziddin Buxoriylardan ta’lim olgan shogirdlari orasida esa, Qivomiddin Kaku o‘z asarlari bilan mashhurdir. U “Usulu-l-Bazdaviy”ga atab “Kashf asror” asarini yozgan. Bundan tashqari uni “kitob tahqiq” (yoki “G‘oyat Tahqiq”) va “Sharh Muxtalab” nomli asari ham mavjud. Abdulaziz Buxoriy “Muxtalab”ni amakisi va ustoz bo‘lmish Faxriddin Maymirg‘iydan, u esa, muallifning o‘zi, ya’ni Axsikatiydan rivoyat qiladi. Shu sababli ham, balki “kitob Tahqiq”ning bir nusxasi Abdulaziz Buxoriyga emas, Maymirg‘iyga tegishli deb aytiladi. Muallifning bu asarni to‘ldirish maqsadida yozgan “Radd Kavadixit tahqiq” nomli asari ham darslik sifatida o‘tilgan.

7. Tojiddin ibn Turmakniy (681-744/1282-1343), to‘liq ismi – Ahmad ibn Usmon ibn Ibrohim Tojiddin Abu-l-Abbos ibn Turmakniy Mardiniy. U hanafiylikdagi faqih olim, usul, hadis, adabiyot, mantiq, kalom va astronomiyaga o‘z hissasini qo‘shgan. Asl kelib chiqishi Mardinlik bo‘lib, Qohirada tug‘ilib voyaga etgan. Qozi noibi bo‘lib ishlagan va Qohirada vafot etgan. Bir necha asarlari mavjud, ammo ularning deyarli barchasi tugallanmagan. “Ta’lika a’la Muntaxab fi usul Mazhab” nomli asari to‘liq bo‘lgan. Bag‘dodli unga tegishli “Ta’lika a’lat tab’in sharh Muntaxab li Atkaniy” nomli asar borligini aytib o‘tgan. Ammo Atkaniy 758/1357 yilda vafot etganini hisobga olsak, bu asar unga tegishliligiga shubha borligini ko‘rishimiz mumkin<sup>191</sup>.

---

<sup>191</sup> Mehmet Boynukalın. Hanefî Usûl Muhtasarlarının Gelişimi: (II) Hüsameddin El-Ahsîketî'nin El-Müntehab'ı ve hanefî usûlündeki eri. Kocaeli İlahiyat Dergisi c. 1, sy. 2, Aralık 2017, s. 21-42.

**8.** Mu'inuddin Dehlaviy (755/1354). Mu'inuddin Imroniy Dehlaviy hanafiylikning faqih va usul olimidir. Dehlida buyuk olim bo'lgan, fiqh usul va balog'at olamida etuk shaxs bo'lib, bizgacha "Sharh Husomiy" asari etib kelgan.

**9.** Amir Kotib Itqoniy (685-758/1286-1357). Amir kotib (yoki Lutfulloh) ibn Amir Umar ibn Amir G'oziy Abu Hanifa Qivomiddin Farobiy Itqoniy O'troriy. Sirdaryo bo'yidagi Farob shahriga tegishli Atkon qishlog'ida tug'ilgan. O'tror bu Farobning ikkinchi nomi hisoblanadi yoki boshqa manbalarga ko'ra, Farob viloyatning, O'tror esa, viloyat markazining nomidir. U Buxoro va Nishopurdan so'ng Shom, Qohira, Bag'dodda mudarrislik hamda qozilik qiladi. Fiqh, usul, nahv, faroiz va hisob ilmlari bilan shug'ullanib asarlar yozgan. Ular orasida "Tab'in sharh Muntaxab" asari mashhurdir. Kirish qismida asar 20-30 – yillarda yozilganini va 716 yil Sha'bon oyining 15 kechasi Baroat kechasida (1316 yil 2 noyabr) Hijoz yo'lidagi Tuster shahrida bitirganini aytib o'tadi.

**10.** Sa'diddin Dehlaviy (8-asr), Mahmud ibn Muhammad Abu-l-Fazoil Sa'diddin Dehlaviy. Qurayshiy (775/1373) Sadridin Dehlaviyga tegishli "Ifodatul anvar fi izanti Usulul Minar" nomli (Qisqacha "Minor sharhi") asari borligini keltirib o'tadi. Muntaxabga bag'ishlangan "Miftahu-l-usul" asari mavjud. Bir asari 739 (1337-1338) yillarda yozilgani hisobga olinsa, "Miftahu-l-usul" sal avvalroq yozilganini aytishimiz mumkin. Dehlaviy asarlarida uning ismi deyarli keltirilmagan. Sulaymoniya kutubxonasi hamda Qora Chembizade kutubxonasida 82 raqami bilan ro'yxatda turgan bir kitob nusxasining kopyasida "Sharh Axsikatiy musamma' bi miftah usul Dehlaviy sharh Minar" deb yozilgan. Katalogga ham bu kitob Sa'diddin Mahmud ibn Muhammad Dehlaviyga tegishli deb kiritilgan<sup>192</sup>.

**11.** Safiyuddin Rudavlaviy (819/1417) Safiyuddin ibn Nasiruddin ibn Nizomiddin Rudavlaviy Hindistonda yashagan hanafiy olimidir. Sarf, nahv va usulga oid asarlari bor. Ularning orasida "Sharh

---

<sup>192</sup> Mehmet Boynukalın. Hanefî Usûl Muhtasarlarının Gelişimi: (II) Hüsameddin El-Ahsîketî'nin El-Müntehab'ı ve hanefî usûlündeki eri. Kocaeli İlahiyat Dergisi c. 1, sy. 2, Aralık 2017, s. 21-42.

Muntaxabu-l-Husomiy” asari mashhur bo‘lib, o‘zining ikkinchi “Madinul usul” nomli kitobida yuqoridagi asar haqida fikr yuritadi.

**12.** Noma’lum muallif (846/1442). “Sharh Muntaxab”ning qo‘lyozmasida 1-81-betlarida muntaxab asarining matni, qolgan 82-143 betlarida esa, sharhi keltiriladi. Kotibning ismi Ahmad ibn Oydin ibn Muso bo‘lib, asar 846 yilda yozilganini aytgan. Kotib balki aslida asarning muallifidir, degan fikrlar ham bor.

**13.** Sa’iddin Hayrobodiy (882/1477) Sa’iddin ibn Qozi Buddin (65) bin Shayx Muhammad Kidvai Hayrobodiy hind hanafiy musulmoni bo‘lib, mutasavvuf hamdir. Usul va nahvga oid asarlari bor. Ulardan biri “Sharh Husomiy”dir.

**14.** Abdulhakim Sayolqutiy (988-1067/1580-1656) Abdulhakim ibn Shamsiddin Muhammad malik ulamo Sayolqutiy Hindiy Panjobdagi Sayolqut qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan. Ustozi imom Rabboniydan ilm oladi. Hindiston sultoni Shohjahon hukmronligi vaqtida mashhur olim bo‘lgan va sultonning eng yaqin maslahatchisi hisoblangan. Usul, mantiq, tafsir, kalom, nahv va balog‘at ilmlariga oid bir nechta asarlari bor. Mazhar Beka kabi ba’zi tadqiqotchilar Sayolqutiyga tegishli “Hoshiya a’la Husomiy” nomli bir kitob bor deb keltiradilar. Balki bu asar u tomonidan yozilmagan bo‘lishi ham mumkin<sup>193</sup>.

**15.** Abu Yusuf Muhammad ibn Yoqub ibn Ali Banboniy Lohuriy (1098/1686) Mavlaviy Husomiy nomi bilan mashhur bo‘lib, hind olimlaridandir. Lahorda tug‘ilib o‘sgan, kutubi sittaga bag‘ishlangan sharhlar, fiqh, tafsir va sarfga oid asarlari bor. “Muntaxabu-l-Husomiy”ga atab “Hoshiya Sami” asarini Kobulda yashagan paytida yozgan. Asar chop etilgan.

**16.** Ayyubzoda Mostariy (1061-1119/1651-1707) Mustafo ibn Yusuf ibn Murod alAyyubiy, Ayyubiyzoda Mostariy Mostar shahrida tug‘ilgan. Avval Istanbul, keyin esa, Mostarda mudarrislik qilgan. So‘ngra Mostar muftiysi bo‘lgan. Mostar shahrida uning mozori saqlanib qolgan va u ziyorat etiladi. Usul, falsafa, kalom va boshqa ilmlarga oid yigirma oltita asaridan biri “Muxtajib xusul

---

<sup>193</sup> Mehmet Boynukalın. Hanefî Usûl Muhtasarlarının Gelişimi: (II) Hüsameddin El-Ahsîketî'nin El-Müntehab'ı ve hanefî usûlündeki eri. Kocaeli İlahiyat Dergisi c. 1, sy. 2, Aralık 2017, s. 21-42.

fi sharhi Muntaxab usul” dir. Saroybosnada G‘oziy Xusrav bey kutubxonasiidagi (№3858 raqamli) muallif nusxasida asarning tafsiloti shu shaklda keltirilgan. Ba’zi manbalarda esa, qisqa qilib “Muntaxab usul” deb aytilgan.

**17.** Abdulloh ibn Muhammad Mir Dehlaviy (1267/1334/1851/1917) hind olimi bo‘lib, Panjobda tug‘ilgan. Avval shu erda so‘ngra esa, Murodobod va Dehlida ilm olgan. Bir muddat Dehlida mudarrislik qilgan. Keyinchalik faqat asarlar yozish bilan shug‘ullangan. Tafsir va boshqa ilmlarga atab urdu tilida yozilgan asarlari Hindistonda juda mashhurdir. “An-Nama sharh Husomiy” asarini 1296 (1878-1879) yilda 30 yoshida yozib tugatadi. Bu asar chop etilgan. Nufuzli bir universitetda undan qo‘llanma sifatida ham foydalanilgan<sup>194</sup>.

**18.** Fazlihaq Oxundzoda islomfuriy – hind olimlaridan bo‘lib, “Daqiq al -usul” nomli asarini muntaxabga atab hoshiya sifatida yozgan va asar chop etilgan.

**19.** Muhammad Fayz Hasan Kankuhiy hind olimi bo‘lib, “Muntaxabu-l-Husomiy”ga atab “ta’liq hamiy” hoshiyasini yozgan.

**20.** Mavlaviy Muhammad Ibrohim hind olimi bo‘lib, “Havashiy a’la al mant Somiy Ma’ruf bi Husomiy” asari chop etilgan.

**21.** Muhammad Nizomiddin Qupayshiy Kiromoviy- hind olimi “An-Nizom sharh Husomiy” asari chop etilgan.

**22.** Muhtadin Valad Bunyamin ibn Hoja Muhammad ibn Ismoil hind olimi. Muntaxabga atab, “Sharh Hofiziya usul” asarining qo‘lyozmasi mavjud.

**23.** Muhammadnur Guzayniy hind olimi “Faroh Salil va Mas’ul fi sharhi Muntaxab fi usul” asari 13 (18-19) asrda yozilgan bir nusxasi mavjud.

**24.** Valiyuddin Muhammad Solih Farfur “Madhab fi usul Mazhab a’la Muntaxab” nomli sharh yozgan.

Yana bir noma’lum muallifga oid “Sharh Muntaxab” nomli bir asar Londonda saqlanadi. Balki yuqorida nomi keltirilgan asarlardan biri bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas (muallif).

---

<sup>194</sup> O’sha joyda.

Shuningdek, 1999 yil 23 iyulda Damashq shahrida Doktor Valiyuddin Muhammad Solih Farfur Husomuddin Axsikatiyning “Mazhab fiy usul Mazhab a’la Muntaxab” asarini Jum’a Majid kutubxonasida №1163 ashyo raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozmaning zamonaviy nashrini amalga oshirgan. Ushbu kitob tahqiq qilingan holda Maktabat dar Farfur” nashriyotida chop etilgan. Tadqiqotda “Muntaxab” asarini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondi bo‘limining “Asosiy ” fondining 10718/1 ashyo raqami ostida saqlanuvchi qo‘lyozma nusxasi (keyingi o‘rinlarda “qo‘lyozma”) bilan zamonaviy nashri qiyosiy tahlil qilindi. Bu jarayonda asar matnining qo‘lyozma nusxasi va zamonaviy nashri orasida bir nechta farqlari ko‘zga tashlandi. Jumladan:

“Muntaxab”ning zamonaviy nashrida ayrim so‘zlarning sinonim shakli qo‘llanilgan. Masalan, qo‘lyozma matnidagi “Kalomulloh” so‘zi “kitobulloh” sinonimiga o‘zgartirilgan.

Ayrim o‘rinlarda esa, matnni to‘g‘ri ifodalash maqsadida arab tilidagi ko‘makchilar kiritilgan. Misol uchun, انما؛ بها، albatta, faqat, u bilan, kabi;

Asarning qo‘lyozma matnidagi muannas shakldagi fe’llar zamonaviy nashrda muzakkar shakldagi fe’llarga o‘zgartirilgan yoki aksincha: يجعل fe’li تترك ga o‘zgartirilgan<sup>195</sup>;

Qo‘lyozmada noaniq shaklda kelgan ba’zi so‘zlar asarning zamonaviy nashrida arab tilidagi “al” artikli bilan aniq holatda berilgan o‘rinlari ham mavjud, xususan: مشروع (shariat qilib berilgan) so‘zi المشروع tarzida keltirilgan;

“Muntaxab”ning zamonaviy nashrida matn ma’nosidan kelib chiqqan holda ayrim so‘zlar arab tilidagi muzakkar shakldan muannas shaklga o‘zgartirilgan، هذا الشبهة (bu shubha) jumlasida هذه الشبهة jumlasiga o‘zgartirilgan;

Zamonaviy nashrda qo‘lyozma matndagi ba’zi jumlar tushirib qoldirilganligi ham uchraydi: امتداد في الوقت (Vaqtning

---

<sup>195</sup> Buni katta ehtimol bilan kotibni matnni ko‘chirish jarayonidagi ehtiyotsizligi yoki bu jarayonda asosiy e’tibor grammatikaga emas, matnning mazmuniga qaratilganligi bilan izohlash mumkin.

cho‘zilishi) jumlasidagi الوقت في jumlasini tushirib qoldirilgan. Bu bilan امتداد fe‘lining o‘zi yolg‘iz holatda ham to‘liq ma‘noni ifodalashga xizmat qilishi inobatga olingan.

Hatto fasl nomlarida ham bunday holatni uchratishimiz mumkin. Jumladan, qo‘lyozmada fasl nomi فصل في وصف الحسن (Buyurilgan narsaning yaxshi ekanligi), deya kelgan bo‘lsa, zamonaviy nashrda به للمأمور به (Buyurilgan narsaning yaxshi ekanligi), deya tahqiq qilingan.

Ikqilik shaklida kelgan otlar oldidan qo‘lyozmalarda ko‘rsatish olmoshi keltirilmagan bo‘lsa, zamonaviy nashrda esa, ko‘rsatish olmoshini qo‘yib ketish bilan izohlangan. هذابين النوعين النهي (وهو) في صفة؛

Qo‘lyozma matnida hamza alif taglik bilan kelgan bo‘lsa zamonaviy nashrda tagliksiz ishlatilgan.

Mazhabboshi ismlari zikr qilinganda qo‘lyozmada ismning o‘zi keltirilganini ko‘rishimiz mumkin, biroq zamonaviy nashrda mazhabboshi ismi yoniga rohimahulloh ya‘ni Alloh rahmat qilsin so‘zi kiritib o‘tilgan: وهو مذهب الشافعي رحمه

الله

Qo‘lyozma matnida kelgan ayrim jumalarni talabaga tushuncha berish maqsadida qavsda izohlar keltirilgan. Asarning bizgacha etib kelgan qo‘lyozma nusxalarini tadqiq etish jarayonida dastlabki qo‘lyozma nusxasi XIV asrga oid bo‘lsa, eng oxirgisi esa, XIX asrda ko‘chirilgan. Bundan asar XIV- XIX asrlarda Movarounnahrda ilmiy doirada keng istifoda etilganligini bildiradi.

Ammo asar olimlar va tadqiqotchilar orasida “Muntaxabu-l-Husomiy” nomi bilan keng tarqalib, mashhurlikka erishgan. Shu bois ushbu tadqiqotda “Muntaxabu-l-Husomiy” nomi tanlangan.

Yuqoridagi keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘ramizki, Axsikatiy tomonidan yozilgan “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining qo‘lyozma nusxalari dunyo bo‘ylab tarqalganligi uning ko‘plab olimlar diqqat markazida bo‘lganligidan dalolat beradi.

### 3.2. “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining bayon uslubi

Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxabu-l-Husomiy” asari mazmun-mohiyati bilan musulmon huquqshunosligi manbalari

bo‘lmish Qur’oni Karim, Muhammad (s.a.v) sunnati, Ijmo va qiyos mezonlari tahliliga bag‘ishlangan.

اختلف الناس فيمن ينعقد بهم الاجماع. قال بعضهم: لا اجماع الا للصحابة، وقال بعضهم: لا اجماع الا لاهل المدينة، وقال بعضهم لا اجماع الا لعنرة الرسول عليه السلام، والصحيح عندنا أن اجماع علماء كل عصر من اهل العدالة والاجتهاد حجة، لا عبرة لقلة العلماء وكثرتهم، ولا بالثبات على ذلك حتى يموتوا، ولا بمخالفة اهل الهوى فيما نسبوا به الى الهوى، ولا بمخالفة من لا رأى له فى الباب الا فيما يستغنى عن الرأى.

Asarda Qur’on va hadisdan fiqh ilmining asosi sifatida foydalanish yo‘llari hamda bu borada zarur bo‘lgan shart va me’yorlar batafsil tahlil qilingan. Asarda zarur o‘rinlarda Abu Zayd Dabusiyning “Taqvimu-l-adilla fi usulu-l-fiqh” va “Ta’sisu-n-nazar fi ilm xilaf bayn hanafiy” asarlari, Imom Abu Mansur Moturidiyning “Maoxizu-sh-sharoi’ fi usulu-l-fiqh” asari, Abu Husayn Basriyning “Mu’tamad fi usulu-l-fiqh” va Abulhasan Karxiyning “Usul Karxiy” asarlaridan iqtiboslar keltirilgan.

Husomuddin Axsikatiy ushbu asarini yozishda, hamda bayon qilishda an’anaviy va o‘ziga xos usublardan foydalangan. Shu bilan birga fiqh ilmida umumiy e’tirof etilgan ijmo va qiyos masalalariga o‘z munosabatini bildirib ularni asarida bayon etgan. Xususan, u asarning birinchi faslida shariat hukmlarini chiqarib olish manbalari, ya’ni shariat asl (asos)larini uchtaga ajratadi<sup>196</sup>:

1. kitob (Qur’oni karim)
2. Sunnat
3. Ijmo‘i ummat

Ijmo haqida ulamolar o‘rtasida turli fikrlar mavjud. Bir toifa ulamolar: “Ijmo faqat sahobalar ishtirokida bo‘lishi kerak”, deb hisoblasalar, boshqa bir toifa ulamolar esa, “Ijmo huquqi Payg‘ambar (s.a.v) oilasigagina berilgan”, deb hisoblaganlar. Uchinchi toifa ulamolari esa, “Ijmo faqat Madina ahli ulamolari tomonidan amalga oshirilishi kerak”, deb hisoblaganlar. Mazkur da’volarga Husomuddin Axsikatiy “Muntaxabu-l-Husomiy” asarida “Rasululloh (s.a.v.)ning sahobalariga ergashish” bobini kiritgan. Asarning bundan oldingi boblarida sunnatning ta’rifi, Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) qilgan amallarining turlari, hukmlarni

<sup>196</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1. – B. 1b.

izhor qilishda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)ning tutgan yo'llari bayoni kabilar bahs qilingan edi. Endi bu bobda Axsikatiy sahobalariga ergashish, taqlid qilishning shar'iy hukmlarini bayon qiladi. Muallif o'zining fikrini Abu Sa'id al-Barda'iy, Abul Hasan al-Karxiy, Imom Shofe'iy (rahmatullohi alayhim) kabi olimlarning so'zlari bilan quvvatlagan. Asarning sharhlaridan ma'lumki, Abu Sa'id al-Barda'iyning fikriga yana bir hanafiy olimi Abu Bakr ar-Roziy ham maslakdosh bo'lgan.

[حکم تقلید الصحابی]

قال ابو سعيد البردعي رحمه الله: تقلید الصحابی واجب يُترك به القياس لاحتمال السماع والتوقيف، ولفضل إصابتهم في نفس الرأي بمشاهدة احوال التزويل ومعرفة اسبابه.

Abu Sa'id al-Barda'iy (rohimahulloh) aytadilar: "Sahobiyga taqlid qilish vojib, u bilan qiyos tark qilinadi, chunki u zot (sahobiyning Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam)dan eshitgani va tavqif (ya'ni xabardor qilingan bo'lishi) ehtimoli bor. Shuningdek, u zotlar ra'y (masalasida ham boshqalardan ko'ra) aynan to'g'ri (fikrni) topganlari fazilati ham bor. Chunki ular tanzil (oyatlar nozil bo'lib turgan holatlar)ga shohid bo'lganlar va nozil bo'lish sabablarini ham bilishgan". Chunki sahobiyning fikri o'zgalarning fikri va qiyosidan ustundir. Mana shu fikrimizga Axsikatiy: "U zotlar ra'y (masalasida ham boshqalardan ko'ra) aynan to'g'ri (fikrni) topganlari fazilati ham bor. Chunki ular tanzil – oyatlar nozil bo'lib turgan holatlarga shohid bo'lganlar va nozil bo'lish sabablarini ham bilishgan", – deya ishora qilib o'tgan. Demak, mana shu e'tibordan ham sahobalar boshqalardan ustun qo'yilishiga sabab va fazilat ekan. Mana shu bilan muxoliflarimizning qilgan da'volari rad qilinadi. Ya'ni, ular: "Sahobiyning fatvosida ham o'z ra'yi bor, boshqa olimlar ham o'z fikrini aytsa, nechun ularning fatvosi yoki qiyosi tark qilinadi, axir fikr va ra'y borasida hamma teng-ku?!" – deyishgan. Muxoliflarimizning bu da'volari noto'g'ri ekanligini Abu Hanifa, Abu Yusuf, Abul Yusr, Molik, Ahmad bin Hanbal (bir rivoyatida), Shofe'iy (eski fatvosida) kabi imomlar ixtiyor qilishgan. Alloma qo'shimcha tarzda batafsil tushuncha berish maqsadida quyidagi fikrni keltiradi: "Ijmo huquqi har bir davrda o'sha zamonning eng adolatli, ijtihodga salohiyatli va keltirayotgan dalillari shubhasiz ulamolarga tegishli bo'lishi kerak",

deya javob bergan. Alloma mazkur fikrini to‘ldirib, ijmo qilgan ulamolar vafot etsalar ham yoki ularning orasidan bir ulamo shar’iy hukmdagi fikridan qaytsa ham, shar’iy hukm o‘z kuchida qolishi kerak, degan fikrni ilgari surgan<sup>197</sup>. Husomuddin Axsikatiy “Muntaxabu-l-Husomiy” asarida ijmoni ikkiga ajratadi<sup>198</sup>:

1. Agar avvalgi ulamolar ijmosi o‘sha asrning boshqa ijmolari singari naql qilingan bo‘lsa, ularning hukmi mutavotir hadislar naql qilinishi hukmida bo‘ladi.

2. Agar ijmo hukmi shaxslar tomonidan naql qilingan bo‘lsa, ohod sunnatlar naqli hukmida bo‘ladi. Bunday hukmlarga alohida bilimlarsiz ham rioya qilinadi. Bu holatlar qiyos tamoyili joriy qilinishidan oldin amalda bo‘lgan.

Ijmodan keyingi shar’iy hukm chiqarish manbai qiyos bo‘lib, fiqh ilmining muayyan matnga asoslanmagan asosiy manbai hisoblanadi. Alloma o‘z asarida qiyosni “To‘rtinchi asl (asos) esa, mazkur uchta asl (manba)dan chiqarib olingan qiyosdir,- deb ta’kidlaydi<sup>199</sup>. Shuningdek, muallif hanafiy mazhabi ulamolari ham boshqa mazhab ulamolari kabi yuqorida ko‘rsatilgan shariatning asoslarini tan oladi va bu shubha tug‘dirmaydi, degan fikrni aytib o‘tadi<sup>200</sup>.

ثم اجماع من بعد الصحابة رضى الله عنهم على حكم لم يظهر فيه قول من سبقهم مخالفا، ثم اجماعهم على قول سبقهم فيه مخالف، فقد اختلف العلماء في هذا الفصل، قال بعضهم: هذا لا يكون اجماعا؛ لان موت المخالف لا يبطل قوله، وعندنا: اجماع (علماء) كل عصر حجة فيما سبق فيه الخلاف وفيما لم يسبق، لكنه فيما لم يسبق فيه الخلاف بمنزلة المشهور من الحديث، و فيما سبق فيه الخلاف بمنزلة الصحيح من الأحاد، واذا انتقل الينا اجماع السلف باجماع كل عصر على نقله كان في معنى نقل الحديث المتواتر، واذا انتقل الينا بالافراد كان كنقل السنة بالأحاد، وهو يقين باصله، لكنه لما انتقل الينا بالأحاد اوجب العمل دون العلم، وكان مقدا على القياس.

<sup>197</sup> Қориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурҳониддин Марғиноний. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 94.

<sup>198</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1. – B. 5b

<sup>199</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1. – B 1b.

<sup>200</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.– B. 5a.

Qiyos usulu-l-fiqhning eng muhim masalalaridan biri bo‘lganligi bois, asarning kirish qismida Husomuddin Axsikatiy bunga alohida ahamiyat qaratdi va “Abu Hanifa hamda [boshqa] ulamolar ijmosiga ko‘ra, avvalo [Qur‘on] nazmning lug‘aviy [zohiriy va botiniy] mazmun-mohiyatini ifolashda [qiyos]shariatning to‘rtinchi o‘rnini egallaydi”, deya izohlaydi. Alloma o‘z maqsadini bayon qilishda shariat ahkomlarini xos, omm, mushtarak, muavval (izohlangan)ga ajratib, ularni qisqa va tushunarli tarzda ifodalashga xarakat qilgan.

وهو يشتمل على بيان نفس القياس وشرطه ركنه ودفعه.  
 اما الاول فالقياس هو التقدير لغة، يقال: قس النعل بالنعل اى قدره به واجعله نظير  
 الآخر. والفقهاء اذا اخذوا حكم الفرع من الاصل سمو ذلك قياسا؛ لتقديرهم الفرع  
 بالاصل فى الحكم والعلة.

Shuningdek, tushunish qiyin bo‘lgan lafz [so‘z]larning yashirin ma‘nolari balog‘at ilmi<sup>201</sup> uslubidan kelib chiqqan holda sodda tarzda ochib berilgan. Jumladan, asarning birinchi faslida, yuqorida keltirilganidek, Qur‘on ilmlariga aloqador bo‘lgan om (العام)<sup>202</sup>, xos (الخاص), mushtarak (مشترك), muavval (مأول) lafzlarining yashirin ma‘nolari grammatik uslubda tahlil etilgan. Xususan “xoss<sup>203</sup> – [aslida] maxsus, alohida farqlanib turadigan so‘zdir va barcha [xos] so‘zlar alohida kelganida ham o‘z ma‘nosini yo‘qotmaydi”<sup>204</sup>.

<sup>201</sup> IX asrning birinchi yarmida Abu Ubayda «Majozu-l-Qur‘on» asari bilan balog‘at ilmiga asos solgan. Bu ilm takomillashib bordi va XII asrda xorazmlik olim Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy ma‘oniy, bayon, badi‘ ilmlarini bir tizimga tushurib, «balog‘at ilmi» deb atadi. Balog‘at ilmi nazariy asoslarining vujudga kelishida Abdulqohir Jurjoniy va Yusuf Sakkokiy fan asoschisi sifatida e‘tirof etiladi. Jaloliddin Qazviniy va Sa‘duddin Taftazoniy balog‘at ilmiga oid nazariy qarashlarni rivojlantirish bilan birga uning fan sifatida o‘qitilishiga katta hissa qo‘shgan olimlardir. Mazkur ilm arab, fors, turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan hamda XIX-XX asr boshlarigacha o‘quv dargohlarida fan sifatida o‘qitilgan. Qarang: S.Rustamiy. Sharq filologiyasida balog‘at ilmi nazariyasining asoschilari. O‘zbekistonda xorijiy tillar//Toshkent-2020.-B.215-228

<sup>202</sup> Umumga tegishli, umumxalq. Qarang: A.Madvaliev tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. - B-53

<sup>203</sup> Qarang: A.Madvaliev tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. - B-414

<sup>204</sup> Bu erda xossning ikki xil ta‘rifi keltirilgan.

والعام وهو كل لفظ ينتظم جمعا من المسميات لفظا او معنى وحكم العام انه يوجب الحكم فيما تناوله قطعا ويقينا كالخاص فيما يتناوله هو المذهب عندنا خلافا للشافعي رحمه الله، الا اذا لحقه خصوص معلوم او مجهول، كآية الربوا في البيع فحينئذ يوجب الحكم على تجوز ان يظهر الخصوص فيه بتعليقه او بتفسيره. والمشارك وهو ما اشترك فيه معانٍ او اسامٍ لا على سبيل الانتظام. وحكمه: التوقف فيه بشرط التأمل ليترجح بعض وجوهه.

Asarning bob va fasllarini berishda muallif mavzular ketma-ketligi tartibiga amal qiladi. Masalan, “Birinchii fasl: Qur’oni karimda nazm va ma’no qismlari va unga aloqador istilohlar”, “Ikkinchi fasl: Fosid xulosalar haqida” va “Birinchii bob: kitob [Qur’on]”, “Ikkinchi bob: Sunnat” kabi nomlar bilan atalgan<sup>205</sup>.

Matnda keltirilgan so‘z va jumlar oddiy, ravon hamda tushunarli uslubda bitilgan. Masalan, olim mushtarak iborasiga “unda bir nechta ma’no yoki ismlar ishtirok etgan va bu tizimlash yo‘liga ko‘ra bo‘lmagan so‘zlardir”, deya qisqa va sodda ta’rif berib o‘tadi<sup>206</sup>. So‘zimizni isboti tariqasida muallif “nass<sup>207</sup>” so‘ziga ta’rif berishda talabalar oson tushinishi uchun “Nass – mutakallim (so‘zlaguvchi)ning gaplarini zohir (ochiq) [ma’nolari] ni yanada ravshanlashtirishga [xizmat qiladi]”. Buni Qur’on karimning Niso surasi 3-oyatida keltirilgan: “... Sizlar uchun (nikohi) halol bo‘lgan ayollarga, ikkita, uchta, to‘rttadan uylanaveringiz”<sup>208</sup> degan oyat bilan solishtirib beradi. Mazkur oyatda nikohlanish mubohligi bayon qilingan bo‘lib, uylanish mumkin bo‘lgan ayollar soni esa, ravshan ko‘rsatib berilgan, bu nass hisoblanadi<sup>209</sup>. Zohiran mazkur oyat uylanish to‘g‘risida kelgan.

H.Aminov va S.Muhammadaminovlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan Abu Hafs Nasafiyning “Tahsil usulu-l-fiqh”

<sup>205</sup> Qarang: Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.– B. 7b.

<sup>206</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.–B.2a.

<sup>207</sup> (matn) – Mutakallim (so‘zlaguvchi)dagi ma’no sababli zohirga nisbatan yanada ravshan matndir. Bu Alloh taoloning ushbu so‘ziga o‘xshaydi

<sup>208</sup> Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.. – B.123

<sup>209</sup> Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a’la Muntaxab. – Damashq,1999. – B.72

(“Usulu-l-fiqhni o‘rganish”) nomli asarida nass haqida shunday keltirildi: “Ayrimlarning fikricha, nass dalolati qiyosga teng tushunchadir. Chunki nasning hukmiga o‘xshashini isbotlash undan boshqada xuddi o‘sha ma‘noning o‘zi bo‘lib chiqadi. Qiyos vositasida tushuntiriladigan ma‘noni esa, hech qanday tafakkursiz ham anglash mumkin bo‘ladi. U “uf” deyishning haromligiga o‘xshash bo‘lib, ozor etkazishning undan yuqori darajalari ham harom qilingan” . Mazkur degan jumlagi tadqiqotchilar havolada: “Qur’onda ota-onaga “uf” deyish ozor etkazishning eng oz darajasi bo‘lib, undan yuqori darajadagi ozor berishlari so‘kish, urish, haqorat qilish kabilar albatta, harom bo‘ladi”<sup>210</sup> deya izohlab, nassning hukmiga tushuncha berganlar.

Mushkilga ta’rif beradigan bo‘lsak, mushkil nassning ziddi bo‘lib, uning ma‘nosini teran fikrlash orqali tushunish mumkin bo‘ladi. Chunki uning mazmunida chalkashlik mavjud bo‘lgani bois, tinglovchida muayyan fikr uyg‘otmaydi. Husomuddin Axsikatiyning ushbu ta’rifini Doktor Valiyuddin Muhammad Solih Farfur “Mazhab fiy usul Mazhab a’la Muntaxab” asarining tabdil shaklida yanada kengroq tushuncha olish uchun Moida surasining 6-oyatidagi: **“Agar junub bo‘lsangiz...”** iborasini misol o‘rnida keltirib, mazkur jumladan murod badanni tozalab yuvish, uning botinini emas, balki zohirini tozalashdir, deya tushuntiradi [ya’ni mazkur oyatda tozalik talab qilinganidan so‘ng tafakkur qilindi].

Husomuddin Axsikatiy “Muntaxabu-l-Husomiy” asarida usulu-l-fiqhga oid asarlarning bayon matnida keltirilgan so‘zlar va istilohlarning aksi bo‘lgan atamalarni tushuntirish uchun alohida bob ajratgan. Ushbu bob “Bayon uslublarining ziddi bo‘lgan istilohlar” deb nomlanadi. Bunda ko‘p qo‘llaniladigan atamalarga nafaqat antonim bo‘lgan so‘zlarni, balki ularni muqobil shakllarini ham beradi. Jumladan, zohir (ظاهر), nass (نص), mufassar (مفسر) va muhkam (محکم) va ularning ziddi bo‘lgan xafiy (خفي), mushkil (مسکل), mujmal (مجمال) va mutashobih (متشابه)larni keltiradi. Shu o‘rinda muallif nafaqat lafzlarning ziddi va ularning ma‘nosiga e’tibor qaratadi, balki qo‘llanayotgan so‘zning maqsadini ham

---

<sup>210</sup> Aminov H, Muhammadaminov S. Abu Hafs an-Nasafi “Tahsil usul fiqh”. -T.: “Noshir”, 2015. - B-56

ochib berishga harakat qiladi. Masalan, “Xafiy – siyg‘a (so‘zning shakli)dan tashqari, boshqa biror sabab bilan maqsadning maxfiy bo‘lishi demakdir. Bunda maqsad talab qilish (qidirish, tadqiq qilish) orqali aniqlanadi”, deb ta’kidlanadi. Bu o‘g‘rilik haqidagi oyat<sup>211</sup> bilan izohlab beriladi. Mazkur oyat quyidagicha keladi: “O‘g‘ri erkak va o‘g‘ri ayolning qilmishlariga yarasha jazo va Allohdan azob sifatida qo‘llarini kesinglar! Alloh qudrat va hikmat egasidir”<sup>212</sup>. Doktor Valiyuddin Muhammad Solih Farfur tomonidan “Mazhab fiy usul Mazhab a’la Muntaxab” asarining tabdil shaklida “bu oyatda keltirilgan o‘g‘ri (kissavur)ga<sup>213</sup> umumiy ta’rif berilgan, lekin ularning aynan nima narsani o‘g‘irlagani (navi) aytilmagan (masalan, kafan o‘g‘risi haqida), ya’ni ularning ma’nosi mazkur oyatda maxfiy qolgan, chunki ular o‘ziga xos boshqa nomlar (jumlar) bilan ifodalanadi”<sup>214</sup>.

Ussulu-l-fiqh ilmidan kelib chiqqan holda xafiy (yashirin) so‘zning hukmida so‘zning yashirin ma’nosiga e’tibor qaratiladi. Bunda so‘zning yashirin ma’nosidagi ziyodalik<sup>215</sup> yoki nuqson<sup>216</sup> tadqiq qilinadi. Shundan so‘ngra murod (xafiydan ko‘zlangan maqsad) zohir bo‘ladi.

Mufassar va mujmal ham bir-biriga zid hukmlar bo‘lib, ularni alloma o‘z asarida qisqa jumlar bilan tushuntirib beradi. Mufassarning hukmi – ta’vil [izoh] va taxsis [biror ma’no bilan

---

<sup>211</sup> “Moida” surasi, 38-oyat. Qarang: Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

<sup>212</sup> Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – B. 71.

<sup>213</sup> Cho‘ntak o‘g‘risi. Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a’la Muntaxab. – Damashq, 1999. – B. 79

<sup>214</sup> Kissavur – arab tilida “tarror”, kafan o‘g‘risi esa “nabbosh” deb ataladi. Qarang: Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a’la Muntaxab. – Damashq, 1999. – B. 79

<sup>215</sup> Kissovurlikda o‘g‘rilik ma’nosidan ziyodaroq ma’no yashiringan, chunki bunda qattiq qo‘riqlanayotgan narsa o‘g‘irlanadi.

<sup>216</sup> Kafan o‘g‘irlash esa o‘g‘rilik ma’nosidan kamroq ma’noni anglatadi, chunki kafan qo‘riqlanmaydi.

xoslash]ni ehtimol qilmasdan qat'iy tarzda vojib<sup>217</sup> qilishdir. Lekin mufassar nasx bo'lishi va yoki almashtirilishi mumkin. Mazkur jumlaning tinglovchi o'z navbatida so'zlovchining so'zlashdan ko'zlagan maqsadi shubhaga o'rin qolmagan holda eshitguvchiga aniq-ravshan bo'lgan gap, deya izohlash mumkin. Shuningdek, alloma mujmalni mufassarning ziddi ekanligi, turli ma'nolarni qamrab olganligi tufayli tinglovchiga ishtibohli [chalkash] bo'lib qolishini bayon qiladi. Bunday vaziyatda mujmalning biror jihati (ma'nosi)ni bayon qilish bilangina unga oydinlik kiritish mumkin bo'ladi. Dalil sifatida Baqara surasining 275-oyatini keltirish mumkin<sup>218</sup>. Unga ko'ra, "Sudxo'rlar (qiyomat kuni qabrlaridan) jin chalib ketgan odam kabi (holatda) qo'padilar. Buning sababi - ularning: «Bay' (savdo-sotiq) ham sudxo'rlikning xuddi o'zi» degan gaplaridir. Holbuki, Alloh bay'ni halol, sudxo'rlikni (esa,) harom qilgan. Bas, kim Rabbidan nasihat etgach, (sudxo'rlikdan) to'xtasa, u holda avvalgi o'tgani o'ziga va uning ishi Allohga (havola). Kim yana (sudxo'rlikka) qaytsa, o'shalar do'zax ahlidirlar va ular unda abadiy qoluvchilardir"<sup>219</sup>, deya keltirilgan. Ushbu oyatni o'qigan inson oyatdan murod nima ekanligini batafsil tushunadi. Mujmalning hukmi esa, mufassarning aksi bo'lib, so'zlovchi eshitguvchiga so'zini izohlashiga ehtiyoj tug'diradigan jumladir. Husomuddin Axsikatiy mujmalni eshitguvchiga darhol qaror qabul qilishdan avval vaqf [to'xtab turish] qilishi kerakligi, so'ngra tushungach, qaror qabul qilishi mumkin, deya bayon qiladi.

Muhkam va mutashobih bir-biriga zid bo'lgan hukmlar bo'lib, muhkamni alloma aniq ma'noga ega so'z, deya izohlaydi. Muhkam ikki xil bo'lib, birinchi turida o'zgarish va bekor bo'lish ehtimoli bo'lmaydi. Muhkam olamning paydo bo'lganligi, Yaratuvchining

---

<sup>217</sup> Zarur, kerakli, majbur, mujburiyat. Qarang: A.Madvaliev tahriri ostida. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. - B-465

<sup>218</sup> "Baqara" surasi, 275-oyat. Ribo ortiqcha foyda ko'rish demakdir. Ortiqcha foyda ko'rishning turlari ko'p, ularning qaysi biri oyatda nazarda tutilganini aniqlash uchun hadislariga murojaat qilish zarur. Shu orqali ribodan nima iroda qilingani ma'lum bo'ladi.

<sup>219</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2020. - B.32

qadimligi va uning tavhidi va shunga o‘xshash masalalar borasidagi aqliy dalillardir. Muhkamning ikkinchi turi esa, Payg‘ambar (s.a.v) vafotlaridan keyingi eshitilgan qat‘iy dalillardan iborat<sup>220</sup>. Alloma mutashobihni bilishga aslo yo‘l bo‘lmagan so‘z, deya tushuncha berish bilan birga uning ma‘nosini izlab talab qilish bandalar zimmasidan soqit qilinganligini ham bayon qilgan.

Muhkamning ziddi mutashobih deb ataladi. Mutashobih– uni bilishga aslo yo‘l bo‘lmagan so‘zdir. Shuning uchun mutashobihning ma‘nosini izlab talab qilish (bandalarning zimmasidan) soqit bo‘lgan. Mutashobih bu Allohning sifatlarini bandalardagi sifatlarga o‘xshash qilib aytilgan oyat va hadislar bo‘lib, mazkur aqidaviy masalalar tufayli aqidaviy xilma-xilliklar va oqimlar paydo bo‘lgan. Shuning uchun alloma o‘z navbatida tushuncha berib o‘tgan. Muhammad ibn Hasan (rah.) dan Alloh taoloning sifatlari borasida kelgan, zohiri tashbehga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan xabarlar va oyatlar haqida so‘ralganda: “Ularni qanday keltirilgan bo‘lsa, shunday o‘qiymiz, ularga imon keltiramiz, biroq ularning ostida qanday ma‘no yotganligi to‘g‘risida bahs qilmaymiz”, deb javob bergan<sup>221</sup>. Doktor Valiyuddin Muhammad Solih Farfur tomonidan “Mazhab fiy usul Mazhab a‘la Muntaxab” asarining tabdil shaklida Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilingan Oli-Imron surasi 7-oyat [“U Sizga kitob (Qur‘on)ni nozil qilgan zotdir. Unda shu kitobning «onasi» sanalmish (ma‘nosi) aniq oyatlar va (shu bilan birga) boshqa mutashobih (ma‘nosi O‘zidan o‘zgaga noma‘lum) oyatlar ham bor. Ammo, dillarida og‘ish bor kimsalar odamlarni fitnaga solish va o‘z talqiniga muvofiq ma‘nolar berish uchun uning (Qur‘onning) mutashobih oyatlariga ergashadilar. Holbuki, unday oyatlar ta‘vili (asl ma‘nosi)ni faqat Allohning O‘zigina bilur. Ilmda mustahkam (haqqoniy olim)lar esa, deydilar: «Unga imon keltirdik. Hamma (oyatlari) Rabbimiz huzuridandir». (Bundan) faqat aql egalarigina eslatma olurlar”<sup>222</sup>

---

<sup>220</sup> H.Aminov, S.Muhammadaminov.Abu Hafs an-Nasafi “Tahsil usul fiqh”. “Noshir”,2015. - B-50

<sup>221</sup> H.Aminov, S.Muhammadaminov.Abu Hafs an-Nasafi “Tahsil usul fiqh”. “Noshir”,2015. - B-52

<sup>222</sup> Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjimasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – B.34

haqidagi hadisni misol tariqasida keltiradi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu oyatni tilovat qildilar: “U senga kitobni tushirgan zotdir. Unda muhkam oyatlar ham bor va ular kitobning aslidir va mutashobih (oyat)lar ham bor ...” – to mana bu so‘zigacha “Va faqat aql egalarigina eslaydilar”. Yana Oisha onamiz gaplarini davom ettirib: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Agar mutashobih oyatlarni kovlab yuradigan (unga ergashadigan) odamlarni ko‘rsang, bas ular – Alloh: “Ulardan saqlaniglar”, deb nomlagan kishilardir”. Ushbu oyatda muhkam va mutashobih bir vaqtda kelgan bo‘lib, mazkur oyat va hadisdan murod muhkam oyatlar aniq va ravshan, biroq mutashobih oyatlar insonning iymonini sinovchi oyatlar bo‘lganligi sababli ularning ma‘nosiga chuqur kirishdan va targ‘ib qilishdan yiroq bo‘lish tavsiya qilindi. Alloma hukmlarning qo‘llanilishi va bayoni xususida asarning uchinchi qismida “nazmning qo‘llanilishi va bayon bobida joriy bo‘lish uslublari” masalalari bilan davom ettirgan. Bu qismda to‘rtta atama haqiqat, majoz, sarif, kinoya tavsiflanadi. Haqiqat va majozni muallif “har bir lafz (so‘z) o‘zining aslida nimaga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘shaning ismidir<sup>223</sup>[to‘g‘ri ma‘noda qo‘llanilgan ibora]. Majoz – har bir lafz (so‘z) o‘zining aslida nimaga qo‘yilgan bo‘lsa, undan boshqaga qo‘llangan ismidir [ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan jumla]”, deya izohlaydi. Bunda so‘zning asl ma‘nosi bilan boshqa ma‘nosi orasida qandaydir bir bog‘liqlik bo‘ladi. Masalan, shijoatli insonni – sher, ahmoq odamni esa, eshak deb atash singari. Umumiy ta‘riflaganda, haqiqat bu so‘zning so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga o‘z ma‘nosini, majoz esa, ko‘chma ma‘nosini ifodalashdir. Shuning uchun alloma haqiqat va majoz bir vaqtda bir so‘zda kelishi mumkin emas, deya bir odamning egnidagi kiyimi bir vaqtda ham mulk, ham oriyat bo‘la olmaganiga o‘xshatib, sodda bayon bilan tushuncha berib o‘tgan.

**[ما تترك به الحقيقة]**

<sup>223</sup> Haqiqat uch qismga bo‘linadi: 1. Lug‘aviy haqiqat. Masalan, inson so‘zi lug‘atda tirik va so‘zlovchi jonzotga nisbatan ishlatiladi, bu so‘z lug‘at bilan muomalaga kiritilgan. 2. Shar‘iy haqiqat. Bunda shariat tomonidan biror so‘z muomalaga kiritiladi, masalan, salot (namoz) so‘zi. U lug‘atda duo ma‘nosini anglatadi, shariatda esa ma‘lum harakatlar bilan bajariladigan ibodatni anglatadi. 3. Urfiy haqiqat. Bunda urf-odatga ko‘ra muomalaga kiritilgan so‘zlar nazarda tutiladi.

ثم جملة ما يترك به الحقيقة خمسة انواع: قد يُترك (تترك) **بدلالة العادة وبدلالة محلّ الكلام كما مر**، وبدلالة المعنى يرجع الى المتكلم كما فى يمين الفور، وبدلالة سياق النظم كما فى قوله تعالى: {فمن شاء فليؤمن ومن شاء فليكفر انا اعتدنا للظالمين نارًا}، وبدلالة اللفظ فى نفسه، كما اذا حلف: "لا يأكل لحماً"، فأكل لحم السمك لم يحنث، وكذلك اذا حلف: "لا يأكل فاكهة"، فأكل العنب لم يحنث فى قول (عند) أبى حنيفة رحمه الله لقصور فى المعنى المطلوب فى الاول وزيادة فى الثانى .

Batafsil tushuncha olish uchun farzandning ota-onasini duo qilganida, uning ajdodlari ham inobatga olinishida ham majoz mavjud. Shundan kelib chiqib, ayrim ulamolar kinoyani ham majozga kiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Boshqalari esa, kinoyaning ta'rifini batafsil yoritib, tilda ma'lum ma'noni anglatuvchi so'zning boshqa ma'noda ishlatilishi bo'lsa ham, majozdan farqli ravishda so'zning asl ma'nosi bilan boshqa ma'nosi o'rtasida o'xshashlik mavjudligi bilan izohlaydilar. Alloma sarihni so'zlovchi tomondan ifodalangan so'zdan maqsad tinglovchiga tushunarli bo'lishi deya ta'riflaydi. Sodaroq bayon qilib, tushuncha berish maqsadida "Sarih" – "sotdim", "sotib oldim" va "hiba (sovg'a) qildim" kabi so'zlardir.

Husomuddin Axsikatiy "Muntaxabu-l-Husomiy" asarida sarih bilan kinoyaning hukmiga batafsil ta'rif berib, sarih — murodning ochiq-oydin, ravshan bo'lishidir, <sup>224</sup> kinoyaning hukmi esa, faqat niyatga qarab unga amal qilish vojib bo'ladi. Chunki kinoyada murod yashirin bo'ladi. Bu xuddi ommalashishdan oldingi majozga o'xshaydi.<sup>225</sup> Kalomdagi asl narsa sarih — ochiq-oydin, ravshan bo'lishidir. Kinoyada ma'lum bir qism nuqson mavjud, jumladan, maqsadni bayon qilishda etarli bo'lmaydi, balki niyatga bog'liq bo'lib turadi. (Kinoya va sarih orasidagi) bu tafovut shubha aralashgan o'rinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu sababli jazoni vojib qiladigan ba'zi sabablarni qilganini iqrar qilgan kishi modomiki sarih lafzni (masalan, zino qildim yoki o'g'rilik qildim

<sup>224</sup> Sarih zohirning yanada ravshanlashishidir. Masalan, bir kishi xotiniga: "Seni taloq qildim", desa va taloqni niyat qilmasa ham, taloq tushadi. Bu suratda hukm, ya'ni taloqning tushishi so'zning ayni o'zida mujassam bo'lgandir.

<sup>225</sup> Bu jumla "Iddangni sanayver" ma'nosida bo'lib, uning o'zi bilan hali yaqinlik qilinmagan ayolga taloq tushadi, niyat inobatga olinmaydi. Chunki idda sanash taloq mavzusi sanaladi.

deb ochiq-oydin) aytmasa, unga jazo tayinlash vojib bo‘lmaydi deb sodda uslubda bayon qilgan.

Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxabu-l-Husomiy” asarida hukmlarni bayon qilishda roviylarni turli shakldagi ishoralar bilan nomlagan. Masalan, “Ashoblarimiz shunday dedilar yoki ashoblarimiz aytdilarki” iborasi kelgan bo‘lib, “ashoblarimiz” so‘zidan murod Imom Abu Hanifa (ra) va ularning shogirdlaridir. Shuningdek, “Ashoblarimizning barchalarining aytishlaricha” iborasida hanafiylikda mashhur bo‘lgan ulamolar ijti hodlari va ra‘ylari, “ulamolar jamoasining aytishicha” deyilganda hanafiylik va boshqa mazhablar ulamolarining qavllari ko‘zda tutilgan.

“Shayxlarimiz yoki diyorumiz shayxlari” – Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy, Abu Zayd Dabusiy kabi Movarounnahrdan etishib chiqqan allomalar, “Iroq shayxlari aytdilarki” iborasida Abu-l-Hasan Ubaydulloh ibn Hasan Karxiy kabi Iroq hududidan etishib chiqqan olimlar, “faqihlarimizning aytishlaricha” iborasi esa, usuldan furu‘ni ajratib olgan hanafiy ulamolar, “Mutakallimlarning barchalarining aytishlaricha” iborasida – Imom Haramayni Juvayniy (1027–1086)<sup>226</sup>, Imom G‘azzoliy (1058–1111)<sup>227</sup>, Imom Moturidiy kabi kalom ilmidagi mashhur olimlar nazarda tutilgan, “faqihlarning aytishlaricha yoki aytdilar” iborasi hanafiylik mazhabida usuldan furu‘ni bino qilgan olimlarni, “usul ahli ommasi aytdilar yoki aytishlaricha” iborasi – hanafiylik va boshqa mazhablarning usul olimlarini, “zohir narsalar egalari aytdilar” jumlasini “Ashab Zohir” deya kelgan iborada nassning zohiriy jihatlarini qabul qilgan olimlar va ularning shogirdlarini anglatgan.

Ma‘lumki, ko‘plab ulamolar o‘z asarlarining muqaddima qismida mazkur asar haqida qisqacha ta‘rif berib, so‘ng asosiy matnga o‘tganlar. Biroq ushbu qoidadan xoli o‘laroq, Husomuddin Axsikatiy o‘z asarini yozishda unga nom bermagan. Basmaladan so‘ng Allohga hamd va Rasuliga salavotlar bo‘lsin deya usul

---

<sup>226</sup> Nishopurlik mashhur olim, faqih. To‘liq ismi: Abu Ma‘oliy Ziyovuddin Abdulmalik ibn Abdulloh Juvayniy. Avval Makkai Mukarramada, keyin Madinai Munavvarada ilm tahsili bilan birga, muftiylik ham qilgan. Shu bois imom Haramayni (Ikki haram imomi) degan unvonga sazovor bo‘lgan.

<sup>227</sup> To‘liq ismi: Abu Homid Muhammad G‘azzoliy. Tus shahrida tug‘ilib o‘sgan.

manbalari bayoni haqida soʻz yuritgan. Balki, mazkur asar Husomuddin Axsikatiyning “Gʻoyat Tahqiq” asarini muxtasar koʻrinishi boʻlganligi sababli mazkur asarga muqaddima bitilmagandir. Lekin ayrim tadqiqotchilar mazkur asarni «Usulu-l-Bazdaviy» asosida tuzilgan muxtasar risolalar sirasiga kiritadi va boshlangʻich talabalarga fanning asosiy tushunchalarni yod olishlari uchun tayorlangan, deb taʼkidlaydi<sup>228</sup>. “Muntaxabu-l-Husomiy” asarida uchragan iqtiboslar mualliflari zikr etilgan. Bu esa, asarni aynan bir muallifga tayanib yozildi, degan fikrni inkor qiladi. Balki, Husomuddin Axsikatiy “Usulu-l-Bazdaviy” asaridan ilhomlangan holda, talabalar oʻrganishi uchun osonlashtirgan tarzda oʻzining “Gʻoyat Tahqiq” asarini qisqartirgan, degan taxmini ilgari surish mumkin.

Tadqiq etilayotgan davrlarda madrasada faoliyat yuritayotgan mudarrislar va taʼlim olayotgan talabalar uchun oʻz davrining mashhur ulamolari tomonidan maxsus taʼlim dasturlari va darsliklari tuzildi. Bunga Abu Hafs Nasafiyning “Matlaʼu-n-nujum va majmaʼu-l-ʼulum” toʻplami dalil boʻla oladi<sup>229</sup>. Islom tarixida koʻp uchraydigan hodisalardan biri mashhur ulamolarning ham nazariy, ham amaliy bilimlar bilan shugʻullanganligidir. Xususan, yuqorida tilga olingan Abu Hafs Nasafiy kabi Husomuddin Axsikatiy ham Buxoro madrasalaridan birida mudarris sifatida faoliyat yuritgan. Bu ayrim murakkab manbalarni ayniqsa, fiqhning usulu-l-fiqh yoʻnalishi boʻyicha soddalashtirilgan va qisqartirilgan shaklini yaratishni taqozo etgan. Shu bois bu masalada Husomuddin Axsikatiy oʻzining va boshqa mualliflarning asarlaridan “muntaxab” qilgan holda “Muntaxabu-l-Husomiy”ni yaratgan.

“Muntaxabu-l-Husomiy” asarida kelgan istilohlarni Doktor Valiyuddin Muhammad Solih Farfur tomonidan “Mazhab fiy usul Mazhab aʼla Muntaxab” asarining tabdil shaklida berilgan tavsiflar

---

<sup>228</sup> Gʻaybullaev S. Faxrul-islom Pazdaviyning «Usul» asarida hanafiy usul qoidalari tahlili. Avtoreferat. - B-18

<sup>229</sup> Muhammadaminov S. Abu Hafs An-Nasafiyning “Matlaʼ an-Nujum va majmaʼ ʼulum” asari va uning markaziy osiyo islom ilmlari rivojida tutgan oʻrni (XI asr oxiri – XII asr oʻrtalari). 07.00.08 – tarixiy manbashunoslik. Avtoreferat. - B-23

asar haqida keng tushuncha hosil qiladi. Mazkur istilohlar quyidagicha<sup>230</sup>:

“عندنا” – “Bizning nazdimizda”, degan istilohni muallif ixtilofli masalalarda keltirib, u bilan hanafiylarning rayiga ishora qiladi. Misol uchun, ushbu kitobda quyidagicha keladi: “Ommning hukmi, uni o‘z ichiga oladigan narsada xuddi xos kabi, ham qat’iyan, ham yaqinlan hukmni vojib qiladi. Bu esa, bizning nazdimizda, Shofe’iylarga xilofdir”;

“قيل” – “Aytildi” – muallif bu istilohni zaif so‘zga ishora qilish uchun keltiradi. “قلنا” – “Aydik”: muallif bu so‘zni “قيل” – “Aytildi”, degan so‘zga javoban yoki biror qoidaga dalil keltirishda zikr qiladi. Misol uchun, “Shunga muvofiq biz shunday dedik”, tarzida;

“ومن الناس” – “Insonlardan ba’zilari”- muallif bu so‘zni biror kishi aytgan so‘zining zaif ekanini yoki o‘sha fikr muallifga xilof ekanini bildirish maqsadida keltiradi. Misol uchun, muallif nazmning hukmlari borasidagi to‘rtinchi qismda shunday yozadi: “Insonlardan ba’zilari matnlarga o‘zgacha ko‘rinishda amal qiladilar. Bu esa, bizning nazdimizda fosiddir”;

“الجمهور” – “Jumhur”- muallif bu so‘z bilan jumhur usulu-l-fiqh ulamolarini iroda qiladi. Jumladan, asarning 11-sahifasida bunday keladi: “Albatta, amr siyg‘asi fe’l sarflanishidan bo‘lgan xos lafz bo‘lib, xos ma’noga qo‘yilgandir. U esa, fe’lning talabidir. Jumhurning nazdida lozim tutishni vojib qiladi. Lekin dalil kelsa unday bo‘lmaydi”;

“الصحيح من مذهب أصحابنا” – “Sohiblarimiz mazhabining to‘g‘risi”, degan istiloh bilan hanafiy mazhabida biror masala borasida turli qavllar bo‘lsa, o‘sha qavllar ichida hanafiy mazhabi nazdida dalil uchun eng sahihrog‘i nazarda tutiladi. Chunki muallif: “Amr zudlik bilan bajarishni ifoda etadimi yoki bemalol vaqtda ado etishni taqozo qiladimi?”, degan savolga quyidagicha javob beradi: “So‘ngra amr mutloq vaqtni o‘z ichiga oladi... Sohiblarimiz (rah.a)imlar mazhabidagi eng sahih qavl, amr tezlik bilan bajarilishni vojib qilmaydi”;

---

<sup>230</sup> Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a’la Muntaxab. – Damashq, 1999. – B. 15-17

“المشايع” – “Mashoyixlar”, degan istiloh bilan hanafiy shayxlarning aksari iroda qilinadi. Bu istiloh biror hukm qasd qilingan matn bilan vojib bo‘ladimi yoki sababning o‘zi bilan ham vojib bo‘laveradimi degan masalada ishlatiladi. Misol uchun, muallif bunday deydi: “Mashoyixlar hukm qasd qilingan matn bilan vojib bo‘ladimi yoki adoni vojib qiladigan sabab bilan vojib bo‘ladimi? degan masalada ixtilof qildilar”, -deb ta’kidlaydilar;

Demak, bu erda zikr qilingan mashoyixlardan maqsad, hanafiy mashoyixlardir. Chunki ular mana shu masalada ixtilof qilganlar. Lekin ularning aksariyati “Hukm adoni vojib qiladigan narsa bilan vojib bo‘ladi, yangi buyruq bilan emas,” deb aytganlar;

“تقول” – “Biz aytamiz”. Muallif bu istilohni nahiy hukmlari borasida so‘z yuritganda ishlatadi. Ya’ni, g‘asb qiluvchiga g‘asb qilib olgan narsasi mulk bo‘ladimi yoki yo‘qmi, degan masalada muallif shunday deydi: “Biz g‘asbda mulk sobit bo‘ladi demaymiz, balki, shar’iy hukm uchun shart bo‘ladi. U ham bo‘lsa, zoman (tovon)dir”. Muallif bu erda “تقول” degan so‘zi bilan Imom Shofe’iyga xilof o‘laroq hanafiylarning rayini iroda qiladi. Chunki Imom Shofe’iy g‘asb haqida shunday degan: “G‘asb bilan mulk aslo sobit bo‘lmaydi”;

“العلماء” – “Olimlar”. Muallif bu istiloh bilan hanafiy, shofe’iy va ahli hadis ulamolarini iroda qiladi. Muallif bu iborani kitobning 22-sahifasida amr va nahiyning hukmida quyidagicha keltirgan: “ulamolar bu borada ixtilof qilganlar”;

“المختار” – “Ixtiyor qilingan”. Muallif bu ibora ila hanafiylar nazdida ixtiyor qilingan ray’ni iroda qiladi;

“إجماعهم” – “Ularning Ijmosi”. Muallif bu ibora ila barcha musulmonlarning Ijmosini nazarda tutadi. Muallif kitobning 23-sahifasida shariat sabablari haqida so‘z yuritib shunday deydi: “Bu aslning dalolati musulmonlarning uxlab qolgan odamga namoz vojib ekaniga qilgan Ijmolaridir”;

“أفضل” – “Afzal”. Muallif bu so‘zni kofir va go‘dakning suvni najosat ekani haqida bergan xabariga amal qilish yoki qilmaslik masalasida keltiradi. Muallif shunday deydi: “Agar suvning najosat ekani haqida xabar bergan kofir va go‘dakning rostgo‘y ekanini

eshitgan odam o'sha suvdan tahorat oladi, tayammum qilmaydi. Lekin suvni to'kib yuborib, keyin tayammum olgani afzaldir...<sup>231</sup>”;

“المذهب المختار” – “Ixtiyor qilingan mazhab”. Muallif bu ibora ila barcha fiqh va hadis ulamolarning mazhabini iroda qiladi;

“العبادة الثلاثة” – “Uch abodila”. Muallif bu so'zi ila uch buyuk sahobani nazarda tutadi. Ular: Abdulloh ibn Mas'ud, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumlar. Muallif bu uch sahobani ohod xabar hujjat bo'lishi haqida so'z yuritganda keltiradi. Masalan, asarda bunday keladi: “Agar roviy Xulafoii roshidinlar va uch abodila kabi fiqh va ijthodda peshqadam bo'lish bilan tanilgan bo'lsa”;

“مشايخنا” – “Mashoyixlarimiz”. Muallif bu so'z bilan Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad (rah.a)imlar kabi mutaqaddim bo'lgan hanafiy imomlarni iroda qiladi;

“علمائنا” – “Ulamolarimiz”. Bu ibora bilan hanafiy ulamolar nazarda tutiladi. Masalan, asarda shunday keladi: “Shunga ko'ra ulamolarimiz (rah.a)imlar hayoti so'ngida bir insonga uzugini va boshqa kishiga esa, o'sha uzukning ko'zini vasiyat qilgan kishi haqida shunday deganlar....”.

Yuqorida ko'rib chiqilganidek, “Muntaxabu-l-Husomiy” asari o'ziga xos bayon uslubiga ega bo'lib, unda ko'p qo'llaniladigan fiqhiy atamalarning nafaqat antonim, balki ularni muqobil shakllari ham keltirib o'tilgan. Xususan, zohir (ظاهر), nass (نص), mufassar (مفسر), muhkam (محكم) va ularning ziddi bo'lgan xafiy (خفي), mushkil (مسكل), mujmal (مجمل), mutashobih (متشابه) kabi atamalarni bunga misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Asarga o'z davrda va keyingi asrlarda bir nechta sharhlar yozilgan. Mazkur asarni tadqiq qilish Husomuddin Axsikatiyning ilmiy-ma'naviy merosini to'liq o'rganish, XI-XIII asrlardagi nafaqat Movarounnahr, balki Farg'onaning ilmiy-ma'naviy muhiti haqida ham muhim ma'lumotlar olish imkonini beradi. Shuningdek, asar Qoraxoniylar hukmronligi davrida mavjud bo'lgan ta'lim tizimi, darsliklar tarixi, o'qitish uslublari, ma'ruza matnlarini tayyorlash, usulu-l-fiqhda faqih e'tibor qaratishi lozim bo'lgan matnlarning grammatik tuzilishi, keltirilgan iboralar, so'zlarning ma'nolari kabi jihatlarini

---

<sup>231</sup> Abdulaziz Buxoriy. Kashf asror 'an usul faxr islam Pazdaviy. – J. 3. – B. 47.

ham yoritib beradi. Bundan tashqari, arab tilining balog‘at ilmga oid bo‘lgan ko‘makchi va bog‘lovchilarning fiqhdagi ta‘siridan kelib chiqqan holda alohida bobda fiqhiy misollar yordamida ochib bergan.

### **3.3“Muntaxabu-l-Husomiy” asarining matn tahlili.**

Yuqorida aytilganidek, allomaning “Muntaxabu-l-Husomiy” asari fiqh borasida ko‘zga ko‘ringan manbalardan biridir. Asar matnining ayrim o‘ziga xos xususiyatlarini aytib o‘tish joizdir.

Asar o‘rta asrlarga xos bo‘lgan yozish uslubi va an‘analarini davom ettirgan holda, nat qismida Alloh va Muhammad (s.a.v)ga nisbatan hamdusanolar bilan boshlanadi. Shundan so‘ng shariatning asl (asos)lari haqida so‘z borib, “kitob (Qur‘oni Karim), Sunnat, Ijmoi ummat” haqida so‘z boradi, to‘rtinchisi esa, mazkur uch asosdan chiqarib olingan qiyos ekanligi alohida ta‘kidlanadi.

Muqaddas manba, shuningdek, “Islom huquqi”ning asosi Qur‘oni Karimga to‘xtalib, quyidagicha ta‘rif beriladi: “kitob – Muhammadga ((s.a.v)) nozil qilingan, mushaflarga yozilgan va U zotdan shubha aralashmasdan mutavotir tarzda naql qilingan Qur‘ondir.

Ulamolar jamoasining so‘ziga ko‘ra, u (kitob) ham nazm, ham ma‘nodan tarkib topgandir. Bu (fikir) Abu Hanifa (Alloh u kishini rahmat qilsin) mazhabida (aytilgan) to‘g‘ri (fikir)dir. Lekin (u kishi) xosssatan namozning joiz bo‘lishi masalasida nazmni lozim qilmaganlar”.

Mazkur manba mavzulari bir necha fasllardan iborat. O‘z navbatida har bir fasl (bo‘lim) muayyan qism (paragraf)ga bo‘linadi.

Mazkur manbaning ikkinchi fasli “Fosid (buzilgan) xulosalar haqida” bo‘lib, bu faslda bir nechta bahslar mavjud. Bular:

“Muxolafat” (qarama-qarshilik) tushunchasi;

Birinchi bahs: “Laqab” tushunchasi;

Ikkinchi bahs: “shart va sifat” tushunchasi;

Uchinchi bahs: Mutlaqni mutlaq holda muqayyadga bog‘lash;

To‘rtinchi bahs: Omm mutlaq bo‘lgani sababli uni xoslash;

Beshinchi bahs: Iqtiron (yaqin bo‘lish, o‘xshashlik)ning dalolati.

Shundan soʻng manbada “Amr” haqidagi fasl keltirilgan. Unda “amrning vojib qiluvchi holat, man etishdan oldingi va keyingi amr, mutlaq aytilgan amr, vaqtning zarf sifatida qoʻllanilishi, sababiyatning vaqtni oxirgi qismiga koʻchishi” borasidagi tafsir bayon qilingan. Ushbu vaqt xususidagi fiqhiy masalalar namoz, roʻza va haj ziyoratlarini amalga oshirish kabi farzlar borasida aniq dalillar bilan keltirilgan.

“Vaqt meʼyor — oʻlchov va sabab qilingan ibodatlar haqida” gi ikkinchi navʼ ibodatlarda sobitqadam boʻlish, ularning qazosi va qabul boʻlishiga kafforat bor-yoʻqligi kabi fiqhiy masalalar yoritib berilgan.

Uchinchi nav “Kengligi va torligi mushkil boʻlgan vaqt bilan oʻlchangan ibodatlar haqida” boʻlib, asosan haj amali va uning farzi, shuningdek, hajning qatʼiy belgilangan vaqti haqida bayon qilinadi. Kishi umri vafo qilib keyingi bir hajga qodir boʻlishi nomaʼlumligi alohida taʼkidlanadi.

Manbadagi yana bir qiziqarli va muhokamalarga boy fasllardan biri “Buyruq bilan qilingan vojibning hukmi”ga bagʻishlanadi. Mazkur faslda uning ikki turi, yaʼni: ado va qazo xususida soʻz boradi. Ado — ayni vojibni sababi bilan haqdoriga topshirmoq. Qazo — vojibni oʻz huzuridan bir misli, oʻxshashi bilan soqit qilmoq, holbuki shu uning haqqi edi. Masalan, “bir kishi Ramazon oyida toʻliq eʼtikof oʻtirishni nazr qilsa, roʻza tutsayu, ammo eʼtikof oʻtirmasa, eʼtikof qazosi maqsud qilingan roʻza bilan qilinadi. Chunki, eʼtikof vaqtning roʻzasidan ajragach, uning sharti asliy kamolotga qaytadi, bunda qazo boshqa bir sabab bilan vojib boʻlgani yoʻq”.

Jamiyat hayotida bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan raddiyalardan biri “Nahiy” boʻlib, mazkur manbada unga alohida fasl keltirilgan. “Nahiy borasidagi fasl” asosan hayotiy masalalar muhokamasiga bagʻishlanadi. Masalan, “azon vaqtida savdo sotiq qilish, birovdan tortib olingan joyda namoz oʻqish, hayz paytida jinsiy aloqa qilish kabilar”. Bularning hukmi — nahiydan keyin shariat yuzasidan durust boʻladi. “shuning uchun ham biz aytamizki, hayz paytida vatiy qilsa, (uchtaloq qilgan)

birinchi eriga halol qilib beradi. Va shu vatiy sababli vatiy qiluvchining muhsinligi sobit bo‘ladi”.

Umuman olganda, “Nahiy” (qaytariq) – qubh, yomonlik sifatidadir. Amr go‘zallik sifatida qismlarga bo‘linganidek, nahiy ham bir necha xil bo‘ladi:

– aynan o‘zidagi asliy yomonlik bo‘lgan narsa. Masalan, kufr va abas – behuda narsalar (dunyoga ham, oxiratga ham foydasi tegmaydigan ishlar).

– shar’iy jihatdan ahliyyat va mahalliyyat bo‘lmaganligi vositasida yuqoridagi birinchi qismga qo‘shiladigan nahiylar. Masalan, betahorat namoz o‘qish, hur (ozod) odamni sotish, musiqa va cholg‘u asboblarini sotish.

Bulardagi nahiyning hukmi – shariatda aslo joiz emas,ligini bayon qilishdir.

Inson hayoti davomida amal qilishi kerak bo‘lgan vojib amallar bo‘yicha “Shariatdagi ko‘rsatmalar, ya’ni mashru’ ishlarning sabablari bayonidagi” fasl bo‘lib, unda diniy ahkomlar o‘z ifodasini topgan.

Bilamizki, dinning asli va furu‘lari sabablar bilan mashro‘ bo‘lib, ularni shariat o‘sha narsalarga sabab qilgandir. Masalan, “Baytullohni haj qilmoq, ramazon oyida ro‘za tutmoq, namozlarni o‘z vaqtida o‘qimoq, jinoyatlarga uqubat berish kabilarning hammasi o‘z sabablari bilan bo‘ladi. Ibodat bilan uqubat orasida aylanuvchi kafforat berishlar esa, shubhasi bor dalilga suyangan biror sababdan unga izofa qilingan narsa bilan bo‘ladi, bu sabab mubohlik va taqiq orasida bo‘ladi”. Muomalotlar esa, o‘zaro oldi-berdisi bilan taqdir qilingan baqoga taalluqli bo‘ladi; yana ular olamni hodis ekanligiga dalolat qiluvchi oyatlarga iymon keltirishga taalluqli bo‘ladi. Albatta, amr bizga sababi bilan vojib bo‘lgan narsaning adosini lozim qilish uchundir. Masalan, savdoda pul vojib bo‘ladi, so‘ng adosi talab qilinadi.

“Bunda asl (usul) dalolat qiladiki – uxlab yotuvchiga, jinniga va hushdan ketganga (agar hushdan ketishi va jinniligi bir kecha-kunduzdan ziyoda bo‘lmasa) namozning vojib bo‘lishiga ulamolar Ijmo qilganlar”.

Mazkur asarning fiqhiy manbalar ichida o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligi bir necha allomalar va tadqiqotchilar tomonidan alohida e’tirof etilgan bo‘lsa-da, uning mukammal yaratilgan mundarijasini isbot sifatida keltirish o‘rinlidir. Shuningdek, fiqhning barcha sohalari va yo‘nalishlarini qamrab olganligi ayni haqiqatdir. Ular orasida esa, “Azimat va ruxsat borasidagi” faslning mavjudligi uning manbaviy ahamiyatini yanada orttiradi.

“Azimat “inson o‘zining zimmasiga bir ishni qilishni yuklash” va ruxsat “engil oson bir hukmni tanlash” borasidagi fasl – farz, vojib, sunnat va nafl kabi amallarning muhokamasiga bag‘ishlanadi.

Shariat hukmlaridagi azimat — asl bo‘lgan va oriziy (keyin paydo bo‘ladigan ikkilamchi) narsalarga bog‘liq bo‘lmagan hukmlarning ismidur.

Ruxsat esa, bandalarning uzrlariga bino qilingan amallarning hukmlari ismidur.

Azimat to‘rt qismga bo‘linadi: farz, vojib, sunnat va nafl.

Farz — vojibligi shubhasi bo‘lmagan bir dalil bilan sobit bo‘lgan hukmdir. Farzning hukmi bilib, qalbla tasdiqlab, badan bilan amal qilishni lozim tutadi. Toki uni inkor qilgan odam kofir hisoblanadi. Uzrsiz tark qilgan kishi esa, fosiq bo‘ladi.

Vojib — vojib bo‘lishida shubha (ehtimol) bo‘lgan dalil bilan sobit bo‘lgan hukmdir. Vojibning hukmi badaniy amallar bilan bajarishdir, yaqiniy ilm lozim emas,dir. Uni inkor qiluvchi kofir bo‘lmaydi, uni tark qiluvchi banda ohod hadislarda kelgan xabarlarni engil sanasa fosiq bo‘ladi, ammo ta‘vil qilsa fosiq deyilmaydi.

Bundan tashqari, “Muntaxabu-l-Husomiy” asarida “Sunnatning qismlari borasidagi bob”, “Muhammad (s.a.v.) amallarining turlari” haqidagi bob, “Ijmo”, “Qiyos”, “Zakot”, “Man qilish qismlari”, “Aql haqidagi ixtiloflar”, “Kasb qilingan (keyin paydo bo‘lgan va orttirilgan) orizlar borasidagi fasl” kabi boblar mavjud<sup>232</sup>. Ularda fiqhiy masalalar aynan “Usulu-l-fiqh” uslubida tahrirlangan va dalillangan. Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining xotima qismi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi

---

<sup>232</sup> Qarang: Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.

bilan boshqa manbalardan farqlanib turadi. Bunda ayrim harflarning ma'nolari borasida fikr yuritiladi. U "Ma'nolarning harflari borasidagi bobi" deb nomlanib, unda arab tilidagi «و» ("vov"), «ف» ("faa"), «ثم» ("summa"), «بل» ("bal"), «لكن» ("lakinna"), «حتي» ("hattaa"), «أو» ("av") kabi bog'lovchilar va harfi jar (Qaratqich kelishigi) «الي» ("ila"), ("ba"), «في» ("fi"), «علي» ("a'laa") hamda harfi shart (Tushum kelishigi) «أن» ("in"), «اذا» ("izaa"), «متي» ("mataa"), «من» ("man"), «ما» ("maa"), «كل» ("kul"), «كلما» ("kullama")lar zikr etilgan<sup>233</sup>. Muallif harflarga ba'zi shar'iy hukmlarni ham bog'lab ko'rsatgan va fiqhiy jihatdan foydalanish uchun qo'shimcha sifatida ularni kitobning oxirida keltirgan<sup>234</sup>. Jumladan, alloma و ("vov") harfi haqida "Fiqhiy masalalarning yarmi [shu] harflar asosiga bino qilingan. Ulardan eng ko'p uchraydigani — atf (bog'lovchi) harflardir. Atfdagi asl (asosiy harf) — و ("vov") dur. Bizning mazhabimizda birga turishga va tartib bilan kelishga hech bir ziddiyat (ta'oruz) bo'lmasa, و ("vov") harfi mutlaq jamlash (ya'ni, birga bo'lish) ma'nosida keladi. Lug'at ulamolari va fatvo imomlarining ommasi mana shu fikrda. "Agar men uni nikohlab olsam, bas, u taloq bo'lguvchidur va taloq bo'luvchidur va taloq bo'luvchidur", desa, faqat bitta taloq tushadi. Bu Abu Hanifa (r.a.) qavli (so'zi)dur. Ammo Ikki sohiblari bunga xilof qilishgan. Ular: "Zarurat yuzasidan ikkinchisi birinchisining vositasi bilan shartga bog'landi. Bu erda و ("vov") harfi taqozo qilinmaydi", degan fikrga kelganlar", degan ma'lumotni keltiradi<sup>235</sup>.

Fiqhiy masalalarning yarmi shu harflarga bino qilingan. Ulardan eng ko'p uchraydigani — atf (bog'lovchi) harflardir. Atfdagi asl (asosiy harf) — "vov" dur. Bizning mazhabimizda birga turishga va tartib bilan kelishga hech bir ziddiyat (ta'oruz) bo'lmasa, "vov" harfi mutlaq jamlash (ya'ni, birga bo'lish) ma'nosida keladi. Lug'at ulamolari va fatvo imomlarining ommasi mana shu fikrda.

<sup>233</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O'zR FA ShI. Asosiy fond. Qo'lyozma. №10718/1 – B. 72a-78b.

<sup>234</sup> Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usulu-l-mazhab a'la Muntaxab. – Damashq, 1999. – B. 18-20.

<sup>235</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O'zR FA ShI. Asosiy fond. Qo'lyozma. №10718/1 – B. 73a.

Albatta quyidagi gapda tartib bor: “Agar men uni nikohlab olsam, u taloq bo‘lguvchidir va taloq bo‘luvchidir va taloq bo‘luvchidir”, desa, faqat bitta taloq tushadi. Bu Abu Hanifa (rah.a)ning so‘zidir. Ammo Ikki sohiblari bunga xilof qilishgan. Ular: “Zarurat yuzasidan ikkinchisi birinchisining vositasi bilan shartga bog‘landi. Bu erda “vov”harfi taqozo qilinmaydi”, deganlar. Quldor: “Ozod qildim buni va buni”, deb “vov” bog‘lovchisi bilan aytgan holat ham shunga misol bo‘ladi.

Boshqa bir misol<sup>236</sup> bilan kengroq tushuncha berilsa, bobo fuzuliy [vasiy] sifatida ikki yosh nabirasini — qizchani nikohlab qo‘ymoqchi bo‘lib “Nikohladim senga buni va buni” desa, ikkinchisining nikohi botil bo‘ladi. Chunki kalomning oxirida boshini o‘zgartirib yuboradigan ma’no bo‘lmasa, gapning boshi oxiriga tegishli bo‘lmaydi. Shu boisdan, birinchi qulning ozod bo‘lib ketishi bilan ikkinchisining haqqiga ham bu gapning tegishli bo‘lishini botil qiladi. Ammo ikki qizchani nikohlab berishda esa, ikkinchisini nikohlab berish uni gapirishi (uni ozod qilishini gapirishida, va nikohini)dan oldin botil bo‘ladi. Ammo fuzuliy kishi ikki opa-singilni ikki nikoh aqdi (ikki marta nikoh) qilib, bir odamga nikohlab bergan holatda esa, boshqa gap. Bunda er bo‘lmish: “Ijzat berdim mana bunisi va bunisining nikohiga”, desa har ikki nikoh botil bo‘ladi. Chunki bu kalom (gap)ning boshlanishi nikohning joiz bo‘lishi uchun aytiladi. Agar so‘zboshiga kalomning oxiri qo‘shilsa, joizlik yo‘qoladi. Natijada, kalomning oxiri so‘zboshiga nisbatan shart va istisno kabi bo‘lib qoladi. Gohida “vov” bog‘lovchisi xabari (kesimi) bilan tugal bo‘lgan jumlagacha kiradi. Bunday vaziyatda xabarda sheriklik lozim bo‘lmaydi. Masalan, bir kishi ikkita xotiniga qarab: “Bunisi taloq uchta va bunisi taloq” desa, shubhasiz, ikkinchi xotini bir taloq bo‘ladi. Chunki ikkinchi gap tugal bo‘lmagani bois xabarda sherik bo‘lish zaruriyatiga muhtojdir. Bu kalom noqis (notugal) bo‘lgandagi holat.

Ammo kalom komil bo‘lsa sherik undovchi ma’no ketadi. Shuning uchun aytamizki, birinchi gapni tugal qilib turgan xabarning (kesimning) aynan o‘ziga noqis jumla sherik bo‘ladi.

---

<sup>236</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.-B.73

Masalan, er xotiniga: “Agar hovliga kirsang taloqsan va taloqsan”, desa, ikkinchi “taloq” so‘zi mana shu shartning aynan o‘ziga bog‘liq bo‘laveradi va mustaqil gap bo‘lishni taqozo qilmaydi. Er go‘yoki birinchi gapini takrorlaganday hisoblanadi.

Ammo quyidagi misolda mustaqil jumla hisoblanadi: “Keldi, mening oldimga Zayd va Amr”. Chunki bitta kelishda sheriklik tasavvur qilinmasligi zaruratidan mustaqil ma’no olinadi (Zero, har bir kishi o‘z oyog‘i bilan alohida tarzda keladi).

Gohida “vov” harfi hol uchun ham istiora qilib olinib, “vov” xoliyat deyiladi. Bu erda ham ja‘m (birgalik) ma’nosi bor. Chunki hol zulhol (hol egasi) bilan birga bo‘ladi. Bunga oyati karimada ham misollar ko‘p.

Alloh taolo marhamat qiladi:

وَسِيقَ الَّذِينَ اتَّقَوْا رَبَّهُمْ إِلَى الْجَنَّةِ زُمَرًا حَتَّىٰ إِذَا جَاءُوهَا وَفُتِحَتْ أَبْوَابُهَا وَقَالَ لَهُمْ خَزَنَتُهَا سَلَامٌ عَلَيْكُمْ طِبْتُمْ فَادْخُلُوهَا خَالِدِينَ ﴿٢٣٧﴾

“Parvardigorlaridan qo‘rqan taqvoli zotlar ham guruh-guruh holda jannatga boshlab borilur. To qachonki, ular uning darvozalari ochilgan holda ekanida etib kelganlarida va uning qo‘riqchilari: «Sizlarga salom! Xush keldingiz! Bas, unga mangu qoluvchi bo‘lgan xolingizda kiringiz!» – deganlarida (ular behad shodlanurlar)”<sup>237</sup>.

Ya’ni, darvozalari ochilgan holda bo‘ladi.

Boshqa misol. Bir kishi quliga: “Menga mingni ado qilgin va sen hursan”, desa; yana birov dushman mamlakatidan kelgan odamga: “Kel, bizda qo‘nim top va sen omondasan”, desa, bu gaplarda “vov” hol uchun bo‘ladi.

Demak, birinchi misolda qul ozod bo‘lmaydi, mingni ado qilsagina ozod bo‘ladi. Ikkinchi misoldagi harbiy kofir ham to kelib qo‘nim topmaguncha (tushmaguncha) omonlik topmaydi.

“Fa”, bis (demak) bog‘lovchisi – bu vasl bog‘lash va ta’qib – izma-iz kelish uchundir. Shuning uchun bir kishi xotiniga “Agar, mana shu hovliga kirsang, keyin mana shu hovliga sen taloqsan”, desa, albatta bu erda “in” (agar kirsang deb qo‘yilgan) shart birinchi

---

<sup>237</sup> Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – B. 466.

jumladan keyin (taroxiy qilmasdan) to‘xtovsiz ikkinchi jumlagga o‘tadi.

Agar ish bardavom ishlardan bo‘lsa “fo” illatlarga ham kiradi (sabablarga kirganidek). Bunda taroxiy (kengchilik, bemalolchilik) ma’nosida bo‘ladi. Masalan, “Xursand bo‘l, bas, senga yordam keldi” jumlasidagi kabi.

Shunga binoan aytamizki, bir kishi quliga: “Menga mingni ado qilgin, bas, sen hursan”, desa, darhol ozod bo‘ladi. Chunki ozod bo‘lish doimiy, bardavom ishlar jumlasidandan bo‘lgani bois, uning bu gapi taroxiy (bemalol, izma-iz emas,) kalomlar sirasiga o‘xshatildi<sup>238</sup>.

“Summa” (so‘ngra) bog‘lovchisi – u ham taroxiy yo‘liga ko‘ra bo‘ladigan atf uchundur. Abu Hanifa (rah.a)ning nazdida taroxiy qat’iy vajhga ko‘ra hukm va so‘z jihatdan xuddi endi boshlagandek bo‘ladi. “Summa”da hukman va qavlan taroxiy komil topilgani uchun atf deyilmaydi. Va u kishining ikki sohibi nazdida esa, taroxiy vujudda bo‘ladi, takallumda emas,. (ya’ni ish paydo bo‘lganda bo‘ladi, gapirganda emas,) Buni misolda bayon qilsak.

Bir kishi xotining huzuriga kirishdan (go‘shangaga duxul qilishdan) oldin: “Sen taloqsan, so‘ngra taloqsan, so‘ngra taloqsan agar bu hovliga kirsang” (“summa toliqun”, deb “summa” bilan) uch marta aytsa, Abu Hanifa (rah.a)ning nazdida avvalgisi bilan taloq (darhol) tushadi, undan keyingilari lag‘v (bekor) bo‘ladi. Go‘yoki birinchisini aytib jim turgandek, deydilar. Ikki Imom: “Hammasi taalluqli bo‘ladi va tartib bo‘yicha taloq tushadi”, deganlar.

“Summa” gohida istiora yo‘liga ko‘ra “vov” ma’nosida ishlatiladi. Masalan, Alloh taolo “Balad” surasining 17-oyati karimada bunday marhamat qilgan:

ثُمَّ كَانَ مِنَ الَّذِينَ آمَنُوا وَتَوَاصَوْا بِالصَّبْرِ وَتَوَاصَوْا بِالْمَرْحَمَةِ

<sup>238</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1. – B. 73b.

“So‘ngra u (mazkur inson) imon keltirgan va bir-birlarini sabr qilishga tavsiya etgan, bir-birlarini (bandalarga) marhamatli bo‘lishga undagan zotlardan bo‘ldi”<sup>239</sup>.

Bu erda “summa” harfi “vov” — “va” ma’nosida kelgan deyiladi.

“Bal”, (balki, demak) bog‘lovchisi o‘zidan keyingini isbot qilish va o‘zidan oldingi ma’noni inkor qilish uchun qo‘yilgan. Masalan, “Keldi menga Zayd, balki Amr”, deyilsa, bu erda Zayd emas, Amr kelgan, deb tushuniladi.

Hammalari (Abu Hanifa (rah.a) va ularning ikki shogirdlari) fikriga ko‘ra, bir kishi xotiniga duxul qilishdan oldin “Agar sen hovliga kirsang taloqsan bitta, yo‘q, balki ikkita”, deb aytsa, xotini hovliga kirsang, uch taloq tushadi. Ammo “vov” bilan atf qilinganida esa, Abu Hanifa (rah.a)ning nazdiga ko‘ra, bunday bo‘lmas edi. Chunki “bal” o‘zidan avvalgining ma’nosini bekor qilish uchun va ikkinchisini o‘z o‘rniga qoyim qilish uchun bo‘lgach, ikkinchisi bevosita shartga bog‘lanib ketadi. Lekin avvalgisini botil qilish shart bo‘ladi va bu narsa uning ixtiyorida emas,. Ya’ni, unda gapning ikkinchi qisminigina shartga bog‘liq holda qoldirish imkoniyati bor xolos. Shunda uni bevosita shartga bog‘lash mumkin. Bu xuddi ikki qasam uchun bitta ont ichgandek bo‘lib qoladi va o‘zining imkoniyatidagi narsa qaror topadi.

“Lakinna” (lekin, biroq) nafiyan keyin keladi, istidrok (o‘zidan oldingi so‘z ma’nosini burib yuborish) uchun ishlatiladi. Masalan, “Kelmadi mening oldimga Zayd, lekin Amr”, deysiz.

Gapning kelishiga qarab “Lakinna” bilan atf qilish durust bo‘ladi. Gapning kelishiga qaraganda quli borligini iqror qilgan kishi “Menda hech qul bo‘lmagan, lekin falonchida qul bor”, desa bundaga “Menda bo‘lmagan” inkor ma’nosi isbotga taalluqli bo‘ladi. Shunda ikkinchi odam shu qulga haqli bo‘ladi. Yo‘qsa u yangi gap hisoblanadi.

Boshqa misol. Yuz dinor olib erga uzatilayotgan ayol: “U erkakka yuz bilan ijozat bermayman, lekin bir yuz elikka ijozat beraman”, desa nikoh shartnomasi bekor qilinadi. Chunki bu gapda

---

<sup>239</sup> Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – B. 594.

fe'l — ishning (nikohning) nafiysi (inkori) bor. Va yana aynan shuni (shu ishni) isboti bor. Buni kalom sig'dirmaydi.

“Av” (yoki) bog'lovchisi ikkita ism yoki ikkita fe'lning orasiga qo'yiladi va ikkisidan birini o'z ichiga oladi<sup>240</sup>. Agar xabarga (gapning kesimiga) kirsa, shakni ifodalab qoladi. Agar muftado (ega) yoki inshoga (yangi fikrga) kirsa, ixtiyoriylik zarur bo'ladi. Bunday holda gapning bayon bo'lish ehtimoli bor. Hatto shu bayon bir jihatdan insho bo'lsa, boshqa tarafdin izhor bo'lishi mumkin<sup>241</sup>.

Gohida “av” kalimasi umumiylikni ifodalash uchun istiora qilinadi. Bunday holatda esa, nafiyy (inkor) o'rinlarida ifrod — yakkalashning umumiylikni anglatadi va muboh (ixtiyoriy) o'rinlarda birlashishning umumiylikni ifodalaydi.

Shuning uchun quyidagi misolda bir kishi: “Falonchiga gapirmayman yoki falonchiga”, deb qasam ichsa, qaysi biriga gapirsa ham qasamiga xonis — qasamxo'r bo'ladi. Agar “Hech kimga gapirmayman, faqat falonchiga yoki falonchiga”, desa, ikkisiga ham gapirishi durust bo'laveradi.

“Av” kalimasi gohida “hatto” ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan, bir kishi “Allohga qasamki, kirmayman bu hovliga yoki kiraman bu hovliga”, dedi (ya'ni “bu hovliga kirgunimcha bunisiga kirmayman” degan bo'ladi). Agar birinchisiga kirmasdan oldin keyingisiga kirsa, qasami tugal bo'ladi. (Bu qasamning jarimasini to'lash kerak bo'ladi.) Chunki bu gapdagi jumlar ma'nosi ixtilofli bo'lgani uchun (ularni “av” (yoki) bilan) atf qilish (“av”ni bog'lovchi ma'nosidada qo'llash) uzrli. Birinchi jumla nafiyy — inkor, ikkinchisi isbot — bo'lishlidir<sup>242</sup>. G'oya (hovli) esa, (har ikkisi uchun) yaroqli, chunki gapning avvali ma'n va harom qilmoq ma'nosini anglatgani uchun majozga (“av”ni “yoki” emas, “hatto” ma'nosida olishga) amal qilish vojib bo'ladi.

---

<sup>240</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O'zR FA ShI. Asosiy fond. Qo'lyozma. №10718/1. — B. 74b.

<sup>241</sup> “Bu hurdur yoki bu”, desa agar insho bo'lib, xabarni ixtiyor qiladigan bo'lsa ixtiyorni vojib qiladi. Lekin bu bayonmikan, bayon qilib beryaptimikan, degan ehtimol qoladi. (bayon qilsa ikkalasi ham ozod bo'ladi) Shunda bayon bir jihatdan inshoga aylantiriladi, boshqa jihatdan esa izhor o'rniga qo'yiladi.

<sup>242</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O'zR FA ShI. Asosiy fond. Qo'lyozma. №10718/1. — B. 75a.

“Hatto”, hatto, gacha, g‘oya, bog‘lovchisi g‘oya (chegara)ni bildiradi. Imom Muhammad (rah.a) “Ziyodot”da: Bir kishi quliga “Hursan agar urmasam seni hatto qichqurguningcha”, desa, qasamxo‘r bo‘ladi agar g‘oyadan oldin to‘xtatsa, deganlar (ya’ni qichqirtirib ura olmasa).

و اما حتي فالغاية، و لهذا قال محمد رحمه الله في "الزيادات" فيمن قال عبده: حرّ إن لم اضربك حتي تصيح، انه يحنث ان اقلع قبل الغاية، و استعير للمجازات بمعني لام كي، في قوله: ان لم آتک غدا حتي تغديني، اذا اتاه فلم يغده لم يحنث؛ لان الاحسان لا يصلح منهيًا للاتيان بل هو سبب له، فان كان الفعلان من واحد كقولك: ان لم آتک حتي اتغدي عندك، تعلق البر بهما؛ لان فعله لا يصلح جزاء لفعله، فحمل علي العطف بحرف الفاء؛ لانه الغاية تجانس التعقيب<sup>243</sup>

Yana “hatto” so‘zi majoziy ma’nolarda istiora qilib ishlatiladi. Bunda “sababni anglatuvchi “lom” ma’nosida bo‘ladi. Masalan, bir kishi ikkinchisiga: “Menga tushlik berishing uchun agar ertaga senikiga kelmasam, qulim hur bo‘lsin”, dedi. U kelsa-yu, lekin unga tushlik bermasa, qasamiga honis bo‘lmaydi – quli hur bo‘lmaydi. Chunki ehson berish kelishni qaytaruvchi bo‘lishga yaroqli emas, balki bir sababdur.

Agar ikkita fe‘l bir kishidan sodir bo‘lsa, masalan, Agar senikiga kelmasam, va seni oldingda tushlik emasam”, tarzida bo‘lsa, unda qasamidan qutilishi ikkala fe‘lga ham bog‘liq bo‘ladi. Chunki uning bir fe‘li ikkinchi ishiga bir bo‘lak bo‘lolmaydi. Shuning uchun bundagi “hatto” harfi “fo” ma’nosidagi atfga yo‘yiladi. (“Fo” harfi ma’nosida bo‘lgan “ketma-ket” ma’nosida olinadi.) Chunki g‘oya (chegara) ta’qibga – ketma-ket kelishga shakldoshdir.

Fiqhda ahamiyat beriladigan jihatlardan biri harfi jarlardir.

“Bo” harfi ilsoq (bir narsani boshqasiga qo‘shish) uchun qo‘llaniladi. Masalan, bir kishi: “Agar menga falonchining kelishidan xabar bersang, qulim hur bo‘lsin”, desa, bu gapga sidq deb qaraladi.

“Alo” (ga, ustida, da) harfi lozim qilishni anglatadi. “Mening bo‘ynimda ming bor”, desa, o‘zining qarzdorligini bildiradi.

---

<sup>243</sup> O‘sha joyda.

Va shart uchun ham iste'mol qilinadi<sup>244</sup>. Masalan, Alloh taolo bunday degan:

يَا أَيُّهَا النَّبِيُّ إِذَا جَاءَكَ الْمُؤْمِنَاتُ يَبَايِعَنَّكَ عَلَى أَنْ لَا يُشْرِكْنَ بِاللَّهِ شَيْئًا وَلَا يَسْرِفْنَ وَلَا يَزْنِينَ وَلَا يَقْتُلْنَ أَوْلَادَهُنَّ وَلَا يَأْتِينَ بِبُهْتَانٍ يَفْتَرِينَهُ بَيْنَ أَيْدِيهِنَّ وَأَرْجُلِهِنَّ وَلَا يَعْصِيَنَّكَ فِي مَعْرُوفٍ فَبَايِعُهُنَّ وَاسْتَعْفِرْ لَهُنَّ اللَّهُ إِنَّ اللَّهَ غَفُورٌ رَحِيمٌ

“Ey, Muhammad! Qachonki, Sizning oldingizga mo‘mina ayollar kelib, Allohga biror narsani sherik qilmaslikka, o‘g‘irlik qilmaslikka, zino qilmaslikka, o‘z bolalarini o‘ldirmaslikka, qo‘l va oyoqlari orasida to‘qib oladigan bo‘htonni keltirmaslikka hamda biror yaxshi ishda Sizga itoatsizlik qilmaslikka huzuringizda qasamyod etsalar, Siz ularning qasamyodlarini qabul qiling va ular uchun Allohdan mag‘firat so‘rang! Albatta, Alloh (o‘z bandalariga nisbatan) kechirimli va rahmlidir”<sup>245</sup>.

Ya’ni, “Ey Muhammad, Alloh taologa biron bir narsani sherik qilmaslik sharti bilan ayollar kelib sizga bay‘at qilsa...”, deyilmoqda.

Shuningdek, “alo” harfi istiora yo‘liga ko‘ra o‘zaro oldi berdi (muovaza – evazlashuv) ma’nosida bo‘lgan “bo” ma’nosida ham qo‘llaniladi. Chunki “bo” dagi ilsoq ma’nosi lozim qilish ma’nosiga mos keladi.

و علي للالزام في قوله: علي الف، و تستعمل للشرط، قال الله تعالى<sup>246</sup>  
يبابعنك علي ان لا يشركن بالله شئنا.

اما الباء فللاصاق، و لهذا قلنا في قوله: "ان اخبرتنني بقدم فلان (فعبدي حر)" انه يقع علي الصدق.<sup>247</sup>

<sup>244</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1. – B. 75b.

<sup>245</sup> Makka fathidan so‘ng Rasululloh (a.- S.) erkaklardan keyin ayollar bilan bay‘at qilishni boshladilar. Bu Safo tepaligida edi. Umar (rz.) Payg‘ambar (a.- S.)dan pastroqda o‘tirib olib, ul zotning nomidan imon keltirgan ayollarga oyatdagi shartlarni etkazib bay‘at qilgan. Ayollar ichida Amir Hamza (rz.)ning murdasidan o‘ch olgan Hind ham bor edi. U Rasul (a.- S.)dan qo‘rqib yuzini to‘sib olgan edi. Bay‘at asnosida o‘zini tanitib qo‘yadi va kechirim so‘ragach, unga marhamat ko‘rsatib, qilmishlarini avf etadilar Bu oyatdagi bo‘hton to‘qishdan murod boshqadan tug‘ilgan bolani o‘z eriga sendan deb o‘tkazishdir.

<sup>246</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1. – B. 75b.

<sup>247</sup> O‘sha joyda

“Min” harfi ba’zini anglatadi. Shuning uchun Abu Hanifa (rah.a)i aytadilarki, bir kishi boshqa odamga: “Qullarimdan xohlaganingni ozod qil”, desa, faqat bittasini ozod qilish joiz bo’ladi. (Zero, bundan “ba’zisini” degan ma’no tushuniladi). Ammo “qullarimdan xohlaganingni ozod qilaver” desa, boshqa gap. Chunki, u bu gapi bilan umumiy sifat bilan sifatladi va xususlikni soqit qildi (shu boisdan, amr qilingan kishi uning qullaridan xohlaganicha ozod qilaveradi).

“Ila” harfi – g’oya, masofa, muddatni tugashini bildiradi.

“Fiy” (ichida, da) harfi esa, zarf, joylashuv, makon yoki zamonda bo’lishini bildiradi.

“Fiy” harfi kalomda yozilgan va yozilmagan (hazf, ya’ni zimdan ma’nosi ishlatilgan) holatlar bir-biridan farq qiladi. Masalan, “Agar dahr (bir umr) ro’za tutsam, qulim ozod bo’lsin”, desa, bu abadiylikka voqe bo’ladi. Va agar in sumtu fiy dahri” – “dahrda” zamonda desa, bir soatgina ro’za tutishi bilan quli ozod bo’ladi.

Va “fiy” kalimasi muqorarat (ya’ni birga bir ishni bajarish) ma’nosida isti’ora qilib qo’llaniladi. Masalan, “Sen taloqsan hovliga kirishingda”, desa, kirishing bilan birga degan ma’noga yo’yiladi.

Bundan tashqari, shart harflari ham shular jumlasidandir.

“In”, agar, harfi shart harflari bobida asldur.

“Izo” agar, vaqt, payt, harfi vaqtga va shartga teng qo’llaniladi. Bu ko’falik nahviy olimlar mazhabida. Bu Abu Hanifa (rah.a)ning ham so’zlaridur. Ammo basralik olimlar nazdida esa, “izo” kalimasi vaqt uchundur. Bu ikki imomning so’zlaridur<sup>248</sup>.

Va “izo” kalimasi bilan shart qilingandan keyin, vaqt ma’nosi soqit bo’lmasidan jazosi – javobi aytiladi. Bu holatda “mato” – qachonki” so’ziga o’xshab qoladi.

[إن و إذا حكمهما]

و من ذلك حروف الشرط. و حرف "ان" هو الاصل في هذا الباب .

<sup>248</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O’zR FA ShI. Asosiy fond. Qo’lyozma. №10718/1. – B. 76a.

و اذا تصلح للوقت وللشرط علي السواء عند نحوي الكوفة و هو قول ابي حنيفة رحمه الله و عند البصريين و هو قولهما هي للوقت و يجازي بها من غير سقوط الوقت عنها مثل متي<sup>249</sup>

“Mataa” (qachon, vaqt) kalimasi vaqt uchun bo‘lib, bu ma’no undan hech bir holatda ajramaydi. Bu kalimaning jazosi, ya’ni gapdagi shartga javobi lozim bo‘ladi. Ammo so‘roq gaplarda kelgan “mato” – qachon?” kalimasi bundan mustasnodir.

“Izo” kalimasining jazosi esa, (ya’ni, gapdagi shartga javobi esa,) lozim bo‘lmaydi, balki joizlikka ko‘ra bo‘ladi.

“Man”(kim), “Maa” (birga), “Kul” (hammasi), “Kullamaa” harflari shu bobga (shart bobiga) kiradi. Hammasida ham shart ma’nosi bor. Chunki ulardan keyin keladigan ism (ya’ni ot) gap tugal bo‘lishi uchun fe’l bilan sifatlanishi zarur. Va bu kalimalar ifrod yo‘liga ko‘ra (ya’ni yakka-yakka yo‘lga ko‘ra har bir shaxsni) ihota qilib olishni vojib qiladi. [“من" و"ما" و"كل" و"كلما"]

ومن وما و (كل) و كلما تدخل في هذا الباب، و في "كل" معني الشرط ايضا من حيث ان الاسم الذي يتعقبها يوصف بفعل لا محالة ليتم الكلام، و هي توجب الاحاطة علي سبيل الأفراد، و معني الافراد ان تعبر كل مسمي بانفراده كان ليس معه غيره<sup>250</sup>

Ifrodning ma’nosi – har bir ismlangan narsaning o‘zini alohida e’tiborga olmoqdur, go‘yoki u bilan birga boshqasi hech qachon bo‘lmagandek.

Manbaning yakunida uni boshlangan ezgu amalni oxiriga etkazishga qodir qilgan Olloh ta’ologaga hamdu sanolar keltiriladi. Shuningdek, uni ko‘chirish amaliyoti bilan shug‘ullangan Malik va Latif bo‘lmish Alloh taoloning nomi bilan ustoz, ulamolarning ustози, qozilarning qozisi Mavlonо Abdushukurning o‘g‘li Sadr Muhammad Sharif Buxoriyning qo‘lida 1315 yilda tugallanganligi eslatib o‘tiladi.

Musahhih Sadr Muhammad Sharif Buxoriy o‘zi amalga oshirgan faoliyatni bir umrga tarixga muhrlanishini istab, ushbu baytni keltiradi<sup>251</sup>:

Maqsad naqsh qilmoqdur, ki bizdan shu qolur,  
chunki borliqda boqiylikni ko‘rmadim.

<sup>249</sup> O‘sha joyda.

<sup>250</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.-B.76a

<sup>251</sup> O‘sha asar. 110a

Bugungi globallashuv jarayonida mafkuraviy g'oyalarning inson hayotiga tahlikali ta'sirini to'xtatish va tegishli asosli raddiyalar berishda "Usulu-l-fiqh" asosiy o'rin egallaydi. Mazkur masalada Xusomiddin Axsikatiyning "Muntaxabu-l-Husomiy" asaridan keltirilgan qismlarga murojaat etish o'rinlidir.

Masalan, asarning "Muhammad sollallohu alayhi vasallam amallarining turlari" nomli bobida Muhammadimizning sunnatlari to'liq ochib berilgan.

Xususan, Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) qilgan sunnatlar turkumiga qo'shiladigan amallar to'rt guruhga bo'lib sharhlangan: muboh, mustahab, vojib va farz.

[أقسام أفعال رسول الله صلى الله عليه وسلم]

والذى يتصل بالسنن أفعال رسول الله عليه الصلوة والسلام، وهى اربعة اقسام: مباح، ومستحب، وواجب، وفرض، وفيها قسم آخر وهو الزلة، لكنه ليس من هذا الباب فى شىء؛ لانه لا يصلح للاقتداء، ولا يخلو من الاقتران ببيان انه زلة، واختلف فى سائر افعاله (عليه السلام)، والصحيح ما قاله الجصاص: إن ما علمنا من افعال رسول الله صلى الله عليه وسلم واقعا على /a41/ جهة نقتدى (يقتدى) به فى ايقاعه على تلك الجهة، وما لم نعلمه على اى جهة فعله قلنا فعله على ادنى منازل افعاله، وهو الاباحة؛ لان الاتباع اصل، فوجب التمسك به حتى يقوم دليل خصوصه به.<sup>252</sup>

Har bir voqea-hodisaga nisbatan qaror berishda alohida yondashuv talab etilganligi ham mazkur manbada alohida bayon qilingan. "Hukmlarni izhor qilishda Muhammad sollallohu alayhi vasallamning tutgan yo'llari bayoni" bobida Muhammad sollallohu alayhi vasallam ijtihod qilib shariat hukmlarini izhor qilishda tutgan yo'llarining bayoni keltirilib, uni ham sunnatlariga qo'shiladi.

Bizning mazhabimizda sahih gap shuki — Muhammad sollallohu alayhi vasallam o'zlari duchor bo'lgan voqealarda vahiy kelishdan umidlari uzilgan o'rinlarda ijtihod bilan ham amal qilar edilar, u zot xato qaror qilmaganlar. Agar o'shandoq ishlardan biror-bir hukmga qaror qilsalar hukmga qat'iy dalolat sifatida olinadi. U zotdan boshqalarning (boshqa mujtahidlarning) ra'y bilan bayon qilgan (hukmlari) bunday emas,. Chunki ra'y ham ilhom kabitur. Ilhom o'z egasining haqqida qat'iy hujjat bo'ladi, garchi boshqalarning haqqida bunday sifatda bo'lmasa ham.

<sup>252</sup> Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O'zR FA ShI. Asosiy fond. Qo'lyozma. №10718/1. – B. 41a.

Bunday fiqhiy masalalarning keltirilishi albatta o‘ziga xos asoslar va dalillar bilan isbotlangan holda sharhlanmoqda. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda turli yot g‘oyalari bilan insonlarni yo‘ldan adashtiruvchi amallarga da’vat etadigan shaxslar hech qanday dalil va isbot keltirmasdan fatvo bermoqdalar. Bu albatta, begunoh insonlarning og‘ir sharoitlarga tushib qolishi, oila parokandaligini keltirib chiqarish, qolaversa yoshlarning ruhiy tarbiyasini izdan chiqarish maqsadida amalga oshirilayotganligiga dalildir. Bunday jamiyat uchun jiddiy xavf keltirayotgan harakatlarga raddiyalar izhor etilishida “Muntaxabu-l-Husomiy ” asaridan keng foydalanish o‘rinlidir.

Shuning uchun “Dinni ma’rifat asosida o‘rganish” mezoniga amal qilgan holda, bizdan oldin o‘tganlarning shariat bobidagi ilmlarini chuqur o‘rganish zarur. Diniy tarbiya soatlarida ularning ma’rifiy asoslarini ochib berish talab etiladi.

“Muntaxabu-l-Husomiy ” asarida ham “Bizdan oldin o‘tganlarning shariatlari”<sup>253</sup> bobi keltirilgan bo‘lib, unda oldin o‘tgan ajdodlar shariatlariga qay tarzda amal qilish zikri keltirilgan.

Xususan, “Nabiyimiz (s.a.v) sunnatlariga qo‘shiladigan narsalardan yana biri — u zotdan oldin o‘tganlarning shariatlaridur.

Bu borada sahih gap shuki: Alloh taolo yoki Uning Rasuli (s.a.v) o‘tganlarning shariatlaridan inkor qilmasdan nimani qissa qilib bergan bo‘lishsa, uni bizning Rasulimiz sollallohu alayhi vasallamning ham shariatlari sifatida olish bizga lozim bo‘ladi”.

Islomshunoslik fanlarida hali-hanuz o‘z mavqeini yo‘qotmagan, hatto bugungi kunda ham ko‘plab xorijiy tadqiqot markazlarida, muayyan huquqiy va ijtimoiy institutlarda o‘rganib kelinayotgan masalalardan biri bu vaqfdir. Mazkur masala zamonaviy islom davlatlarida ham ijtimoiy himoya tizimi sifatida o‘rganilsa, dunyoviy davlatlarda “Kambag‘allikni qisqartirish” va “Ijtimoiy himoyaning institutsional mexanizmi” sifatida talqin etiladi.

“Muntaxabu-l-Husomiy” asarida ham “Zakot bobida almashtirishning joizligi” masalalariga alohida bob ajratilgan.

---

<sup>253</sup> Qarang: Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.-B.48a

Unda zakot bobida almashtirishning joizligi ham nass bilan sobit bo‘lgan, ta’lil (illatlash) bilan (sobit bo‘lgan) emas,. Chunki kambag‘allarga rizq o‘laroq va’da qilingan narsani amalga oshirishga bo‘lgan buyruq boylarga vojib qilingan narsa qabilidan bo‘ladi.

Bu nomlangan mol bo‘lib, va’da qilingan narsaning ixtilofli (turlicha) bo‘lishini ehtimol qilmaydi. ((“bir narsa beraman” va “aynan falon narsani beraman” deya qilingan va’daning orasida farq bor)) Bu esa, almashtirishni o‘z ichiga olgan va’dalar turlicha bo‘lmog‘i joizligidir.

Demak, nass orqali o‘zgarish ta’lilni o‘z ichiga jamlab oldi, illatlashni (ta’lilni) aynan o‘zini o‘zgartirish bo‘lmadi. Bir hukmni illatlash shar’iy ish bo‘lib, molni faqirga sarflash uchun mahalning salohiyatli bo‘lmog‘idur. Bunda o‘sha molni tasarruf qilishda kambag‘alning (faqirning) qudrati bardavom bo‘lsin (ya’ni, hali kambag‘allicha turibdi). To‘g‘ri, molni berishda, dastlab, Alloh taolo uchun niyat qilinishi sodir bo‘ladi.

Bu quyidagi so‘zimizga o‘xshaydi: “Albatta najosatni ketkazish vojib, suv esa, ketkazishga yaroqli vositadir. Vojib aslida, tananing barcha a’zolari bilan Alloh taoloni ulug‘lashdur. Takbir aytish esa, tilni ulug‘lash ishiga yaroqli qilish uchun bir vositadir”<sup>254</sup>.

Shuningdek, zamonaviy dunyoda har bir huquqiy masalada qiyosning o‘rni mavjud. Ammo qiyosning rukni — nass o‘z ichiga olgan narsalardan nassning hukmiga belgi qilingan narsalardur. Va yana far’ uning hukmida va unda topilishi e’tiboridan nassga nazir — o‘xshash qilingan narsalardir. Bu narsa illatlangan hukmning jinsida o‘sha sifatning ta’siri zohir bo‘lishi sababli barobarlashtirilgan yaroqli bir sifatdur.

“Yaroqli bir sifat” deganda, biz uning muvofiqligini ko‘zda tutamiz. Bu esa, Muhammad (s.a.v) va salaflardan naql qilingan illatlarga muvofiq bo‘lmog‘idur.

---

<sup>254</sup> Qarang: Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.- B.48b

Asarning “Yaroqli bir sifat” orqali illatlashga misollar” nomli bobida bunday masalalar bayoni keng tahlillar asosida keltirilgan<sup>255</sup>.

Masalan, “yosh ammo erga tegib chiqqan qizcha (juvon) haqida aytamiz: u majburan turmushga berilgan. Shu boisdan u (hali balog‘atga etmagan) kichik bo‘lib, biki ya‘ni qiz bola kabidir. Shu misol muvofiq bir sifat orqali illatlashdir, Zero, yoshlik nikoh ishlarida valiylik qilishga ta‘sirini o‘tkazuvchidir. Bunda ojizlik bor. Bu xuddi mushukning najosat emas, deya hukm qilganda tavof, ya‘ni uyda aylanib yurishini zaruratan ta‘sir qilishiga o‘xshaydi”.

Muhammad (s.a.v): “Mushuk najas emas, chunki u sizlarning, uying atrofida aylanib yuruvchilardandur”, deganlar.

Muvofiq (muloyim, munosib) kelmasidan oldin vasfga amal qilish durust emas. Chunki vaf (sifat) shar‘iy ish bo‘lib, unga shariat ta‘rif beradi. Bizning nazdimizda, munosiblik sobit bo‘lganda ham adolat tekshirilgachgina unga amal qilish vojib bo‘ladi. Ana shu (adolat) ta‘siridir. Chunki munosiblik (muloyimat) turgani bilan sifat qaytishi ham mumkin. Shuning uchun sifatning ta‘sirining ko‘p o‘rinlarda (holatlarda) zohir bo‘lishi orqali uning durustligi bilinadi. Masalan, molga egalik, boshqaruvchilik qilishda yoshlikning ta‘sir etishiga o‘xshash. Bu guvohning rostgo‘y bo‘lishiga ham o‘xshaydi. Bu esa, uning dindorligi ta‘sirining dinida man qilingan ishlarda oldi-berdi qilishdan uni to‘sishdagi ta‘sirining zohir bo‘lishi orqali bilinadi.

Illat bizning nazdimizda o‘z ta‘siri bilan illatga aylanadigan bo‘lgach, qiyosdan ko‘ra istehsonni muqaddam qo‘ydik. Zero, qachonki ta‘siri kuchli bo‘lgan istehson ham aslida qiyosi xafiy – yashirin qiyosdur.

Kechirim borasida ham mazkur manbada e‘tirofga sazovor fikrlar keltirilganki, ularni bugungi johil va badnafs insonlar tarbiyasiga singdirish zarur. “Unutuvchining qilgan ishlari kechiriladi”<sup>256</sup>

---

<sup>255</sup> Qarang: Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.- B.48b

<sup>256</sup> Qarang: Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy. Muntaxabu-l-Husomiy. O‘zR FA ShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. №10718/1.-B.70a

Buning bayoni shuki: roʻzadorning halqumiga suv quyilsa, uning roʻzasi buziladi. Zero, roʻzaning rukni favt boʻldi va unga unutuvchining hukmi lozim boʻladi.

Biz esa, mazkur illat yoʻqligi bois yoʻqlik deya fatvo berdik. Zero, unutuvchining qilgan ishi shariat sohibiga mansub boʻlgani uchun undan jinoyat soqit boʻladi va feʼl afu boʻladi. Natijada roʻza boqiy qoladi, rukni favt boʻlsada, boshqa moneʼ sababli emas, balki (asliy) rukni boqiy qolgani uchun. Demak, ularning nazdida xos dalil qilingan narsani biz yoʻqlik dalili qildik. Mana shu bu bobdagi asl boʻlib, uni yaxshilab yodlab olgin va mustahkamlagin. Bunda koʻplab fiqhiy masalalar va ulkan najot bor.

“Muntaxabu-l-Husomiy” asari hanafiy usulu-l-fiqh ilmi boʻyicha oʻziga xos uslubda yozilgan manbalardan boʻlib, undagi uslub va qoidalar jamiyatdagi ijtimoiy-diniy masalalarni hal etishda muhim oʻrin tutgan. Asardagi usul qoidalarida arab tili grammatikasiga doir harf – bogʻlovchi, koʻmakchi va yuklamalar qoʻllanishi va ularning maʼnoga oʻz taʼsirini oʻtkazishi ochib berilgan. Birgina jumla bilan izoh berilsa, taloq soʻzini ishlatayotgan erkak oʻz ayoliga qarata aytayotganida har bir detallar oʻrganilganida, uning gapidagi koʻmakchilar ham fatvo berishsa katta ahamiyatga ega boʻladi, yaʼni jumlaning maʼnosiga katta taʼsir oʻtkazadi.

Xulosa qilganda, Husomuddin Axsikatiy “Muntaxabu-l-Husomiy” asarini yozishda anʼanaviy hamda oʻziga xos uslublardan foydalangan va matnda fikrlarini qisqa, lekin tushunarli ifodalashga xarakat qilgan. U shariat hukmlarining asosiy manbalari boʻlgan Qurʼon, sunnat va ijmoni batafsil taʼriflab, toʻrtinchi manba sifatida mazkur uchta manbadan chiqarib olingan qiyosga urgʻu beradi. Shuningdek, muallif tushunish qiyin boʻlgan om, xos, mushtarak, muavval kabi lafzlarining yashirin maʼnolarini ham tushuntirib oʻtadi. Asarda “Bizning nazdimizda”, “Aytildi”, “Aytidik”, “Insonlardan baʼzilari”, “Afzal” kabi soʻz birikmalarini kaysi vaqtda va qaysi holatda qoʻllanilishi, ularning qatʼiy hukmlarini zikr etadi. Bu esa, asarning turli ibora va jumlar bilan berilgan oʻziga xos usulga ega boʻlganligini koʻrsatadi. Alloma oʻzining usulu-l-fiqhda muxtasar (qisqartma) asar bitgani keyingi

davr ulamolari uchun qo‘llanma vazifasini bajardi. Xususan, asarning 25ta sharhi borligi va mazkur sharhlardan 10tasi Hindiston va Pokiston ulamolari tomonidan sharhlanganligi ushbu diyorlarda mazkur asarga ehtiyoj katta bo‘lganligini anglatadi. Bugungi kunda ham Hindiston, Pokiston va Birlashgan arab amirliklari diniy ta’lim muassasalarida Qur’on va Sunnatdan keyin uchinchi kitob sifatida Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining o‘qitilishi aniqlandi. Shuningdek, “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining eng qadimgi sharhi ham Hindistonning Rampur Raza kutubxonasida saqlanayotganligi har bir davrda mazkur mintaqada ushbu asarga talab yuqori bo‘lganligini bildiradi. Asarning O‘zRFA ShI va dunyoning ko‘plab boshqa fondlarida yuzga yaqin qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Shulardan beshtasi O‘zRFA ShIda saqlanib, ularning mazmuni, kodikologik jihatlari, ko‘chirish uslubi va xronologik tuzilishiga ko‘ra batafsil o‘rganishga xarakat qilindi. Asarning eng qadimgi nusxasi 720 yilda ko‘chirilganligi aniqlandi. Husomuddin Axsikatiyning “Muntaxabu-l-Husomiy” asari 1999 yilda Damashq shahrida Doktor Valiyuddin Muhammad Solih Farfur tomonidan zamonaviy arab tilida qilingan tadqiqot nashri O‘zRFA ShIda saqlanayotgan 10718/1 ashyo raqamli nusxasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijada qo‘lyozma nusxasi va zamonaviy nashri orasida bir nechta farqlar mavjudligi aniqlandi. Hozirgi kunda Hindiston va Pokiston davlatlarining barcha madrasalarining muntazam o‘quv rejasiga “Muntaxabu-l-Husomiy” asari ham kiritilganligi mazkur asarni usul fanlarini o‘qitishda darslik sifatida muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

## MUQADDIMA

Monografiyada Husomuddin Axsikatiyning Farg‘ona fiqh maktabidagi o‘rni uning ilmiy merosiga tayanilgan holda ilk bor usulu-l-fiqh doirasida o‘rganildi va ilmiy-amaliy tadqiqotning maqsad hamda vazifalaridan bo‘lgan fiqh ilmining shakllanish bosqichlari har bir bosqichning xususiyatlariga bog‘liq holda belgilandi. Bu jarayonni davrlashtirishning ikki uslubi bo‘lganligi, mazkur usublardan birinchi davr shariat davri va qolgan bosqichlar «Fiqh davri» deb nomlangan uslubi o‘rinli, deb e’tirof etildi. Zero, unda har bir davrning xususiyatlari ochib berildi. Fiqh ilmi Movarounnahrda Iroqdan Abu Bakr Juzjoni orqali Samarqandga hamda Abu Hafs Kabir Buxoriy tomonidan Buxoroga olib kelinganligi keltirildi. Abu Hafs Kabir Buxoriy ilmni hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifa Nu‘mon ibn Sobitning shogirdi va safdoshi imom Muhammad Shayboniydan olganligi Movarounnahrda fiqh ilmining hanafiy mazhabi ustuvor bo‘lishiga zamin yaratganligi ko‘rsatib berildi. Usul al-fiqh mavzusidagi dastlabki yozilgan asarlar sifatida Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944)ning «Ma’oxazush sharoye’» (Shariatlarning olinadigan joyi), Abul Hasan Ubaydulloh ibn Husayn Karxiy (873-952)ning «Usulul Karxiy» (Karxiy usuli), Abu Bakr Jassos (918-980)ning «Al-Fusul fil usul» (Asoslar borasida fasllar), Abu Zayd Dabusiyy (978-1039)ning «Al-Anvor fiy usulil fiqh» (Fiqh asoslaridagi nurlar), Ali ibn Muhammad ibn Abdulkarim ibn Muso al-Bazdaviy (1009-1089)ning «Usulu-l-Bazdaviy» (Pazdaviyning usuli), Shamsu-l-aimma Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Sahl as-Saraxsiy (1009- 1090)ning «Usulu-s- Saraxsiy» (Saraxsiyning usuli) asarlari e’tirof etilganligi aniqlandi. Qoraxoniylar hukmronligi diniy ilmlar rivojiga hayrixoh siyosat yuritdi, hanafiy mazhabini qo‘llab-quvvatlashi bilan ajralib turdi. Qator madrasalar va masjidlar qurildi. Islom ilmlari rivojiga katta ahamiyat berilishi natijasida etuk olimlar etishib chiqishiga shart-sharoit yaratilganligi ochib berildi. Bizgacha yetib kelgan allomaning tarjimai holiga oid ma’lumotlar etarli emas. Shunga qaramasdan yuqorida zikr qiganimizdek, alloma yashagan davrda Farg‘ona mintaqasi hududidagi ilm-fan rivojlanish darajasi shuningdek, islom ilmlari

ravnaqi Husomuddin Axsikatiy aynan Axsikatda ta'lim olib, yetuk olim darajasiga yetgan deb hisoblashga asosimiz bor. Husomuddin Axsikatiy usul al-fiqh ilmida fiqhiy masalalarni asoslashda arab tili grammatikasi oid qoidalarni fiqh ilmi asoslari masalalarini dalillash vositasi darajasiga ko'tardi. Shuningdek, muxtasar ta'bir hamda maxsus qisqartma iboralar vositasida qoidalarni taqdim qilish uslubini joriy etdi. «Muntaxabu-l-Husomiy» asari qo'lyozmalari tadqiqi natijasida allomaning «Muntaxabu-l-Husomiy» asarlari qadimiy nusxalari dunyoning turli mamlakatlar qo'lyozma xazinalarida saqlanishi (1273-yil ko'chirilgan nusxasi Turkiyada shuningdek asar qo'lyozma nusxalari Birlashgan Arab Amirligi, Germaniya, Eron, Hindiston, Pokiston, Angliya kabi mamlakatlar qo'lyozmalar xazinalaridagi nusxalari) aniqlandi, shuningdek, bu asar usul ilmiga bag'ishlangan asarlar orasida eng ko'p sharhlangan ekanligi yigirmadan ortiq yozilgan sharh va hoshiyalar tahlili asosida tasdiqlandi. «Muntaxabu-l-Husomiy» asarining manbalarini Qur'oni karim va Sunnat, Abu Zayd Dabusiy, Imom Abu Mansur Moturidiy, Abu Husayn Basriy, Abulhasan Karxiylarning asarlari, ahli sunna mazhabi asoschilari hamda hanafiy mazhabi mujtahidlaridan Abu Yusuf va Muhammad fikrlari tashkil qilishi aniqlandi. Asarning yozilish uslubining alohida xususiyati sifatida bunda ba'zi o'rinlarda «nazm» janridan foydalanilganligini ko'rsatib berildi. «Muntaxabu-l-Husomiy» asari hanafiy usulu-l-fiqh ilmi bo'yicha o'ziga xos uslubda yozilgan manbalardan bo'lib, undagi uslub va qoidalar jamiyatdagi ijtimoiy-diniy masalalarni hal etishda muhim o'rin tutgan. Asarni yozishda an'anaviy murojaat qilingani uni keyingi davr ulamolari tomonidan qo'llanma sifatida sabab bo'lgan. Hozirgi kunda qator mamlakatlari jumladan Hindiston va Pokiston davlatlarida «Muntaxabu-l-Husomiy» asarlaridan darslik sifatida qo'llanilayotganligi amaliy ahamiyatini ifodalaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### 1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 77 b.

1.2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘z.Res. Qonuni. № 618-1 01.05.1998 y. / Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

1.3. «Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida»gi O‘z.Res. Qonuni / Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.03.2019 y., 03/19/528/2741-son.

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2016 yil, 19 oktyabr.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori // Xalq so‘zi, 2017 yil 23 iyun.

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Ma‘rifat, 2017 yil 20 sentyabr.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017. // <https://uza.uz>.

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi. // <https://uza.uz>.

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda,

37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son.

**1.10.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5416-son Farmoni. / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.04.2018 y., 06/18/5416/1079-son.

**1.11.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2995-son Qarori./ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 21-son, 389-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2018 y., 06/18/5399/1018-son.

**1.12.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi 466-son. «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2018 y.

**1.13.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 iyundagi 519-son. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining kutubxona fondini xorijiy adabiyotlar bilan boyitish to'g'risida»gi qarori. / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2019 y., 09.19.519.3329-son.

**1.14.** O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 21-son, 389-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2018 y., 06/18/5399/1018-son.

## **2. Manba va adabiyotlar**

### ***Qo'lyozma va toshbosma manbalar:***

2.15. Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy "Muntaxab fi usul Mazhab" Varaq: 49, satr: 13, o'lchovi:22,5x13,5, xati:nasx, tili: arabiy, nuqsoni: boshi yo'q. №2674.

2.16. Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin Axsikatiy "Muntaxab fi usul Mazhab" Varaq: 143, satr: 7,

o‘lchovi:17,5x13, xati:nasta’liq, tili: arabiy, nuqsoni: oxiri yo‘q.  
№4944/I

2.17. Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin  
Axsikatiy “Muntaxab fi usul Mazhab” Varaq: 110, satr: 9, o‘lchovi:  
24x15, xati: nasx, tili: arabiy. №8396.

2.18. Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin  
Axsikatiy “Muntaxab fi usul Mazhab” Varaq: 143, satr: 7,  
o‘lchovi:19,5x12,5, xati:nasta’liq, tili: arabiy, nuqsoni: oxiri yo‘q.  
№8857.

2.18. Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin  
Axsikatiy “Muntaxab fi usul Mazhab”. Varaq: 76 (1a-76a), satr: 13,  
o‘lchovi:25x14, xati:nasta’liq, tili: arabiy. №10718/1

2.19. Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin  
Axsikatiy “kitob tahqiq” Varaq: 518 (1b-518B), satr: 3,  
o‘lchovi:20x15, xati:nasx, tili: arabiy, nuqsoni: yo‘q.

2.20. Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Husomuddin  
Axsikatiy. “Muntaxab fi usul Mazhab”. Varaq: soni ko‘rsatilmagan,  
sitr: 3, o‘lchovi:25x14, xati:nasta’liq, tili: arabiy. №143472

2.21. “Muntaxab fi usul Mazhab”. Varaq:15, satr: 13, o‘lchovi:  
20.5x14 xati:nasta’liq, tili: arabiy. №81511

2.22. “Muntaxab fi usul Mazhab”. Mikrofilm, satr: 13,  
o‘lchovi: 18.4x13, xati:nasta’liq, tili: arabiy. №659399

2.23. “Muntaxab fi usul Mazhab”. Qo‘lyozma, varaq: 244, tili:  
arabiy. №593

2.24. “Muntaxab fi usul Mazhab”. Qo‘lyozma, varaq: 135, tili:  
arabiy. №1240

2.25. “Muntaxab fi usul Mazhab”. Qo‘lyozma, varaq: 293, tili:  
arabiy. №637

### ***O‘zbek tilidagi adabiyotlar:***

2.26. Qur’oni Karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri.  
/Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur; tahrir hay’ati: Usmonxon  
Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq.; mas’ul  
muharrir: M.Ahmadjonov. –T.: TIU, 2018. – 624 b.

2.27. Abdulvahbob Xallov. Usulul fiqh (Islom  
qonunshunosligi asoslari) / Birinchi, ikkinchi qismlar. – Toshkent:

Adolat, 1997. – 209 b.

2.28. Abdulloh Abdulhamid Saad. Oʻrta Osiyo olimlari qomusi. – T.: Imom Buxoriy respublika ilmiy-maʼrifiy markazi, 2007. – 215 b.

2.29. Abdulxakim Shariy Juzjoni. Margʻiloniy va uning izdoshlari. – T.: TIU, 2000. – 96 b.

2.30. Aminov H., Primov S. Hanafiy fihi tarixi, manbalari va istilohlari [Matn]. – T.: Movarounnahr, 2017. – 400 b.

2.31. Anorboev A., Islomov U., Matboboev B. Oʻzbekiston tarixida Qadimgi Fargʻona. – Toshkent: 2001. – 435 b.

2.32. Asrorova L. Abu Hafs Kabir Buxoriy va hanafiy fihi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2014. – 280 b.

2.33. Asqarov A. Oʻzbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2015. – 700 b.

2.34. Ahmad ibn Mahmud Buxoriy. “Muʼin Fuqaro” (“Tarixi mullozoda”) // Vohidov Sh. Yangi asr avlodi. 2009.-206 b.

2.35. Burhonuddin Margʻinoniy. Hidoya sharh bidoyatil mubtadiy. / Aʼzamxon Qambarov (bosh tarjimon), Akmaljon Ikromjonov, Ilhomjon Bekmirzaev. – Toshkent: Hilol-nashr, 2020. – J. 1-2. – 704. 592 b.

2.36. Burhonuddin Margʻinoniy. Hidoya. – T.: Adolat, 2000. – J. 1. – 848 b.

2.37. Movarounnahrda qozilik hujjatlari: tarixiy ildizlar va tahliliy yondashuvlar: monografiya / I.I.Bekmirzaev; masʼul muharrir Z.Islomov; Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti. – Toshkent: TIU, 2014. – 332 b.

2.38. Бобожонов А. Ёқут Ал-Ҳамавийнинг «Муʼжам Ал-Булдон» асарида Фарғона ва Фарғоналик олимлар. -// Margʻilon shahrining jahon sivilizatsiyasi tarixidagi oʻrni. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. –Toshkent-Margʻilon: 2007. – 164 b.

2.39. Bosvort K.E. Musulmon sulolalari. OʻzRFA. “Fan” nashriyoti, 2007. – 116 b.

2.40. Joʻraev Z.M. Movardiyning Sharq davlatchilik taʼlimoti X-XI asrlar. – Toshkent: OʻzMU, 2015. – 310 b.

2.41. Ziyodov Sh. Mahmudov. Q. Oʻrta asrlarda yashagan

mashhur samarqandlik allomalar. – T.: G‘afur G‘ulom, 2019. – 256 b.

2.42. Komilov M. Movarounnahrda fiqh ilmining rivoji va faqih Alouddin Samarqandiy. Monografiya. – T.: Istiqlol, 2006. – 208 b.

2.43. Komilov M. Mu‘jam Buldon» asarida Farg‘ona va farg‘onalik olimlar // Marg‘ilon shaxrining jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o‘rni. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent-Marg‘ilon, 2007. – 165 b.

2.44. Qozoqov T, Vohidov A, Ro‘zinov A. Buyuklarga beshik bo‘lgan Axsikent yoxud Farg‘ona allomalari. “Navruz” nashriyoti. Toshkent-2020. 223b.

2.45. Qoriev O. Farg‘ona fiqh maktabi va Burhoniddin Marg‘inoniy. – Toshkent: Fan, 2009. -253 b.

2.46. Maxsudov D. Abul Barakot Nasafiy va uning «Madorik tanzil va haqiq ta’vil» asari. Monografiya. – T.: Movarounnahr, 2014. – 198 b.

2.47. Nazarov Q. Falsafa qomusiy lug‘ati. – T.: Sharq, 2004. – 457 b.

2.48. Oqilov S. Movarounnahrda Moturudiya ta’limotining shakllanish tarixi. – T.: Movarounnahr, 2012. – 192 b.

2.49. Hasaniy M. Marg‘iloniyning “Hidoya” asari va unga yozilgan sharhlar. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. – 48 b.

### *Arab tilidagi adabiyotlar:*

2.50. Abdulaziz Buxoriy. Kashf asror ‘an usul faxr islam Bazdaviy. – Bayrut: Dor kitob arabiy, 1997. – J. 3. – 378 b.

2.51. Abdulhay Laknaviy. Favoid bahiya fi tarojim Hanafiy. – Qohira: Dor Kutub islomiya, 1896. – J. 1. – 262 b.

2.52. Abdulhay Laknaviy. Muqaddima Umdatir-Rivoya. – Bayrut: Dorul-kutubil-ilmiyya, 1999. – 231 b.

2.53. Abul Barakot Hofizuddin Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy. Mustasfo. – Riyoz: Umm quro, 2011. – J. 1. – 1122 b.

2.54. Alouddin Kosoniy. Badoi’us-Sanoi’. – Qohira: Matbatul-jamaliyya, 2008. – 534 b.

2.55. Ahmad ibn Mustafo Tosh Kubri Zoda. Miftoh saodat va misboh Siyodat. – Bayrut: Dor kutub ilmiya, 2007. – J. 1-3. – 405. 567. 734 b.

2.56. Ahmad ibn Muhammad Nosir Abbos Avdiy. Tahqiq Muntaxabu-l-Husomiy. – Karachi, Pokiston: Maktabatul bushro, 2010. – 360 b.

2.57. Doktor Valiyiddin Muhammad Solih Farfur. Muzhab fiy usul Mazhab a’la Muntaxab. – Damashq, 1999. – 1312 b.

2.58. Muhammad ibn Ahmad Abu Abdulloh Zahabiy. Duval islom. – Bayrut: Dor sodir, 1999. – J. 1-2 – 437. – 384 b.

2.59. Yusuf Ilyan Sarkis. Mu’jam Matbu’ot arabiyya Muarriba. – Qohira: Dor Kutub olam, 1997. – J.1. – B. 406.

2.60. Hoji Xalifa Mustafo ibn Abdulloh. Kashf zunun an asomiya Kutub val funun. – Bayrut, Livan: Dor ihyo turos arabiy, 2008. – J. 1-2. – 559. – 1023 b.

2.61. Xatib Bag’dodiy. Fatovoi G’iyosiyya. – Riyoz: Matbatul-amiriyya, 1999. – 667 b.

### **3. Dissertatsiya, avtoreferat, monografiya, ilmiy to’plamlar va tadqiqotlar**

#### ***O‘zbek tilida:***

3.62. Duturaeva D. Pravleniya Karakitaev (vtoraya chetvert XII – nachalo XIII vv.) Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata istoricheskix nauk. Toshkent. 2010. – 50 s.

3.63. Ziyodov Sh. Abu Mansur Moturidiy yozma merosi va uning «kitobut ta’vilot» asari: t.f.n. dis... avtoref. – T: O‘z FA ShI, 1999. – 46 b.

3.64. Kenjaboeva R. X–XIII asrlar Movarounnahr hanafiy manbalarida vaqf masalalari: isl.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD). Dis... avtoref. – T.: “Toshkent kimyo texnologiya instituti”, 2021. – 48 b.

3.65. Komilov M. M. Movarounnahr fiqh ilmi rivojida Alouddin Samarqandiyning o‘rni va «Tuhfat ul-fuqaho» asarining ahamiyati: tar.fan.dokt. dis... avtoref. – Toshkent, 2000. – 48 b.

3.66. Mirzaev N. XIX-XX asr boshlarida Toshkent qozixonalarida yuritilgan ijtimoiy munosabatlarga oid hujjatlar:

tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD). Dis... avtoref. – T.: Toshkent kimyo-texnologiya instituti, 2021. – 52 b.

3.67. Muminov A. Hanafiy ulamolarning Markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o‘rni va roli (II–VII/VIII–XIII asrlar): tar.fan.dokt. dis... avtoref. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2003. – 46 b.

3.68. Muxtarov B. Nosiruddin Samarqandiyning “Fiqh an-nofe” asari hanafiy fiqhiga oid muhim manba: tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) Dis... avtoref. – T.: Toshkent kimyo texnologiya instituti, 2021. – 44 b.;

3.69. Muhammadaminov S. Abu Hafs Nasafiyning «Matla’ Nujum va majma’ ulum» asari va uning Markaziy Osiyo islom ilmlari rivojida tutgan o‘rni (XI asr oxiri – XII asr o‘rtalari): t.f.n. dis... avtoref. – T. O‘z FA ShI, 2012. – 42 b.

3.70. Nasrullaev N. Lutfulloh Nasafiyning “Fihi Kaydoniy” asari va unga yozilgan sharh, hoshiyalar tahlili: tar.fan.nom. dis... avtoref. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2012. 44 b.

3.71. Oqilov S. Movarounnahrda moturidiya ta’limotining shakllanish tarixi. Monografiya. – T: Movarounnahr, 2012. – 192 b.

3.72. Qosimov M. Shamsu-l-aimma Saraxsiyning “Mabsut” asarida moliyaviy masalalar: isl.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD). Dis... avtoref. – T.: “Toshkent kimyo texnologiya instituti”, 2021. – 44 b.

3.73. Qoriev O.A. Burhon din Marg‘inoniy va uning fiqhshunoslik tarixidagi o‘rni: t.f.n. dis... avtoref. – T. O‘z RFA ShI, – Toshkent, 2001. – 46 b.

3.74. G‘aybullaev S.Faxrul-islom Bazdaviyning «Usul» asarida hanafiy usul qoidalari tahlili: tar.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) Dis... avtoref. – T.: 2022. – 50 b.

#### **Rus tilida:**

3.75. Адам Мес. Мусулманский ренессанс. – М.: Наука, 1978. – 458 с.

3.76. Азаматов, Р. И. Теория селей шариата и её связь с источниками исламского права: учебное пособие / Азаматов Р. И. [Текст]. – Уфа: Изд-во БГПУ, 2018. – 124 с.

3.77. Анарбаев А. Городская культура Ферганы в эпоху античности и средневековья. докторская диссертация в виде научного доклада. Ташкент. 2017. – 92с.

3.78. Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Монография. Том 1. – Москва: Издательство восточной литературы. 1963.– 137 с.

3.79. Барковская Е. Ю. Муслманское право и правовая культура / Е. Ю. Барковская. – М.: Изд-во РАГС, 2001. – 75 с.

3.80. Беляев Е. А. Арабы, ислам и арабский халифат в раннее средневековье / Е. А. Беляев. – М.: Наука, 1965. – 279 с.

3.81. Болшаков О. Г. Бухара времени Ибн Сины / Писменные памятники и проблемы культуры народов Востока. XV годовичная научная сессия ЛО ИВ АН СССР. – Ч.ИИИ (Доклады и сообщения о творчестве Ибн Сины). – М., 1981. – 166 с.

3.82. Бурхануддин М. Хидоя. Комментарии муслманского права / М. Бурхануддин. – М.: Волтерс Клувер, 2008. – 807 с.

3.83. Ван ден Берг Л. В. С. Основные начала муслманского права согласно учению имафов Абу Ханифы и Шафии. (пер. с голланд.) / Л. В. С. Ван ден Берг. – М.: Наталис, 2005. – 234 с.

3.84. Грязневич П. А. Ислам и государство (К истории государственного-политической идеологии раннего ислама) // Ислам: Религия, общество, государство. – М.: 1984. – 202 с.

3.85. Грюнебаум Г. Э. фон. Классический ислам. Очерки истории (600-1258) / Г. Э. фон Грюнебаум. – М.: Наука, 1988. – 216 с.

3.86. Жидков О. А. История государства и права зарубежных стран: учебник / О. А. Жидков. – М.: Изд-во МГУ, 1998. – 624 с.

3.87. Игнатенко А. А. Средневековые «поучения владыкам» и проблематика власти // Социально-политические представления в исламе. История и современность. – М.: 1987. – 346 с.

3.88. Ибрагим Т. Ислам: вероучение и обряды // Ислам и мусулмане в России. – М.: 1999. – 85 с.

3.89. Лившис Р. З. Теория права / Р. З. Лившис. – М.: БЕК, 1994.-224 с.

3.90. Массе А. Ислам очерк истории. Перевод с французского Н.Б. Кобриной и Н.С. Луской. – М.: Издательство Восточной литературы, 1963. – 230 с.

3.91. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекистана: Т: 1952-1987. Том. И-ХИ. 433. 587. 553. 559. 538. 735. 553. 795. 599. 699. 442 с.

3.92. Сюкияйнен Л.Р. Мусулманское право. Вопросы теории и практики. – М.: Наука, 1986. – 250 с.

3.93. Ульрих Р. Матуриди и суннитская теология в Самарканде. Алматы: Фонд “XXI век”. 1999.–286 с.

3.94. Филштинский И.М. История арабов и халифата. (750-1517 гг.). – 3-е изд., испр. и доп. – М.: АСТ: ВостокЗапад, 2006. – 349 с.

3.95. Шарл Р. Мусулманское право. Перевод с французского С.И.Волка. – М.: Иностранной литературы, 1959. – 142 с.

3.96. Шагавиев Д.А., Ямалиев И.М. Классификация разрядов факихов ханафитского толка: мнение Шихаб дина Марджани. Минбар. Исламис Студиес. 2018. – 119 с.

3.97. Хайдарова М. С. Основные направления и школы мусулманского права // Мусулманское право (структура и основные институты). – М.: 1984.-48 с

#### **Хорижий тилларда:**

3.98. Ali ibn Sulton Muhammad Qori Makkiy. Zov’ul ma’oliy fi sharhi Bad’ al-amoliy. – Istanbul: Syleymaniye Ktp., Bağdatlı Vehbi, nr. 1791. – 202s;

3.99. Ahmet Цzel. Hanefi Fikih Blimleri. – Ankara: 2000. – 784 s.

3.100. Calder, N. «al-Sarakhsi», Muhammad b. Ahmad b. Abu Sahl Abu Bakr, Shams al- A’imma.» Yencyclopaedia of Islam, Second Yedition. Yedited by: P. Bearman; Th. Bianquis; C. Ye. Bosworth; Ye. van Donzel; and W. P. Heinrichs. Brill, 2011. Brill

Online. Yale University. 8 February 201. 8217 r.

3.101. Joseph Schacht and C. Ye. Bosworth. The Legacy of Islam. Oxford University Press. Second yedition, 1974. – p. 392.

3.102. Muhammad Hashim Kamall. Principles of Islamic Jurisprudence. – UC., Cambridge, 1997 Reprinted. – P. 1. The Islamic Texts Society.-338 p.

3.103. Mehmet Boynukalın. Hanefo Uşyl Muhtasarlarının Gelişimi: (II) Husameddin Yel-Ahsoketo'nin Yel-Muntehab'ı ve Hanefo Uşylundeki Yeri-// makale. Kocaeli İlahiyat Dergisi c. 1, sy. 2, Aralık 2017, -29 s.

3.104. Muller F.M. The sacred books of the Yeast. Volume VI. The Qur'an. Translated by Palmer Ye.H. Motilal Banarsidass.-388 p.

3.105. Brockelmann C. Geschichte der arabishen Literatur. – T. I-II. – Weimar-Berlin, 1898. – 427 s.

3.106. Brockelmann C. Geschichte der arabishen Literatur. – Supplementband I-III. – Leiden, 1937. - 973 s.

3.107. Joseph Schacht and C. Ye. Bosworth. The Legacy of Islam. Oxford University Press. Second yedition, 1974. – 392 p.

3.108. Jusuf Dhafić. Najznačajniji klasični hanefijski učenjaci. // <https://www.zeriislam.com/artikulli.php?id=3271> (30 Maj 2018).

3.109. Kavakci Yusuf Ziya. Xi ve Xii asirlarda Karahanlilar devrinde Mavara' al-Nahr Islam hukukcilari. Ankara. 1976.-322 s.

3.110. Kutlu Sıñmez. İslm Mezhepleri Tarihinde Uşyl Sorunu // İslmî İlimlerde Metodoloji: Uşyl Mes'elesi 1, 2005, 440 s.

3.111. Murtazo Kose. Topkapi sarayi muzesi kutuphanesi arabca yel yazmalar katalogundagi hanefi fiqhina ait yeserlerin listesi. // Islam hukuku Aristirmalari dergisi. sy. 7 – Nisan: 2006. – 498 s.

#### **4. Internet manbalari:**

4.112. <https://islaminstitut.uz>

4.113. <https://islom.uz>

4.114. <http://quran.uz>

4.115. <https://uza.uz/>

4.116. <http://muslim.uz>

- 4.117. <https://archive.org>  
4.118. <http://ru.wikipedia.org/wiki>  
4.119. <http://islam-book.info>  
4.120. <https://almajidcenter.org>  
4.121. <https://uzanalytics.com>  
4.122. [www.maktabaalmeshkat.net](http://www.maktabaalmeshkat.net)  
4.123. <https://portal.yek.gov.tr/works/advancedsearch/full>  
4.124. <https://www.assabile.com/convert-date-hijri-gregorian.htm>  
4.125. <https://eservices.kfnl.gov.sa>  
4.126. [https://archive.org/details/rain\\_bow2020\\_yahoo\\_20171127](https://archive.org/details/rain_bow2020_yahoo_20171127)  
4.127. <http://search.mandumah.com/Record/994225>  
4.128. <https://dromh.org/index.en>

## ILOVALAR

### *1-Ilova*

#### **Islom shariatining yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlari (1-uslub)**

1	Birinchi shariat davri	Muhammad (s. a. v.) arab qabilalarini islomga da'vat etgan, islomiy qonunlarni e'lon qilgan va "Xulafoi Roshidin"lar davlatni boshqargan bosqich.
2	Ikkinchi shariat davri	fiqh va kalom ilmiga asos solingan bosqich.
3	Uchinchi shariat davri	fiqh va kalom ilmiga asos solingan bosqich.
4	To'rtinchi shariat davri	ijtihad davri tugagan va fiqhning mavjud mazhablar doirasida rivojlangan davri yoki taqdid bosqichi.
5	Beshinchi shariat davri	fiqhning uyg'onishi va diniy islohotlar bosqichi

### *2-Ilova*

#### **Islom shariatining yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlari (2-uslub)**

1		Shariatning vujudga kelishi davri (610-632) -Muhammad (s. a. v.) ning Muhammadlik vaqtlari.
2	Birinchi fiqh davri	"Xulafoi Roshidin"lar davlatni boshqargan muddat (632-661).
3	Ikkinchi fiqh davri	kichik sahobalar va tobeinlar hayot bo'lgan davr (661-750).
4	Uchinchi fiqh davri	hijratning ikkinchi asri birinchi yarmidan to'rtinchi asri o'rtasigacha (760-980).
5	To'rtinchi fiqh	hijratning to'rtinchi asri ikkinchi

	davri	yarmidan Abbosiylar sulolasi barham topgunga kadar bo'lgan davr (980-1260).
6	Beshinchi fiqh davri	Abbosiylar xalifaligi tugatilgandan hozirgi kungacha bo'lgan davr (XIII asrdan hozirgacha)

### **3-Ilova**

#### **Hanafiy mazhabidagi faqihlarning tabaqalanishi**

birinchisi	mujtahid mutloq bo'lib, bunga to'rtta mazhab imomlari kiradilar
ikkinchisi	mazhab mujtahidi bo'lib, unga mazhabboshilar shogirdlari kiradilar; unga Hanafiy mazhabida imom Abu Yusuf, imom Muhammad ibn Xasan Shayboniy, Zufar ibn Huzayllar
uchinchisi	muqayyid yoki masalalar mujtahidi, bu toifa mujtahidlar mazhab imomlari javob bermagan masalalar bo'yicha hukm chiqara oladigan faqihlardir. Bu guruhga Abu-l-Hasan Ubaydulloh ibn Hasan Kaxriy (260/874-340/952), Shamsulaimma Abdulaziz ibn Ahmad Halvoniy (vaf. 447/1056), Shamsulaimma Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy (vaf. 438/1047)lar kiradilar;
to'rtinchisi	taxrij ulamolari, bu toifa fiqhiy qoidalarni sharhlab, tushunarsiz o'rinlariga izoh bera oladigan darajadagi ulamolar hisoblanadi;
beshinchisi	tarjih ulamolari, bular rivoyatlar ichida afzalini tanlab olishga qodir bo'lgan allomalar bo'lib, ulardan yeng yiriklari Abu-l-Hasan Ahmad ibn Muhammad Kuduriy (vaf. 428/1037), Burhonuddin Marg'inoniylardir;
oltinchisi	taqlid ulamolaridir. Bu toifa ulamo-lar yeng kuchli, kuchli va zaif dalillar va fatvolarni ajrata biladigan darajadagi ulamolar bo'lib, ular har bir mazhabda va hamma zamonlarda ko'pchilikni tashkil yetganlar.

#### **4-Ilova**

### **Movarounnahr fiqh maktabining ilk davri yirik vakillari kuyidagilar:**

1.	Ahmad ibn Hafs Abu Hafs Kabir Buxoriy
2.	Muhammad ibn Muhammad Abu Mansur Moturidiy
3.	Abdulloh ibn Muhammad ibn Yokub ibn Horis Ustoz Subazmuniy (258/872-340/952)
4.	Abu-l-Hasan Ali ibn Said Rustugʻfaniy (vaf. 349/961)
5.	Ahmad ibn Abbos ibn Husayn ibn Iyad Abu Nasr Iyadiy (vaf. X asr)
6.	Jaʼfar ibn Muhammad ibn Muʼtazz ibn Mu-hammad ibn Mustagʻfir ibn Fath Abu-l-Abbos Mustagʻfiri Nasafiy (349/961-432/1041)
7.	Abdulaziz ibn Ahmad ibn Nasr ibn Solih Shamsulaimma Halvoni (vaf. 447/1056)
8.	Ali ibn Muhammad ibn Abdulkarim ibn Muso Bazdaviy (Bazdaviy) (400/1010-481/1089)
9.	Hasan ibn Mansur ibn Mahmud Faxruddin Qozixon Oʻzgandiy Fargʻoniy (vaf. 592/1196)
10.	Ishoq ibn Muhammad ibn Ismoil Abu-l-Qosim Hakim Samarqandiy (vaf. 341/953)
11.	Abu-l-Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Samarqandiy (vaf. 373/984)
12.	Ubaydulloh ibn Umar ibn Iso Qozi Abu Zayd Dabusiy (vaf. 430/1039)
13.	Muhammad ibn Mansur ibn Muxlis Abu Ishoq Navqadiy (vaf. 434/1043)
14.	Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr Shamsulaimma Saraxsiy (vaf. 437/1046-1047)
	Abdulaziz ibn Abdurrazzoq Margʻinoniy (vaf. 477/1085)

## 5-Ilova

### Hanafiy fiqhida e'tirof etilmagan asarlar va uning sabablari

№	Sababi	Izohi	Mualliflar va asarlar nomlari
1	Fiqhiy manbaning o'ta darajada muxtasarligi (ya'ni qisqa bo'lishi)	Manbaning muallifi ilmi va amali bilan mashhur bo'lsa ham fatvo olishda ye'tiborsiz hisoblanadi. Chunki o'ta qisqa berilgan matndan o'quvchi muallif nazarda tutgan ma'noni tushunmasligi mumkin.	Umar ibn Nujaymning (vaf.1005/1597) "Nahr foiq fi sharhi kanz daqoiq", Muhammad ibn Ali Haskafiyning (1616-1677) "Durr muxtor sharhi tanvir absor"
2	Muallifning tarjimai xoli va fiqhiy saviyasidan bexabarligi	Ulamolar muallifning taniqli faqihlardan ta'lim olib, mashhur faqih bo'lishi lozimligini aytganlar	Shamsiddin Ko'hisoniyning (vaf.962/1554) "Jome' rumuz", Abul Makorim Abdulloh ibn Muhammad Samarqandiyning (vaf.907/1501) "Sharh an-niqoya"
3	Muallifning ye'tiqodiga qarab ajratish	Ba'zi hollarda muallif mo'taziliylikka yoki shialikka ye'tiqod qila turib	Najmiddin Zohidiy Xorazmiy (vaf.658/1260) mo'taziliy bo'lsada hanafiy fiqhida mashhur asarlar muallifi hamdir.

		hanafiylikka oid asar yozgan bo'lishi mumkin.	Jumladan, "Qunya" ("egalik qilish") garchi Movarounnahrda ye'tiborli manbalar undan iqtibos keltirgan bo'lsalar ham. Mahmud Zamaxshariyning hanafiylik va shofe'iylikning qiyosiy huquqshunosligiga bag'ishlangan "Ruusul masoil" ("masalalar boshi") asari ham.
4	Olimlar orasida keng tarqalmaganligi	Bir yurt olimlari ishonchliligiga umume'tirof qilmagan bo'lsa, vaqtlar davomida ko'pchilik bilmagan, yetib kelmagan yoki yo'qolib ketganligi manbaning ishonliligi munozarali bo'lishi mumkindir.	Abdulhay Laknaviy (1847-1886) ma'lumoticha, arab diyolarida keng tarqalmagan "Muhit Burhoniy" Hindiston va Xuroson diyolarida keng tarqalgani uchun "e'tiborli" manbalar qatoriga chiqqan.

5	Zaif qarashlar ko‘p naql qilingan	Bunday manbalardan naql qilinmaydi, iqtibos olinmaydi deb hisoblangan	Abu Bakr ibn Ali Haddodiyning (vaf.800/1397) “Siroj Vajjoh” (“yorqin chiroq”), Fazlulloh Muhammad ibn Ayubning (vaf.666/1268) “Fatavoyi sufiya” (“Sufiylik fatvolari”) asarlari kabi
---	-----------------------------------	---	--

### 6-Ilova

#### Husomuddin Axsikatiy qalamiga mansub O‘zRFAShI № №11458 inventar raqami ostida saqlanayotgan “G‘oyat Tahqiq” (“Izlanish cho‘qqisi”) asari mundarijasi

Qo‘lyozmadagi mundarija	Sahifalar bo‘yicha mundarija
اقسام النظم فالمعني فيما يرجع الي معرفة احكام الشرع اربعة في وجوه النظم صيغة و لغة-4	اقسام النظم فالمعني فيما يرجع الي معرفة احكام الشرع اربعة في وجوه النظم صيغة و لغة-4a
الخاص-5	الخاص 5 a -
العام-5	العام 5b -
النص-9	النص 9a-
المفسر-10	المفسر a10 -
المحكم-11	المحكم 11b-
الامر-12	الامر 12b-
الخفي-13	الخفي 13a-
المشكل-14	المشكل 14a-
المجمل-15	المجمل 15a-
المتشابه-16	المتشابه 16a-
القسم الثالث باب البيان و هي أربع-17	القسم الثالث في وجوه استعمال ذلك النظم 17a-
الحقيقة-17	الحقيقة 17b-
المجاز-18	المجاز 18a-


حكم المجاز-25	حكم الحقيقة a-25
عموم المجاز-26	عموم المجاز-26 b
امتدع الجمع بين الحقيقة و المجاز- 27	امتدع الجمع بين الحقيقة و المجاز 27 a-
متي امكن عمل؛ الحقيقة سقط المجاز-37	متي امكن عمل؛ الحقيقة سقط المجاز- 37b
المجاز خلف عن الحقيقة-42	المجاز خلف عن الحقيقة -42a
قرينة المجاز خمت انواع-44	الحكم للمجاز / 44a-الحقيقة خمسة الانواع 44b-
-	الحكم الكناية-48a
-	الحقوف علي احكام النظم-56a
-	بيان ايجاز-58a
-	فتخصص فيحتمل العموم- 64b
-	اعتبار الصيغةفصل - 66a
-	نفي الحكم عند عدمه في المنصوص عليه-76b
فصل في الامر-87	فصل في الامر-87b
-	الجزء الصحيحة b-98
-	صفة الكمال-102a
-	ساير الفرايض-102b
-	النوع الثالث الموقت -109a
-	فصل في حكم الواجب-111b
-	قضاء -112 a
-	اختلاف المشايخ - 112b
-	هلا- 130 a
-	فصل في النمي -142 a
-	وقت طلوع الشمس-156a
-	الصوم -157a
-	فصل في حكم الامر فالنمي في-.. 163a
-	الفصل في بيان الباب الشرايع -167a
-	الفصل في العزيمة والرخصة -174a
باب السنة-195	باب السنة b-195
-	فضل في المعارضة -226a
باب البيان-239	باب البيان -239b

باب الاجماع-276	باب الاجماع(278b) 274b-
باب القياس-282	باب القياس 282 (285b) -b
-	فصل اختلوا الناس(389a) 382 a-
فصل في بيان الهلية-391	فصل في بيان الهلية 391b-
-	فصل في اهوي المعارضة علي الاهلية- 408a
-	باب الحروف المعاني 505 a-

**7-ilova**


O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti “Asosiy fond”da №10718/1 ashyo raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma namunasi.





8-Ilova

“Muntaxabu-l-Husomiy”ning urdu tilida nashr qilingan litografiyasi




### **9-Ilova**

Valiyuddin Farfur “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining zamonaviy nashrini tabdil va tahqiq qilishda foydalangan Dubay shahrida joylashgan “Jum’a Majid” kutubxonasida – №1163 ashyo raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasi




### 10-Ilova

“Maktaba shirkatu ilmiyyatu multon” nashriyotida Sohibzoda Mavlaviy Muhammadulloh tomonidan “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining urdu tilida sharhlangan “Misbah Husomiy” nomli asar




### 11-Ilova

“Maktab himoiyat” nashriyoti tomonidan nashr qilingan “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining Mavlono Muhammad Jamol tomonidan urdu tilida yozilgan “Iyzoh Husomiy” nomli asari




## 12-Ilova

Husomuddin Axsikatiyning na bir “G‘oyatu-t-tahqiq” nomi bilan mashhur asarining Abdulaziz Buxoriy tomonidan yozilgan “kitob Tahqiq” nomli sharhining toshbosma nusxasi



### 13-Ilova

“Muhammad Sa’id” nomli nashriyot tomonidan nashr qilingan Mavlono muftiy Muhammad Yusuf tomonidan yozilgan urdu tilidagi sharhi



## 14-Ilova

D.K.Nishanova tomonidan Germaniyaning Lambert nashriyotida ingliz tilida nashr qilingan monografiya

This monograph provides information about the basics of Islamic jurisprudence, its role in Islamic science, the importance of the scientific heritage of Husamuddin al-Akhsikathi, the contribution of «Al-Muntakhab al-Husami» to the Fergana school of jurisprudence. The book also examines the scientific environment during the scholar's lifetime, commentaries on the scholarly legacy of Husamuddin al-Akhsikathi, and the copies preserved in the World Manuscripts Fund today, among others. The appendix to the monograph includes the Arabic text of "Al-Muntakhab al-Husami".



Dildora K. Nishanova



Dildora K. Nishanova was born in 1987 in Namangan region, Uzbekistan. In 2008, she graduated Tashkent Islamic University. In 2012, she obtained Master's Degree at the same University. Since 2020 she is a PhD candidate of the Department of IRICA of Islamic History & Source Studies at the International Islamic Academy of Uzbekistan.


### THE ROLE OF "MUNTAKHAB FI USUL AL- MADHHAB (AL-MUNTAKHAB AL-HUSAMI)"



LAP LAMBERT Academic Publishing

### *15-Ilova*

Axsikentda topilgan minora qoldig‘i hududdan 80-100 metrlar G‘arb tomonda pishiq g‘ishtdan qurilgan yana bir me‘moriy binoning buzilib ketgan qoldiqlari ochib o‘rganilmoqda. Bu inshoot ham XV-XVI asrlarga tegishli yekanligi aniqlandi. Dastlabki natijalarga ko‘ra, bu inshoot qoldiqlari haqiqatan ham XV-XVI asrlarga mansub hammom qoldiqlari yekanligi aniqlandi. Natijada hozirgi kunda saqlanib qolgan hammomning xonalari butun holatda saqlanmaganligi, kuchli tabiiy ta’sirlar (qattiq yer silkinishi va zilzila) natijasida vayron bo‘lganligi aniqlandi. Ushbu joydan XV-XVI asrlarga oid Temuriylar davrida zarb yetilgan chaqa tangalar ham topildi. Shuningdek, vayron bo‘lgan inshootning g‘ishtlari turli o‘lchamlarda bo‘lib 44x42x6 sm. hamda 24x24x4 sm. o‘lchamdagi pishiq g‘isht namunalari bilan ishlangan poydevor va devor qoldiqlaridir. Devorlarni bezash uchun maxsus mayolikali rangli g‘ishtlardan ham foydalanishgan. Bizga ma‘lumki temuriylar davridagi ko‘plab me‘moriy inshootlar tashqi va ichki ko‘rinishlariga bezak berish maqsadida asosan ko‘k va och havorangli g‘ishtlardan keng foydalanishgan. Bu yerda turli uslubda ishlangan sirli sopol idishlar, tigel parchalari, shisha siniqlari, sopol quvur siniqlari, mis buyum qoldiqlari va ularning siniqlari ham uchradi. G‘ishtlarning maxsus tayyorlangan loy, ya’ni kir qorishmasi bilan qurilgan. O‘rta Osiyo me‘morchiligida IX-X asrlarda ham Kir qorishmasini tayyorlash va u bilan asosan suv va namgarchilik yuqori bo‘ladigan inshootlarni, asosan hammomlarni qurishda keng foydalanganlar.



## MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI .....	3
<b>I BOB. MOVAROUNNAHRDA USULU-L-FIQH ILMI RIVOJLANISHINI O‘RGANISHNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>8</b>
“Usulu-l-fiqh” ilmining Movarounnahrga kirib kelishi va rivojlanish bosqichlari .....	8
1.2. Mintaqada yozilgan “usulu-l-fiqh” ilmiga doir manbalar tarixshunosligi .....	19
<b>II-BOB. FARG‘ONA FIQH MAKTABI RIVOJIDA HUSOMUDDIN AXSIKATIYNING O‘RNI .....</b>	<b>34</b>
2.1. Husomuddin Axsikatiy yashagan davrdagi ijtimoiy, siyosiy va diniy hayot .....	34
2.2. Farg‘ona fiqh maktabi vakillari va ularning faoliyati .....	46
2.3. Husomuddin Axsikatiy ilmiy merosining hanafiy fiqhi rivojiga qo‘shgan hissasi .....	56
<b>III BOB. HUSOMUDDIN AL-AXSIKATIYNING “MUNTAXABU- L-HUSOMIY” ASARI USULU-L-FIQH ILMIGA OID MUHIM MANBA .....</b>	<b>69</b>
3.1 Asarning qo‘lyozma nusxalari kodikologik tahlili .....	69
3.2. “Muntaxabu-l-Husomiy” asarining bayon uslubi .....	88
3.3“Muntaxabu-l-Husomiy” asarining matn tahlili .....	105
MUQADDIMA .....	125
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....	127
ILOVALAR .....	138

**NISHANOVA DILDORA KOMILJANOVNA**

**HUSOMUDDIN AXSIKATIY ILMIY  
MEROSINING FARG‘ONA FIQH  
MAKTABIDAGI O‘RNI**



Litsenziya AI № 032465 / 15.07.2022

Bosishga ruxsat etildi: 17.01.2026 Ofset qog‘oz.

Qog‘oz bichimi 64x84 1/16 Times garniturası. Shartli bosma  
tobog‘i 9.6 Nashr hisob tobog‘i 9,7. Adadi 50

«ZAMON POLIGRAF» OK  
bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,  
Bobodehqon mahallasi, 45 uy.